



Tadqiqot.uz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJY OLIY TA'LIM MUASSASALARI
PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR,
MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR

DAVRIYLIGI: 2018-2025

RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI

ILMIY KONFERENSIYA

YANGI O'ZBEKISTON: 2025

CONFERENCES.UZ

ILMIY TADQIQOTLAR

| ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES |

MATERIALLAR TO'PLAMI

DEKABR

№83
TOSHKENT



CONFERENCES.UZ



**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР 1-
ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
ЧАСТЬ-1**

**NEW UZBEKISTAN:
SCIENTIFIC
RESEARCH PART-1**

ТОШКЕНТ-2025



УЎК 323(575.1)(063)

КБК 66.3(5Ў)я43

И-18

DOI 10.5281/zenodo.11390854

«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2025]

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 83-қўп тармоқли илмий маърифий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 декабрь 2025 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2025. – 196 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегияси — Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ: — илмий изланиш ютуқларини амалий-тажриби жиҳат йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талабалар-иштирокчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилиб бориб, унда таълим тизимида илғор замонавий ёндашувлар, натижалар, муаммолар, ечимлар, статистик вазиятлар ва илмий-тараққиётнинг истиқболли режалари таҳлил қилинади конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонови, ю.ф.д., доцент

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши -

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар -

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар –

Исмаилов Хусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни -

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви -

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети "Беш муҳим ташаббус" маркази раҳбари)

6. Журналистика -

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар –



Самигова Умида Хамидуллаевна (“Kinder land of Asia” НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)

8.Адабиёт-

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни -

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар -

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б.доценти, PhD)

11.Жисмоний тарбия ва спорт-

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари -

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар –

Зупарова Зулфия Ахрор қизи DSc (Тошкент тиббиёт академияси фармакология кафедраси доценти, фармацевтика фанлари доктори)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович DSc (Альфраганус университети, фармацевтика ва кимё кафедраси мудири, фармацевтика ва кимё фанлар доктори, профессор)

20.Ветеринария

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

21.Кимё фанлари ютуқлари -

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -

Ўўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)



23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович "ТИИМСХ"

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -

Phd доцент Қахҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География- Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadiqiqot.uz

Page maker/Верстка/Сахифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакции журнала.

www.tadiqiqot.uz

ООО Tadiqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadiqiqot.uz/>; E-mail:
info@tadiqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of

www.tadiqiqot.uz

Tadiqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadiqiqot.uz/>; E-mail:
info@tadiqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000



ХУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

КУЧЛИ РУХИЙ ҲАЯЖОНЛАНИШ (АФФЕКТ) ҲОЛАТИДА ҚАСДДАН ОДАМ ЎЛДИРИШ ЖИНОЯТИНИНГ КРИМИНОЛОГИК ТАВСИФИ ВА ЖИНОЯТЧИ ШАХСИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ

Эркабоев Отабек Аҳаджон ўғли
Жиноят ишлари бўйича Андижон
шаҳар судининг тергов судьяси

Аннотация: Мазкур мақолада Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 98-моддасида назарда тутилган кучли рухий ҳаяжонланиш ҳолатида қасддан одам ўлдириш жиноятининг таркиби ва квалификация қилиш масалалари, кучли рухий ҳаяжонланиш (аффект) ҳолатида жиноят содир этган шахсни индивидуал хусусиятлари, унинг хулқ-атвори, жиноят содир этишга ундовчи белгилари таҳлил қилинган. Шунингдек, кучли рухий ҳаяжонланиш ҳамда аффектни тушуниш бўйича асосий ёндашувлар, уларнинг ҳуқуқий ва психологик жиҳатдан тушуниш муаммолари батафсил кўриб чиқилган. Мақолада ўтказилган таҳлиллар натижасида ушбу тоифа жиноятнинг содир қилган шахсларни жиноят содир этишга ундовчи белгилар таҳлил қилинган ва бу борада Ўзбекистон Республикаси жиноят қонунчилигини янада такомиллаштиришга қаратилган таклифлар илгари сурилган.

Калит сўзлар: кучли рухий ҳаяжонланиш, аффект, кучли рухий ҳаяжонланиш ва аффект ҳолати, жиноят ҳуқуқи, психологик ҳолат, эмоция, жиноятчи шахси, баҳолаш мезонлари.

Жиноят қонунчилигини либераллаштириш ва айбдорга адолатли жазо тайинлашда мавжуд жиноят қонуни нормаларини чуқур илмий жиҳатдан таҳлил қилиш ҳамда уларни амалиётда қўллаш билан боғлиқ муаммоларни ечиш борасида таклифлар билдириш муҳим аҳамият касб этади.

Ўзида вазиятга боғлиқ равишда вужудга келиш характерини касб этувчи кучли рухий ҳаяжонланиш (аффект) ҳолатида қасддан одам ўлдириш жиноятида айбдорнинг ўзига хос ижтимоий хавфлилик даражасини инобатга олиниши муҳим аҳамиятга эга.

Гарчи кучли рухий ҳаяжонланиш (аффект) ҳолатида шахснинг хулқ-атвори ўзи учун одатдагидек бўлмасада, унда айбдор шахснинг ўзига хос жиҳатлари ва аниқ социал-психологик сифатлари намоён бўлади.

Аффект (кучли рухий ҳаяжонланиш) ҳолатида содир этилган жиноятни қонун билан муҳофазаланадиган ижтимоий муносабатларга зарар етказувчи ижтимоий хавфли қилмиш сифатида эмас, балки жиноятни содир этишга олиб келувчи бир қанча сабабларга эга бўлган социал ҳодиса сифатида баҳолаганимизда, кўпчилик ҳолатларда айбдор ижтимоий хавфли қилмиш содир этишни тўғридан-тўғри мақсад қилмаганлигига ва уни ўзидаги вазиятга



нисбатан салбий таъсирини тўхтатишга етарли даражада куч топа олмаганлигига гувоҳ бўлишимиз мумкин.

Кучли руҳий ҳаяжонланиш (аффект) ҳолатида пайдо бўлган низоли вазият кучли эмоционал энергияни ва жисмоний кучни бошқариш имкониятини чекловчи жараён билан бир вақтда юз беради ва у шахснинг психик жадаллигини тўсатдан ошириб юборовчи катализатор вазифасини ўтайди.

Бундай вазиятда шахс жиноят содир этиш ҳақидаги қарорни бу қарор тўғрилигига амин бўлганлиги учун эмас, балки бу ҳолат ўз ҳаракатини тўғри танлашини қийинлаштирувчи шароитда юз берганлиги ва бу шахсга чуқур ўйланган қарор қабул қилиш имкониятини бермаслиги билан тавсифланади.

Кучли руҳий ҳаяжонланиш (аффект) ҳолатидаги шахс хулқ-атворни танлаш жараёни ўйланмаган ҳолда юз беради, лекин бу ҳолат хулқ-атворни қўққисдан юз беришини англамайди, бу вақтда ҳам индивид аниқ бир социал назорат таъсири остида бўлади.

Индивиднинг шахсий фазилатларида тажовузкор хулқ-атвор қуйидаги икки кўринишда намоён бўлади:

1. Етарли даражада ўзини-ўзи бошқариш қобилиятига эга бўлмаган шахс. Бундай шахслар кўпчилик томонидан ўрта меъёрда қабул қилинадиган ёки умуман эътибор ҳам қилинмайдиган вазиятларга ҳам тажовузкор жавоб беришга мойил бўлади. Бу каби ҳиссий беқарор шахсларда аффект кўпчилик ҳолатларда кутилмаган қўзғатувчи таъсирлар (кутилмаганда қилинадиган тажовуз, ҳақорат қилиш ва бошқалар) натижасида юзага келади.

2. Ўзини-ўзи бошқариш қобилияти юқори бўлган шахслар ўзларининг тажовузкор хатти-ҳаракатларини боса олади, лекин алоҳида ҳолатларда улар ҳам ҳаддан ташқари тажовузкор ҳаракатларга қўл уруши мумкин. Бу шахсларни аффектни вужудга келишига нисбатан мойиллиги, аввало, ташқи ҳолат ёки вазиятга ва аффектни вужудга келишига хизмат қилувчи руҳий қийинчиликларни тўпланишига нисбатан пассив шаклдаги муносабати билан ажралиб туради. Узоқ муддатли руҳий тушкунлик ёки қийинчиликлар ҳолати мавжуд шароитларда аффект арзимаган сабаб туфайли ҳам вужудга келиши мумкин. Бу ҳар иккала турдаги шахсий фазилатларга эга бўлган шахслар аффект ҳолатида портлашга мойил бўлади. Улар бир-биридан аффектни қўзғатувчи вазиятларнинг ўзига хос характери билан фарқланади.

Шахсда шаклландиган хулқ-атвор шаклига тўхталадиган бўлсак, бу индивидни тасаввурида бир неча маротаба такрорланиш натижасида ҳам вужудга келиши мумкин. Масалан, агар субъект ўз хотини хиёнат қилган тақдирда уни ўлдириши ҳолатини кўп маротаба тасаввур қилган бўлса, шу ҳолат ҳақиқий ҳаётда юз берган тақдирда худди шу шаклда ҳеч қандай иккиланишларсиз мазкур жиноятни содир этиши мумкин. Чунки, бу вақтгача субъект онгида бу жараён қатъий хулқ-атвор шакли сифатида мустаҳкам ўрин эгаллаб бўлган бўлади.

Кучли руҳий ҳаяжонланиш (аффект) ҳолатида хулқ-атвор шаклини танлашда субъектни айнан қайси ижтимоий қадриятга зарар етказишга



урунмоқчилиги муҳим рол ўйнайди. Бундай фикрга келишимизга сабаб, хатто аффект ҳолатида ҳам шахс ўзи учун жуда қадрли бўлган объектга зарар етказишга қўли бормайди.

Шу сабабли, юқори ҳукукий онг даражасига эга бўлган шахс ўч олиш эҳтиёжини қондириш учун бўлсада аффект ҳолатида қасддан одам ўлдира олмайди. Юқори ҳукукий онгнинг таъсири туфайли шахснинг одам ўлдириш хулқ-атвор шаклини амалга ошириш даражаси пасайиб кетади. Бу каби ҳолатларда одам ўлдириш содир этилиши учун иродавий кучланиш зарур ва уни таъсирида одам ўлдириш хулқ-атвор шакли сифатида шахс томонидан қабул қилинади.

Бу ўринда қотилнинг психикасини ўрганиш муҳим аҳамият касб этади. Тадқиқотлар кўрсатишича, кўпчилик (76%) маҳкумлар содир этган жиноятларини таснифи бўйича ўзларини фақат тергов ва суд муҳокамасида айбдор деб ҳисоблаб, ўз қилмишларига пушаймон бўлишган. Қолганлари ўз айбларини тан олишмаган (5,5%) ва қисман тан олишган (18,8%).

Ўрганилаётган жиноятларнинг ўзига хослиги шундаки, аффект ҳолатида жиноят содир этган шахс хулқ-атворига нафақат уни шахсини тавсифловчи салбий хусусиятлар (жамиятда ўрнатилган нормаларга зид зарарли одатлар ва қарашлар), балки, шахсни шаъни ёки кадр-қимматига қилинган ғайриқонуний тажовузларга нисбатан ўз муносабатини билдириш орқали жамиятда адолатни ўрнатишга бўлган айбдор позициясини ифодаловчи ижобий жиҳатлар ҳам таъсир кўрсатади. С.С.Ниёзова олиб борган тадқиқотларга кўра, “одам ўлдириш жиноятининг 10 фоизида виктим ҳолат шахсларнинг эпизодик (вақтинчалик) хулқ-атвори оқибатида тасодифан юзага келса, 90 фоизида шахсларнинг актив- салбий виктим хулқ-атвори оқибатида юзага келади”.

Жиноятчи шахсини криминалогик тавсифлашда социал - демографик белгилар муҳим рол ўйнайди. Ушбу белгилар аниқ бир шахсни шаклланиш манбаларини ва аффект ҳолатида субъектни жиноий хулқ-атворига таъсир кўрсатувчи ҳолатларни аниқлаш имконини беради.

Мазкур тоифадаги жиноят ишларини ўрганиш натижасида маҳкумларни қуйидаги икки гуруҳга ажратиш мумкин:

Биринчи гуруҳга узок муддат давомида рухий бузилиш ҳолатида бўлган; жабрланувчи томонидан мунтазам равишда ҳақоратга учраган, бир неча маротаба зўрлик ишлатиши натижасида салбий ҳис туйғуларни аккумуляция бўлишига олиб келган ҳамда шу каби бир вазият натижасида кучли рухий ҳаяжонланиш (аффект) ҳолати вужудга келган шахслар;

Иккинчи гуруҳга эса жабрланувчи билан нормал муносабатда бўлган, лекин жабрланувчи томонидан кутилмаганда содир этилган ахлоққа зид ёки ҳуқуққа хилоф ҳаракатлар натижасида аффект ҳолати вужудга келган ва жиноят содир этган маҳкумлар киради.

Жиноят содир этилгунга қадар жабрланувчи ва айбдор ўртасидаги ўзаро яхши муносабатни мавжудлиги, аввало, кутилмаганда жабрланувчи содир этадиган ҳуқуққа хилоф ёки ахлоққа зид ҳаракатларни айбдорда кучли рухий



ҳаяжонланиш ҳолатини вужудга келтиришдаги юқори даражадаги таъсирдан далолат беради.

Ўрганилган жиноятларнинг кўпчилик қисми оилавий-маиший низолардан (оилада, қариндошлар ўртасида, қўшнилар ва бошқа яқин танишлар) келиб чиққан ҳолда содир этилган бўлиб, бу ҳолат жабрланувчи ва айбдорнинг бир-бири билан яқин таниш бўлганлигидан далолат беради.

Мазкур жиноятни криминологик тавсифида жиноят содир этган шахсни индивидуал-психологик ўзига хослиги, хусусан, асаб фаолиятининг тури, темпераменти, бошқа психофизиологик ўзига хослиги муҳим аҳамият касб этади. Ушбу хусусиятлар аффектнинг вужудга келишини осонлаштиради ва бу ўз навбатида криминал хулқ-атвори амалга ошишига туртки бўлувчи омил бўлиб хизмат қилади. Бу шахснинг ўзига хос белгилари ҳамда бошқа жиноят содир этишга туртки бўлувчи ҳолатлар барчаси биргаликда бизга аффект ҳолатида содир этиладиган жиноятларда асосий ролни шахсни ижтимоий-психологик жиҳатлари ташкил этади, деган хулосага келишимизга олиб келади.

Шундай қилиб, индивид табиатини жамиятдан ажратган ҳолда тасаввур қилиб бўлмайди, чунки инсонни қобилияти узоқ йиллар давомидаги жамиятдаги ижтимоий муносабатлар жараёнида шаклланади ва бу ўз навбатида шахсни ижтимоий-психологик ривожланишига таъсир кўрсатади. Ижтимоий омиллар инсон руҳияти ва ҳаётининг фаолиятида муҳим рол ўйнайди. Шу сабабли, шахснинг ғайриқонуний ҳаракатларни содир этишига нафақат эмоционал қўзғалиш асос бўлади, балки ушбу эмоционал портлашга замин ҳозирлаган ижтимоий-иқтисодий шароитлар ва жамиятнинг таъсири ҳам муҳим туртки бўлиши мумкин.

Демак, кучли руҳий ҳаяжонланиш (аффект) ҳолатида қасддан одам ўлдириш жиноятини содир этган шахс бу ҳаракатлари билан ўзини ҳақиқий социал қиёфасини ҳам кўрсатади. Гарчи бу каби жиноятлар олдиндан ўйланмаган ҳолда содир этилсада, лекин у тасодифийликни ҳам ўзида касб этмайди, шахс ғайриқонуний ҳаракатлари орқали жамиятдаги ижтимоий қадриятларга бўлган иродавий муносабатини ифодалайди. Бу иродавий муносабатларни шаклланиши ва пайдо бўлишига эса жамиятдаги ижтимоий муносабатларнинг таъсири замин бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. *Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси* // (Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси) <https://www.lex.uz/acts/111453> . (Мурोजаат этилган сана 11.03.2025 йил).
2. *Алиев Х.Р. Жиноят ҳуқуқи. Хусусий қисм.* – Тошкент: ТДЮУ нашриёти, 2021.
3. *Солихов У.Б. Жиноят ва жазо назарияси.* – Тошкент: Академия нашриёти, 2022.
4. *Каримов Б.К. Аффект ҳолатида содир этилган жиноятларнинг*



ҳуқуқий ва криминалогик жиҳатдан таҳлили. – Тошкент: Фан, 2019.

5. Раҳимов Ж. Аффект ҳолатидаги жиноятларнинг криминалогик хусусиятлари // “Юристар журнaли” – 2023, №3, 45–52-бетлар.

6. Сайфуллаев Н. Кучли руҳий ҳаяжонланиш ҳолатида содир этилган жиноятларни квалификация қилиш масалалари // “Ҳуқуқ ва бурч” – 2022, №2, 33–40-бетлар.

7. Йўлдошев Ф. Одам ўлдириш жиноятларининг психологияси ва уларнинг профилактикаси – Диссерт. юрид. фан. ном. – Тошкент: ТДЮУ, 2021.



ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЧЕЛОВЕК: ПРОБЛЕМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ, ФОРМАТЫ СОТРУДНИЧЕСТВА И ПЕРСПЕКТИВЫ СООТНОШЕНИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ

Фаёзиддинова Шахризода Фирдавсовна,

Студентка 1-ого курса русской филологии,

Самаркандский государственный институт иностранных языков

E-mail: shaxrizodafayoziddinova@gmail.com

Аннотация. В статье представлены результаты анализа основных проблем, возникающих при взаимодействии человека и искусственного интеллекта, а также выявлены ключевые форматы их сотрудничества. Исследование показало, что интеграция ИИ сопровождается этическими, социально-экономическими и информационными рисками, влияющими на различные сферы человеческой деятельности. При этом определены перспективные модели совместной работы человека и интеллектуальных систем, способствующие оптимальному распределению функций. Полученные результаты подчёркивают необходимость комплексного подхода к регулированию взаимодействия человека и ИИ и формирования безопасной среды их сосуществования.

Ключевые слова: искусственный интеллект; взаимодействие человека и ИИ; социальные риски; этические проблемы; форматы сотрудничества; автономные системы; технологическая зависимость.

Введение

Стремительное развитие искусственного интеллекта за последние десятилетия сделало его неотъемлемой частью современной действительности. ИИ используется в медицине, экономике, образовании, промышленности и повседневной жизни. При этом растёт интерес к вопросам взаимодействия человека и интеллектуальных систем, а также к тому, как распределяются их возможности. Актуальность темы обусловлена как преимуществами технологий, так и возникающими рисками — от этических дилемм до угрозы замещения некоторых профессий.

Цель статьи — исследовать основные проблемы взаимодействия человека и ИИ, определить существующие форматы сотрудничества и обозначить перспективы развития их соотношения.

Методология исследования

В исследовании применён комплекс теоретических методов, позволяющий всесторонне рассмотреть взаимодействие человека и искусственного интеллекта.

Во-первых, использовался анализ научной литературы, направленный на выявление современных подходов к пониманию сущности ИИ, особенностей его функциональных возможностей и социальных последствий его внедрения.



Такой подход позволил систематизировать существующие теоретические модели и определить ключевые направления научной дискуссии по проблеме взаимодействия человека и интеллектуальных систем [1; 3; 6].

Во-вторых, был применён сравнительный метод, обеспечивающий сопоставление когнитивных и операциональных возможностей человека и искусственного интеллекта. Данный метод дал возможность проследить отличия в характере обработки информации, принятии решений и адаптивности систем, а также выявить преимущества и ограничения обоих типов интеллектов [2; 4].

Третьим этапом исследования стал системный подход, который позволил рассматривать взаимодействие человека и ИИ как целостную структуру, включающую технологические, социальные, этические и функциональные компоненты. Такой подход обеспечивает понимание того, каким образом различные элементы системы влияют друг на друга и формируют комплексные модели сотрудничества [1; 5].

Кроме того, использовалось теоретическое моделирование, направленное на прогнозирование перспектив развития гибридного интеллекта и оценку возможных сценариев распределения функций между человеком и ИИ в будущем. Данный метод даёт возможность предположить, как может измениться соотношение человеческих и машинных возможностей при дальнейшем развитии технологий [3; 7].

Применение перечисленных методов позволило сформировать целостное представление о текущем состоянии взаимодействия человека и искусственного интеллекта и определить направления дальнейших исследований.

Результаты исследования

Проведённое исследование позволило выявить совокупность ключевых проблем и тенденций, определяющих современное состояние взаимодействия человека и искусственного интеллекта. Результаты анализа показали, что влияние ИИ носит системный характер, затрагивая как индивидуальные когнитивные способности человека, так и социальные структуры.

Во-первых, выявлена значимость этических вызовов, сопровождающих развитие интеллектуальных систем. Основные из них связаны с непрозрачностью алгоритмов, рисками автономного принятия решений и возможностью нарушения конфиденциальности данных пользователей. Эти факторы требуют разработки устойчивых механизмов регулирования, включающих стандарты ответственности и принципы алгоритмической прозрачности.

Во-вторых, полученные результаты подтверждают наличие выраженных социально-экономических рисков. Расширение автоматизации приводит к изменению структуры рынка труда: ряд профессий теряет актуальность, тогда как появляются новые направления деятельности, ориентированные на управление и сопровождение сложных цифровых систем. В этой связи особое



значение приобретает повышение уровня цифровой грамотности и адаптация человеческого капитала к требованиям технологической среды.

Третьим значимым аспектом стало выявление опасности технологической зависимости. Чрезмерная ориентация на использование интеллектуальных систем способна снижать уровень самостоятельного мышления, ограничивать способность к критическому анализу и формировать привычку принимать решения при опоре на алгоритмические рекомендации. Это создаёт угрозу постепенного ослабления когнитивной автономии человека.

Кроме того, исследование выявило наличие серьёзных информационных угроз, обусловленных использованием ИИ в медиапространстве. Алгоритмы, управляющие потоками информации, могут усиливать манипулятивное влияние, формировать информационные «пузыри» и искажать восприятие социальной действительности. Это требует повышенного внимания к вопросам медиаграмотности и совершенствованию систем контроля качества информации.

Наряду с выявленными проблемами результаты анализа позволили определить основные форматы сотрудничества человека и искусственного интеллекта, среди которых выделяются:

- Ассистивная модель, в которой ИИ выступает вспомогательным инструментом и используется для решения аналитических, вычислительных и оперативных задач.
- Партнёрская модель, предполагающая совместное принятие решений, где человеческая интуиция и экспертность дополняются точностью и скоростью обработки данных со стороны ИИ.
- Автономные системы под контролем человека, отличающиеся высокой степенью самостоятельности при сохранении стратегического управления и ответственности за человеком.
- Творческое взаимодействие, позволяющее использовать ИИ как источник новых идей, вариантов решений и концептуальных моделей в научной, художественной и проектной деятельности.

Суммарно полученные результаты демонстрируют, что взаимодействие человека и ИИ представляет собой динамично развивающуюся систему, характеризующуюся как сложными вызовами, так и значительными возможностями. Оптимизация форм сотрудничества требует дальнейших исследований, направленных на обеспечение безопасного, эффективного и сбалансированного использования интеллектуальных технологий.

Обсуждение результатов исследования

Полученные результаты подтверждают, что взаимодействие человека и искусственного интеллекта представляет собой сложный и многослойный процесс, который не может быть сведен лишь к функции замещения человеческого труда. Современные тенденции демонстрируют постепенный переход от простой автоматизации к более сложным моделям совместной деятельности, где человек и ИИ выступают взаимодополняющими элементами единой интеллектуальной системы.



Одной из наиболее перспективных концепций, выявленных в ходе анализа, является развитие гибридного интеллекта. Эта модель предполагает сочетание человеческих когнитивных особенностей — интуитивного мышления, креативных способностей, этического суждения и эмоциональной чувствительности — с высокой вычислительной мощностью, точностью и скоростью обработки данных, характерными для интеллектуальных алгоритмов. Подобное объединение открывает возможности для повышения эффективности принятия решений, расширения аналитического потенциала и оптимизации деятельности в различных профессиональных сферах.

Особое внимание должно быть уделено этическим аспектам взаимодействия человека и ИИ, поскольку именно в этой области формируются наиболее значимые вызовы. Рост автономности алгоритмов, непрозрачность процессов принятия решений и риски злоупотребления данными определяют необходимость создания международных стандартов регулирования, направленных на обеспечение прозрачности, подотчетности и безопасности технологий. Разработка таких норм позволит минимизировать возможные социальные и правовые противоречия и обеспечить ответственное использование ИИ в социальной, экономической и политической сферах.

Несмотря на динамичное развитие интеллектуальных технологий, человек сохраняет уникальные характеристики, которые невозможно полностью смоделировать алгоритмическими средствами. К ним относятся способности к эмпатии, моральной оценке, творческому переосмыслению информации и формированию индивидуальных смыслов. Эти качества делают человека незаменимым участником процесса взаимодействия, обеспечивая гуманистический и ценностный фундамент технологических преобразований. Дальнейшие перспективы развития отношений между человеком и ИИ лежат не в сфере конкуренции, а в области расширения человеческих возможностей посредством интеллектуальных систем. Это требует модернизации образовательных программ, ориентации на развитие цифровой грамотности, формирования критического мышления и навыков ответственного использования технологий. Такой подход позволит гармонизировать процесс внедрения ИИ и обеспечит устойчивое развитие общества в условиях цифровой трансформации.

Заключение

В современном обществе искусственный интеллект постепенно становится системообразующим фактором развития технологий, экономики и социальных практик. Анализ взаимодействия человека и ИИ показывает, что ключевые затруднения связаны прежде всего с этическими дилеммами, вопросами социальной адаптации и рисками, возникающими при обращении с данными. Эти вызовы требуют комплексного и междисциплинарного подхода, включающего как технические, так и гуманитарные аспекты регулирования.

Перспективные модели сотрудничества между человеком и искусственным интеллектом формируются в широком спектре форматов: от инструментальной и ассистивной поддержки до совместного решения



творческих и аналитических задач. В таких гибридных системах ИИ не заменяет человека, а усиливает его когнитивные и операционные возможности, создавая условия для формирования новых типов профессиональной и интеллектуальной деятельности.

В долгосрочной перспективе соотношение возможностей человека и ИИ будет определяться балансом между автоматизацией и необходимостью сохранения человеческого контроля. Для устойчивого и безопасного развития технологий требуется формирование эффективных механизмов нормативного регулирования, обеспечение прозрачности алгоритмов, а также утверждение принципа приоритетной роли человека в принятии социально значимых решений. Только при соблюдении этих условий взаимодействие человека и искусственного интеллекта сможет стать основой гармоничного технологического прогресса.

Литература

1. Рассел С., Норвиг П. Искусственный интеллект: современный подход. — М.: Вильямс, 2022. — 1152 с.
2. Бриньолфссон Э., Макафи А. Вторая эпоха машин: работа, прогресс и процветание. — М.: Манн, Иванов и Фербер, 2016. — 368 с.
3. Тегмарк М. Жизнь 3.0. Быть человеком в эпоху искусственного интеллекта. — М.: Альпина нон-фикшн, 2020. — 416 с.
4. Бостром Н. Искусственный интеллект. Этапы. Угрозы. Стратегии. — М.: Эксмо, 2019. — 496 с.
5. Флориди Л. Этика искусственного интеллекта. — Оксфорд: Oxford University Press, 2019. — 304 p.
6. Kaplan J., Haenlein M. Siri, Siri, in my hand: Who's the fairest in the land? On the interpretations, illustrations, and implications of artificial intelligence // Business Horizons. — 2019. — Vol. 62(1). — P. 15–25.
7. Goertzel B., Pennachin C. Artificial General Intelligence. — New York: Springer, 2007. — 470 p.



**NORMUROD NORQOBILOVNING “ENATOSH” HIKOYASIDA
ASSOTSIATIV TAFAKKUR USULI**

Oxunova Go`zalxon Xamdambek qizi

Farg`ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

oxunovagozalxon81@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy obrazning muhim spetsifik xususiyati hisoblangan assotsiativlik haqida mulohazalar bildirilib, u yozuvchi Normurod Norqobilov hikoyasi misolida tahlil qilingan.

**Kalit so`zlar:** Badiiy obraz, ko`pma`nolilik, metaforiklik, assotsiativ tafakkur, assotsiativ obrazlilik.

Adabiyotshunoslikda badiiy asarning asosiy negizini tashkil qiladigan tushuncha badiiy obrazdir. U qadimdan va hozirga qadar so`z san`atining eng asosiy elementi sifatida namoyon bo`ladi. Shuning uchun ham badiiy obraz san`at asarining o`ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim vosita sanaladi. Badiiy obraz borliqning san`atkor ko`zi bilan ko`rilgan va uning ideali asosida qayta ishlanib, hissiy idrok etish mumkin bo`lgan aksidir.

“Badiiylik san`atning barcha turlarida, ana shu turlarning o`ziga xos vosita hamda imkoniyatlari asosida voqelikni qayta ijodiy idrok etish orqali aks ettiruvchi, ayni paytda san`at turlarining barchasini birlashtirib turuvchi yagona umumiy xususiyatdir. Badiiylisiz san`atning o`zi yo`q va bo`lishi ham mumkin emas. Demak, badiiylik san`atning barcha turlari uchun yagona mezon sanaladi”.¹ Har qanday badiiy asar badiiylik asosiga quriladi, badiiylisiz biror bir badiiy asarni tasavvur qilish qiyin.

Masalan, yozuvchi Normurod Norqobilovning “Enatosh” hikoyasi (asardagi badiiy obrazlar Tog`ay, och jigarrang tUSDagi baland qoyatosh – Enatosh, AyiqtoSh, Adolat kampir)da Tog`ay “toshi yengil, poyi-piyoda odam”, “o`ta lanj ko`nikmaga ega inson” sifatida gavdalanadi. Yozuvchi hikoyada badiiy obrazning muhim komponentlaridan biri bo`lgan ko`pma`nolilik, ya`ni obrazning metaforikligi hamda assotsiativligiga e`tibor qaratadi. Bunda muallif ikki tushuncha o`rtasidagi metofoRik-o`xshashlikni namoyon etadi. Masalan, Enatosh qoyasi va Tog`ayning onasi Adolat kampir bir-biriga parallel tarzda metafoRik gavdalantiriladi. Yozuvchi mazkur hikoyada “narsa-hodisa va tushunchalar orasidagi ilg`ab olinishi qiyin bo`lgan aloqalarga asoslangan, ularni kutilmagan tarzda biriktirish (qiyoslash, chog`ishtirish, qarshilantirish) orqali voqe bo`luvchi va shu tufayli yuksak darajadagi metafoRiklik, subyektivlik kasb etuvchi obraz”²larni yaratish usuli orqali o`zining badiiy g`oyasini ifodalab bergan:

“U yelkasidan tog`dek bosib turgan g`am balosini, zumga bo`lsa-da, paqqos

¹ Саримсоков Б. Бадийлик асослари. – Тошкент: Bookmany print, 2022. – В.78.

² Литературный энциклопедический словарь. М.: СЭ. 1987. С. 39-40.



unutgancha, qoyatoshning kelbati va qiyofasidan enasiga o'xshash jihatlarni qidirishda davom etdi: boshidagi lachak... manglayi... bo'rtiq yanoqlari... cho'zinchoqroq yuzi... o'ng yelkasi so'liga qaraganda biroz kengroq demasa... o'ng tizzasi ustidagi qo'li... xiyol oldinga egilgan qomati – o-o, bari juda-juda o'xshash...”, “Enatosh – boshida lachak, so'l qo'li ko'ksiga yopishgan, o'ng kafti tizzasida, tepalik sari xayolchan termulib o'tirgan ayol timsoli – ulkan qoyatosh” sifatida gavdalantiriladi. Tog'ay momosi vafot etgandan so'ng uning issiq taftini Enatosh bag'ridan topgani uchun ham Adolat momo Enatoshga o'xshatiladi. Bundan ayon bo'ladiki, haqiqiy san'atkor yoki yozuvchi nigohi hamisha mohiyatga qaratiladi, u narsa-hodisa orasidagi tashqi o'xshashlikni emas, balki yashirin ichki o'xshashlikka qarab fikrlaydi, ya'ni obrazlarning nafaqat suratini, balki siyratini ham namoyon etishga harakat qiladi o'quvchi-kitobxon ko'z o'nggida haqqoniy tasvir yaratadi va bu orqali badiiy voqelikni ishonarli ifodalanishiga erishadi. Hikoyada har bir obraz orqali insoniy meh-muhabbat masalasi yoritiladi.

Badiiy obrazning yana bir muhim jihati assotsiativlikdir. “Obrazli tafakkur yuksak darajada assotsiativ sanalishiga sabab shuki, reallikda ko'rilgan bir narsa sana'tkor xayolida butunlay boshqa bir narsani, u bilan mutlaqo aloqasi bo'lmagan narsani uyg'otishi mumkin”³. Masalan, “Enatosh” hikoyasidagi qoyatoshni bir qarashda tabiatdagi go'zal bir manzara sifatida namoyon etilgan deyish mumkin, ammo hikoya davomida uning obraz darajasiga ko'tarilishi va o'zida assotsiativlikni namoyon etishining guvohi bo'lamiz. Ya'ni bir qarashda tabiatning bir ko'rinishi bo'lgan qoyatosh o'zida Tog'ayning momosi Adolat kampirdagi mas'umlikni, uning mehrini o'zida mujassam etgan va badiiy obrazdagi assotsiativlikni namoyon qilgan. Qolaversa, qoyatosh timsoli turli falsafiy-ramziy ma'nolarda bir mushtipar ona, jafokash ayol hayotiga parallel ravishda tasvirlangan bo'lib, yozuvchi tabiat va inson o'rtasidagi ko'rinmas bog'liqlikni ifodalash uchun uni muhim badiiy obraz sifatida yaratgan.

Hikoyada mehribon, fidoyi ona va qoyatosh obrazlari parallel tarzda tasvirlanar ekan, kitobxonda bu holat obrazlarni bir-biriga o'xshatish, ular o'rtasidagi bog'liqlikni anglash orqali assotsiativ obrazli tafakkurni aniqlashga ko'mak beradi. Shu ma'noda hikoyada yuksak badiiy tafakkur mahsuli o'laroq assotsiativ obraz yaratiladi. Adolat momoning kenja o'g'li Tog'ay tomonidan enasiga o'xshatilayotgan “sanoqli qo'rg'onlardan iborat jimitdek ovul joylashgan do'nglik betida ko'kka bo'y rostlab turgan Enatosh” obrazi ramziy ma'noda onaning metin irodasi, toshdek qattiq bardoshi, bemisl kuch va sabr timsoli sifatida gavdalantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, assotsiativ obrazlilik kitobxondan ham faollikni, tafakkur qilishni, mulohaza yuritishni va asarni qabul qilgan holda tushunib, anglashni talab etadi. Zero o'quvchini o'ylashga majbur qiladigan asar yuksak badiiy tafakkur mahsuli hisoblanadi.

³Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б.47.



Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Литературный энциклопедический словарь. М.: СЭ. 1987.
2. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари. – Тошкент: Bookmany print, 2022.
3. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013.



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШАЛАР ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

TEMURIY MALIKALARNING SIYOSIY VA MADANIY HOMIYLIGI

Maxmudova Muazzamxon

Fargʻona davlat universiteti Jahon tarixi
kafedrasi katta oʻqituvchisi, tarix fanlari
boʻyicha falsafa doktori (PhD)
maxmudovamuazzam1982@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada temuriylar saltanatining bosh ayollari hisoblangan, davlat boshqaruvida oʻz oʻrniga ega boʻlgan temuriy malikalar Saroymulkxonim va Gavharshodbeginning faoliyati haqida soʻz boradi.

Tayanch soʻzlar va iboralar: Saroymulkxonim, Gavharshodbegim, davlat boshqaruvi, meʼmorchilik, masjid.

Temuriylar davri tarixiy manbalaridan bizga maʼlum-ki, temuriy malikalarning jamiyatda nufuzi juda baland boʻlib, ular mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida muhim oʻringa ega edilar. Ularning homiyligida masjidlar, xonaqohlar va ziyoratgohlar barpo etilgan. Temuriy malikalar hukmdorning onasi yoki rafiqasi sifatida davlat boshqaruvida ham faol ishtirok etib, muhim qarorlarni qabul qilgan. Temuriy malikalar jang paytida turmush oʻrtoqlariga hamrohlik qilgan.

Amir Temurning sevimli ayoli, bosh xonim Saroymulkxonim juda oqila va dono ayol edi. Amir Temur Amir Husaynni yenggandan keyin uning uchta ayolini oʻziga nikohlab oladi, ulardan biri Qozonsultonning qizi Saroymulkxonim edi. Temuriy ayollarining muhim vazifalaridan biri shahzodalarga taʼlim berish edi. Temuriylar sulolasining bolalari tugʻilgandan soʻng oʻtkaziladigan marosimda otalaridan ajratilib, saroyning buyuk ayollaridan birining nazorati ostida tarbiyalangan[1:2870]. Saroymulkxonim Amir Temurga farzand tugʻib bermagan boʻlsa-da, unga Amir Temurning nabirasi, keyinchalik 1405-1409-yillarda Movarounnahrda hukmronlik qilgan shahzoda Xalil Sultonning taʼlim-tarbiyasiga rahbarlik qilish vazifasi yuklatilgan[2:59]. Shohrux Mirzoning oʻgʻli Ibrohim Sulton Malika Tuman ogʻa tarbiyasiga yuklatilgan. Mirzo Ulugʻbekning tarbiyasi esa Saroymulkxonim zimmasiga yuklatilgan[3:791]. Azamat Ziyoning “Oʻzbek ayollari tarix sahnasida” asarida ham ushbu maʼlumotlar qayd etiladi[4:25].

Amir Temur Saroymulkxonimni qattiq hurmat qilgan va davlat ishlarini yuritishda ham doim undan maslahat olgan. Amir Temur Yazddan Saroymulkxonim uchun bir necha xarvor asl matolarni xarid qilgani manbalarda yozib qoldirilgan. Ispan elchisi Klavixo keltirgan va oʻziga eng maʼqul kelgan sovgʻalarni ham Amir Temur Saroymulkxonimga taqdim qilganligi, Amir Temurning jon berayotgan damlarda ham Saroymulkxonimning yonida boʻlganligidan ularning munosabatlari juda iliq boʻlganligini anglash mumkin[4:27].

Amir Temur yurishlarida ahli-ayollarini doim oʻzi bilan olib yurgan. Amir



Temur saltanatning bosh xonimi Saroymulkxonim va Shohrux Mirzoni Iroqqa chaqirtirib, ularni Marand mavzesida kutib olgani Shomiyning “Zafarnomasida” aks etgan[5:138-139].

Amir Temur suyuqli ayollari va xonimlari sharafiga me'moriy inshootlar qurdirgan. Ulardan biri Bibixonim masjidi bo'lib, sohibqironning Hindistonga qilgan shonli yurishidan so'ng, bosh xonimga sovg'a sifatida masjid qurilishiga kirishgan. Ba'zi olimlar shu davrdagi Hindiston bilan siyosiy bog'liqlik va me'moriy o'xshashliklarga asoslanib, Bibixonim masjidi loyihasini Dehlidagi Tug'luq masjidiga nisbat berganlar, u ham to'rt ayvonli rejaga asoslangan va ayvonlar ortida gumbazli inshootlarga ega edi[6:82].

Saroymulkxonimdan keyingi nufuzga ega bo'lgan malika Gavharshodbegim Amir Temurning do'stlaridan biri bo'lgan G'iyosiddin Tarxonning qizi edi[7:101]. Temuriylar davri tarixiy manbalarda yozilishicha, Gavharshodbegim yetuk intellektual salohiyatli, siyosiy boshqaruv masalalarida faol, chuqur mulohazali, tashkilotchi ayol bo'lgan. Shohrux Mirzo mamalakatni boshqarishda doim undan maslahat so'ragan. Gavharshodbegimning davlat boshqaruvidagi ishtiroki temuriylar saltanatining barqarorligiga hizmat qilgan bo'lib, uning ilm-fan, madaniyat va me'morchilik sohasidagi faoliyati ham tarixda o'chmas iz qoldirgan.

Tarixchi olim Amriddin Berdimurodov o'zining “Samarqand tarixidan tomchilar” nomli maqolalar to'plamida Gavharshodbegimning hatto shaxsiy muhrga ega bo'lganligini aytib o'tadi, bu malikaning ayrim davlat ishlarida o'zi shaxsiy qaror qabul qilib, uning ijrosini kuzatganini, tasdiqlaganini ko'rsatadi. Muhr to'q yashil mohtobdan, to'q yashil rangda, (nefritdan) bodomsimon shaklda yasalgan bo'lib, sirtiga suls yozuvida arabcha xat bilan “Gavharshodbegim G'iyosiddin Tarxonning qizi” deb yozilgan. Malikaning juda katta siyosiy kuchga ega bo'lgan mazkur muhri bugungacha yetib kelgan, u tosh o'ymakorligining go'zal namunasi. Bu noyob yodgorlik hozirda Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyida CA-13650 raqami ostida saqlanadi[8].

Gavharshodbegim ikkita masjid qurilishiga homiylik qilgan bo'lib, ularning biri Hirotida, ikkinchisi Mashhadga joylashgan. 2010-yilda Hirotning Eski shahar qismida temuriylar davriga tegishli me'moriy yodgorliklarni o'rganish bo'yicha YUNESKO nomidan Germaniya-Afg'oniston arxeologik missiyasi Gavharshodbegim madrasasida arxeologik qidiruv ishlarini amalga oshirganlar.

XV asr boshlarida Gavharshodbegim tomonidan rivojlantirilgan Injil kanalining janubida Musalla deb ataladigan 60 gektarlik katta yer maydonida masjid va maqbarali madrasa qurdirgan[9:98]. Ushbu inshoot 1885-yilda inglizlar buyrug'iga ko'ra buzib tashlangan, uning faqatgina maqbarasi saqlanib qolgan xolos.

Maksin Rouz Shur muallifligida nashr qilingan “G'ozallik va mardlik: Afg'oniston haqida hikoya” (Brave with Beauty: A Story of Afghanistan) kitobida temuriy malika Gavharshodning mamlakatda amalga oshirgan bunyodkorlik faoliyati, ilm-fan va san'at sohasiga ko'rsatgan g'amxo'rliqi tahlil etiladi.

Gavharshod malika bo'lishdan tashqari, san'at va madaniyatni targ'ib qilishda yetakchi ham bo'lgan. U shoir va san'atkorlarni, jumladan, ayol shoir Mehri



Hiraviyni qo'llab-quvvatlab, fors tili va madaniyatini temuriylar sulolasi davriga olib chiqdi[10].

Temuriy malikalar o'z davrining yetuk, bilimli, oqila, nozik didli va yuksak farosatli ayollari bo'lib, davlat boshqaruvida faol ishtirok etganlar. Saroymulkxonim donoligi bilan mamlakatning siyosiy nufuziga o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lsa, Gavharshodbegim majidlar, madrsalar va ilm-ma'rifat maskanlari qurilishiga homiylik qilib, temuriylar davri madaniy merosining boyishiga hizmat qilgan.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Abdoul Hossin Milani. Role of women (khatoons) in the succession issues of the teimurid era. IJBPAS, May, 2015, 4(5): 2866-2874. – P. 2870.
- [2]. Nushin Arbabzadah. Women and Religious Patronage in the Timurid Empire. – California: University of California Press, 2021. – P.59.
- [3]. Syed Jamaluddin. Status of women of the ruling timurid family. – *Proceedings of the Indian History Congress*, Vol. 45 (1984), pp. 790-796. – P. 791.
- [4]. Азамат Зиё. Ўзбек аёллари тарих саҳнасида. – Тошкент: Фан, 2002. – 25-27 б.
- [5]. Низомиддин Шомий ва унинг “Зафарнома” асари. / Низомиддин Шомий. Зафарнома. / Форс тилидан ўгирувчи – Ю. Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир – А. Ўринбоев, изоҳлар ва луғатлар тузувчи – Ҳ. Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О. Бўриевники), Ҳофиз Абрунинг “Зафарнома” га ёзган “Зайл”и (“Илова”)ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳлар тузувчи – О. Бўриев. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 138-139 б.
- [6]. Elena Paskaleva. The Bibi Khanum mosque in Samarqand: Its mongol and Timurid architecture. – Leiden, The Silk Road, 2012. – P. 82.
- [7] The History Of Islamic Culture and Civilization A Quarterly Research Journal Vol. 6, Summer 2015, No. 19. – P. 101.
- [8]. <http://forum.oyina.uz/kiril/article/2018>
- [9]. Alexander Ahrens, Dörte Rokitta-Krumnow, Franziska Bloch and Claudia Bührig. Drawing the Threads Together. 2020, Zaphon, Münster. – P. 98.
- [10]. <https://www.womensactivism.nyc/stories/8376>



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

ANTI-K DAVR OLIMLARI ASARLARIDA SIYOSIY NUTQ TALQINI

Ro'ziyev Elbek O'rol o'g'li

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

elbek_ruziyev@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada qadimgi yunon va rim olimlarining notiqlik va siyosiy nutq borasidagi qarashlari ilmiy tadqiq etilgan. Bu davlatlarda ravnaq topgan notiqlik san'ati o'rta asr va keyingi davr notiqligiga o'rnak bo'lishi ko'rsatib o'tilgan. Aflotun va Arastu kabi yunon olimlari notiqlik san'atining rivojiga qo'shgan hissalar, notiqlik nazariyasiga asos ekanligi ta'kidlangan.

Tayanch tushunchalar: antik davr, notiqlik, siyosiy notiqlik, Aflotun, Arastu, Sitseron

Nutq madaniyati, notiqlik san'atiga odamlar azaldan qiziqqanlar. Nutq madaniyatining yuqori turi hisoblanuvchi notiqlik san'ati qadimgi davrlardan ma'lum bo'lgan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Notiqlik amaliy va ilmiy tadqiqot sifatida qadimgi Rim va Afinada shakllangan. Uning ilk ko'rinishlari Misr, Ossuriya, Vavilon, Hindiston mamlakatlarida paydo bo'lgani ma'lum.

Qadimgi Yunoniston va Rimda asosan uch xil notiqlik ko'rinishi faoliyat ko'rsatgan:

- a) sud notiqligi;
- b) siyosiy notiqlik;
- v) maqto'v notiqligi.

Aflotun fikricha: "Notiqlik bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan shaxs, avvalo, o'z uslubini, talqin etish yo'llarini aniqlab olishi, notiqlik ko'rinishlarini puxta egallab, so'ng ish boshlashi lozim"⁴dir. Aflotun notiqlikni qobiliyat, mahorat sohibi egallashi mumkinligini ta'kidlab, notiqlikka qo'yiladigan eng asosiy talab - bu "emotsional ishontirish" ekanligini aytib o'tadi. U notiqlikning yana bir talabi - "mantiqiy isbot"ni keyingi o'ringa qo'yadi. "Isbotlash emas, ishontirish, ishontirganda ham ta'sirli ishontirish kerak", - deydi Aflotun.

Arastu (er. old.335-yil) tomonidan "Ritorika" asarining yaratilishi ham madaniy, ham ilmiy-ma'rifiy voqea bo'ldi. Arastuning bu asari uch kitobdan iborat. Birinchi kitobida ritorika fanining boshqa fanlar orasida o'rni va nutq turlari haqida so'z boradi. Ikkinchi kitobi isbotlash usullari haqida, uchinchi kitobida - uslub va nutq tuzilmasi haqida so'z yuritiladi. Arastu nutqning uch turini ajratadi: suhbat, sud va epideyktik mavzudagi turlar. Ularning maqsadlari quyidagicha: suhbat mavzusidagi nutqlarda-ishontirish yoki inkor; sud nutqlarida - oqlash yoyinki ayblash; epideyktik nutqlarda - maqtash yoki kamchiliklarni ko'rsatish kabilardan iborat. Notiq bu mavzularni o'z nutqida yoritishi asosiy talab hisoblanib, undan maqsad - tinglovchilarni yaxshi xulqqa chorlash va yaxshi odatlarni egallashga undash edi. Bu

⁴ Platon. Sobr.soch.t.2., 1970. - S. 202.



kabi xislatlarni egallagan shaxs davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta foyda ko'rsatishi aniq, deb hisoblanar edi.

Arastu ham notiqqlar egallashi zarur bo'lgan tamoyillar tizimini yaratdi. Bular:

1. Nutq xizmat qilishi lozim bo'lgan usullar;
2. Notiqning shaxsiy xususiyati va mahorati;
3. Nutq texnikasi va uning usullari;
4. Material tanlash;
5. Reja, shakl, materialni joylashtirish⁵.

Aflotun va Arastu kabi yunon olimlari notqlik san'atining rivojiga ulkan hissa qo'shdilar, notqlik nazariyasiga asos soldilar. Qadimgi Yunoniston va Rimning eng mohir notiqqlari so'zning sir-sinoatini, notqlik nutqining ham amaliy, ham nazariy tomonlarini o'z izlanish va tahlillarida bayon etganlar.

Korneliy Tatsit (er. 57-117) bizga notiqqlar xususiyatlari bayon etilgan "Notiqqlar haqida so'z" risolasini yozib qoldirgan. Ushbu risolada yozilishicha, Gorgiy uch ritorik unurni birinchi bo'lib qo'llagan. Bular: parallelizm, antiteza, anafora. Frasemax esa birinchi bo'lib, notqlik san'atida ritm masalasini ko'rib chiqqan. Pol va Likimiy (Gorgiy shogirdlari) notqlik leksikasi masalasi bilan shug'ullanganlar. Tarixchi va siyosatshunos Tatsitni notqlikning mazmun mohiyatini o'rganish masalasi qiziqtirgan.

Qadimgi Rim notqligining yana bir iste'dodli namoyandasi – Mark Tulliy Sitseron (er. old. 106-43 y). Uning notqlikka bag'ishlangan uch yirik risolalari – "Notiq haqida", "Brut, yoki mashhur notiqqlar haqida", "Notiq" kabilar, notqlik san'atiga qo'shilgan bebaho tuhfadir. Sitseron notiq oldiga ikki shartni qo'yadi: birinchisi, nutq mavzusini chuqur bilishlik; ikkinchisi, nutq mazmunini anglash va tinglovchilarga yetkazib bera olish. Sitseron fikricha: "Notqlik - bu avvalo, san'at, ammo san'atlarning eng mashaqqatlisidir".

"Notiq haqida" risolasida Sitseron notiqqa uch talab qo'yadi bular: 1) Noyob qobiliyat, ong va xotirali bo'lish; 2) notqlik nazariyasini puxta o'rganish; 3) nutqiy amaliyot. Sitseron risolalarining birida shunday yozadi: "So'zlay olishning o'z-i-tabiati in'om etgan xususiyatlarning eng bebahosidir; uni rivojlantirish, doimiy ustida ishlash lozimdir"⁶.

Haqiqatan, Sitseron notiq sifatida o'z tinglovchilariga kuchli his -hayajon bilan ta'sir etishga alohida e'tibor bergan. Shuning uchun ham uning nutqlarida balandparvoz so'z, ibora, mubolag'alar juda ko'p bo'lgan. Biroq ana shu ulug'vorlik asosida u oddiylilik, kulgi-mutoyiba, savolomuz so'z va iboralardan ham keng foydalangan. Jumladan, Sitseron o'z raqibi Katilinaga qarshi nutq so'zlaganda, uni yovuz qilib ko'rsatish uchun "U Rimga o'n ikki tomondan o't qo'ymoqchi edi, halol kishilarning barchasini qirib tashlamoqchi edi", deb mubolag'a qilgan. U o'z nutqiga jiddiy tayyorgarlik ko'rgan. Shunday bir rivoyat bor: Sitseron bir kuni sudda nutq so'zlashga tayyorlanib ulgura olmagan uchun nima qilishni bilmay turgan paytda bir qul xizmatkori kirib, nutq so'zlanishi lozim bo'lgan sud majlisi qoldirilganini

⁵Кохтев Н.Н. Основы ораторской речи [Электронный ресурс]: учеб. Пособие, – 2-е изд., стер. – М. : ФЛИНТА, 2013. – с. 15. – 328 с.

⁶ Кохтев Н. Н. Ko'rsatilgan manba. –b. 23.



xabar qilibdi. Sitseron quvonganidan o‘sha qulni ozod qilib yuborgan ekan⁷. Xulosa sifatida aytish mumkinki, qadimgi antik davr olimlarining qarashlari keyingi tadqiqotlar uchun muhim asos vazifasini bajargan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Кохтев Н.Н. Основы ораторской речи [Электронный ресурс]: учеб. Пособие, – 2-е изд., стер. – М. : ФЛИНТА, 2013. – с. 15. – 328 с.
2. Иномхўжаев С. Нотиклик санъати асослари. – Тошкент:Ўқитувчи, 1982. – Б.105
3. Ortiqov A. va bosh. Oliy maktab pedagogining nutq madaniyati. –Т. ПА Akademiyasi. 2001.
4. Жалилов Х. Нотиклик санъати.-Т.: Ўзбекистон, 1976.

⁷ Иномхўжаев С. Нотиклик санъати асослари. – Тошкент:Ўқитувчи, 1982. – Б.105



INGLIZ TILINI O‘QITISHDA KOGNITIV LINGVISTIKA ASOSIDA “MUVAFFAQIYAT / SUCCESS” KONSEPTINI INTEGRATSIYALASHGAN TEXNOLOGIK MODEL

Abdullayeva Lola Tohirovna

SamDCHTI, Ingliz tili o‘qitish
metodikasi kafedrası dotsenti, PhD.

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilini o‘qitishda kognitiv lingvistika tamoyillari asosida ishlab chiqilgan texnologik model yoritiladi. Tadqiqotda “muvaqqafiyat / success” konsepti markaziy semantik va madaniy birlik sifatida talqin qilinib, uni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatlari tahlil etiladi. Taklif etilgan model matnlarni tahlil qilish, kognitiv xaritalar tuzish, semantik va konseptual mashqlar hamda loyiha asosidagi ta’lim faoliyati bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu bosqichlar orqali o‘quvchilarning konseptual tafakkuri, madaniy ongi va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga erishish maqsad qilingan. Maqolada kognitiv va konseptual yondashuvlarning ingliz tilini o‘qitish amaliyotida qo‘llanish samaradorligi asoslab beriladi hamda ularning zamonaviy ta’lim talablariga mosligi ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: kognitiv lingvistika, ingliz tilini o‘qitish, konsept, muvaqqafiyat (success), kognitiv xarita, semantik tahlil, konseptual yondashuv, loyiha asosidagi ta’lim, kommunikativ kompetensiya.

Kirish. Zamonaviy xorijiy til ta’limida til birliklarini faqat grammatik va leksik darajada o‘rgatish bilan cheklanib qolmasdan, ularni inson tafakkuri, madaniy tajribasi va konseptual dunyoqarashi bilan bog‘liq holda talqin etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan kognitiv lingvistika tilni ong mahsuli sifatida o‘rganib, til va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib beradi (1). Ingliz tilini o‘qitishda ushbu yondashuvdan foydalanish o‘quvchilarning tilni chuqurroq anglashiga va madaniy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada ingliz tilini o‘qitishning texnologik modeli kognitiv lingvistika asosida ishlab chiqilib, unda “muvaqqafiyat / success” konsepti markaziy semantik va madaniy birlik sifatida qaraladi. “Success” konsepti ingliz tilida so‘zlashuvchi jamiyatlarning qadriyatlar tizimini aks ettiruvchi muhim kognitiv model hisoblanadi (2).

Kognitiv lingvistika va til o‘qitish metodikasi

Kognitiv lingvistika tilni bilimlar tizimi sifatida talqin qiladi va lingvistik birliklarning mazmunini konseptual tuzilmalar orqali izohlaydi. G. Lakoff va M. Johnson tadqiqotlarida metaforalar inson tafakkurining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi va kundalik nutqda faol ishlatilishi isbotlangan (1). Bu yondashuv ingliz tilini o‘qitishda leksik birliklarning yashirin ma’nolarini ochib berish imkonini yaratadi.



R. Langacker ta'kidlashicha, grammatik strukturalar ham konseptual mazmunga ega bo'lib, ular orqali voqelikni idrok etish shakllanadi (3). Shu sababli kognitiv yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.

“Muvaffaqiyat / success” konseptining kognitiv va madaniy xususiyatlari

“Success” konsepti ingliz tilida ko'p qatlamli tushuncha bo'lib, u shaxsiy yutuq, ijtimoiy e'tirof, kasbiy o'sish va o'zini o'zi ro'yobga chiqarish kabi ma'nolarni o'z ichiga oladi. Z. Kövecses tadqiqotlariga ko'ra, muvaffaqiyat tushunchasi ko'pincha metaforik modellar orqali ifodalanadi, jumladan: *success is a journey, success is climbing, success is building* (4).

Mazkur metaforalar ingliz tilida so'zlashuvchi jamiyatlarda muvaffaqiyat doimiy harakat, mehnat va rivojlanish bilan bog'lanishini ko'rsatadi. Ushbu konseptni dars jarayoniga kiritish o'quvchilarda til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni anglashga yordam beradi (5).

Texnologik model va uning bosqichlari

Taklif etilayotgan texnologik model ingliz tilini o'qitishda kognitiv lingvistika tamoyillariga asoslanib, “muvaffaqiyat / success” konseptini markaziy didaktik birlik sifatida qo'llashni nazarda tutadi. Ushbu model o'quvchilarning til kompetensiyasini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning konseptual tafakkuri, madaniy ongini va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. Model bosqichma-bosqich amalga oshirilib, har bir bosqich oldingi bilimlarni mustahkamlash va keyingi faoliyat uchun tayanch yaratish vazifasini bajaradi.

Taklif etilayotgan texnologik model quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

1. Matnlarni tahlil qilish

Ushbu bosqichda “success” konseptiga oid autentik matnlar bilan tizimli ishlash tashkil etiladi. Bunday matnlarga mashhur shaxslar biografiyalari, motivatsion nutqlar, ilmiy-ommabop maqolalar, intervyular hamda badiiy matn parchalari kiradi. Matn tanlashda ularning lingvistik murakkabligi, madaniy yuklamasi va o'quvchilarning yosh hamda til darajasiga mosligi hisobga olinadi.

Matnlarni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar asosiy g'oya va muhim ma'lumotlarni aniqlash, “success” konsepti bilan bog'liq kalit so'z va iboralarni ajratib ko'rsatish, shuningdek, matnda aks etgan madaniy qadriyatlar va ijtimoiy stereotiplarni tahlil qilish bilan shug'ullanadilar. Ushbu faoliyat o'quvchilarning o'qish strategiyalarini rivojlantirib, matnni yuzaki emas, balki chuqur va tanqidiy anglashiga xizmat qiladi. Natijada o'qish va tahlil qilish ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi (6).

2. Kognitiv xaritalar tuzish

Ikkinchi bosqichda o'quvchilar “success” konseptining ichki tuzilishini anglash maqsadida kognitiv xaritalar tuzadilar. Kognitiv xaritalar markaziy tushuncha va u bilan bog'liq semantik birliklar o'rtasidagi munosabatlarni vizual shaklda ifodalash imkonini beradi. Ushbu xaritalarda “education”, “hard work”, “motivation”, “career”, “recognition” kabi tushunchalar markaziy konsept bilan mantiqiy aloqada joylashtiriladi.

Mazkur metod o'quvchilarning assotsiativ va mantiqiy tafakkurini



rivojlantirib, bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, kognitiv xaritalar orqali o'quvchilar konseptual aloqalarni mustaqil aniqlashga va o'z fikrlarini vizual shaklda ifodalashga o'rganadilar. Bu esa kognitiv yondashuvning samaradorligini oshiradi (3).

3. *Semantik va konseptual mashqlar*

Uchinchi bosqich semantik va konseptual mashqlarni bajarishga qaratilgan bo'lib, u "success" konseptining turli ma'no qatlamlarini chuqur o'rganishni ta'minlaydi. Ushbu mashqlar sinonim va antonimlar bilan ishlash, metaforik ifodalarni tahlil qilish, frazeologik birliklarni izohlash hamda turli madaniyatlarda muvaffaqiyat tushunchasini solishtirishni o'z ichiga oladi.

Semantik mashqlar jarayonida o'quvchilar nafaqat yangi leksik birliklarni o'zlashtiradilar, balki ularning kontekstual va madaniy ma'nolarini ham anglaydilar. J. Littlemore ta'kidlashicha, kognitiv mashqlar xorijiy tilni o'rganishda nutqiy faoliyatni faollashtirib, o'quvchilarning erkin fikr bildirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (5). Ushbu bosqich og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

4. *Loyiha asosidagi faoliyat*

Texnologik modelning yakuniy bosqichi loyiha asosidagi ta'lim faoliyatidan iborat bo'lib, u o'quvchilarning mustaqil, ijodiy va tadqiqotga yo'naltirilgan ishlarini tashkil etishni ko'zda tutadi. O'quvchilar "Mening muvaffaqiyat konsepsiyam", "Mashhur shaxslarning muvaffaqiyat modeli" yoki "Zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyat" kabi mavzularda loyihalar tayyorlaydilar.

Loyiha faoliyati davomida o'quvchilar ingliz tilida ma'lumot izlash, uni tahlil qilish, saralash va taqdim etish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Yakuniy taqdimotlar og'zaki nutq, muloqot va jamoada ishlash kompetensiyalarini shakllantiradi. Ushbu usul o'quvchilarning kommunikativ va ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish bilan birga, o'rganilgan konseptlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi (7).

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o'qitishda kognitiv lingvistika asosida "muvaffaqiyat / success" konseptini integratsiyalashgan texnologik model o'quvchilarning tilni ongli va chuqur o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib berib, zamonaviy ta'lim talablariga mos innovatsion metod sifatida e'tirof etiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Evans V., Green M. *Cognitive Linguistics: An Introduction*. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006. – 830 b.
2. Kövecses Z. *Metaphor: A Practical Introduction*. – Oxford: Oxford University Press, 2010. – 285 b.
3. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 256 b.
4. Langacker R. W. *Cognitive Grammar: A Basic Introduction*. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 562 b.



5. Littlemore J. *Applying Cognitive Linguistics to Second Language Learning and Teaching*. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2009. – 240 b.
6. Richards J. C., Rodgers T. S. *Approaches and Methods in Language Teaching*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 410 b.
7. Widdowson H. G. *Aspects of Language Teaching*. – Oxford: Oxford University Press, 1990. – 160 b.



ЎЗБЕК ОШХОНА АНЖОМЛАРИ НОМЛАРИНИНГ СИНОНИМИК МУНОСАБАТЛАРИ

Шахло Шухратовна Уралова

Мустақил изланувчи

Наманган давлат университети

Наманган, Ўзбекистон

bakirov.poyon@mail.ru

Аннотация: В данной работе анализируется система синонимии в тематической группе «Ошхона анжомлари» узбекского языка. Особое внимание уделено типологии синонимов в соответствии с классификацией В.В. Виноградова: идеографическим, стилистическим и абсолютным. На основе лексического материала показано, что названия кухонных принадлежностей отличаются высокой степенью вариативности и широким спектром смысловых и стилистических оттенков. Рассмотрены идеографические синонимы, различающиеся дополнительными семантическими нюансами, а также стилистические ряды, включающие нейтральную лексику, архаизмы, диалектизмы, терминологические и редкие единицы. Выделены случаи абсолютной (полной) синонимии, характерной для дублетных наименований, полностью совпадающих по значению и употреблению. Анализ показал, что в узбекском языке по сравнению с английским преобладают стилистические синонимы, а источниками синонимии выступают полисемия, диалектная дифференциация, заимствования и стилистические особенности слов.

Annotation: This study examines the system of synonymy within the thematic group “Kitchen Utensils” in the Uzbek language. Special emphasis is placed on the typology of synonyms according to V.V. Vinogradov’s classification, which includes ideographic, stylistic, and absolute synonyms. Based on lexical data, it is demonstrated that the names of kitchen tools exhibit a high degree of variation and a wide range of semantic and stylistic nuances. The analysis highlights ideographic synonyms distinguished by subtle semantic differences, as well as stylistic synonymic rows that include neutral vocabulary, archaisms, dialectal forms, technical and rare lexical units. Instances of absolute synonyms—lexical doublets identical in meaning, stylistic coloring, and usage—are also identified. The findings show that stylistic synonymy is more prevalent in Uzbek than in English, and that the main sources of synonymy include polysemy, temporal and dialectal variation, borrowings, and stylistic features of lexical items.

Аннотация: Ушбу тадқиқотда ўзбек тилидаги «Ошхона анжомлари» тематик гуруҳи доирасидаги синонимия тизими таҳлил қилинади. В.В. Виноградовнинг таснифи асосида идеографик, услубий ва абсолют синонимлар турлари ёритиб берилади. Лексик материал таҳлили ошхона анжомлари номларининг юқори даражадаги вариантчилиги ва семантик-услубий



кирраларининг кенг қамровлилигини кўрсатади. Идеографик синонимларнинг маъно нозикликлари, нейтрал лексика, архаизм, диалектизм, техникага оид ва кам қўлланадиган сўзлардан иборат услубий қаторлар кенг ёритилади. Маъно ва қўлланиш жиҳатдан тўлиқ мос келадиган лексик дублетлар абсолют синоним сифатида ажратилади. Тадқиқотга кўра, ўзбек тилида инглиз тилига нисбатан услубий синонимлар кўпроқ учрайди; синонимия манбалари эса полисемия, диалектал фарқланиш, ўзлашмалар, темпорал сўзлар ва лексиканинг услубий хусусиятлари ҳисобланади.

Ключевые слова: синонимы; идеографические синонимы; стилистические синонимы; абсолютные синонимы; лексическая вариативность; кухонные принадлежности; узбекский язык; диалектизмы; архаизмы; тематическая группа; лексикология.

Keywords: synonyms; ideographic synonyms; stylistic synonyms; absolute synonyms; lexical variation; kitchen utensils; Uzbek language; dialectal forms; archaisms; lexical semantics; thematic group.

Калит сўзлар: синонимлар; идеографик синонимлар; услубий синонимлар; абсолют синонимлар; лексик вариантлар; ошхона анжомлари; ўзбек тили; диалектизмлар; архаизмлар; лексикология; тематик гуруҳ.

“Ошхона анжомлари” ТГ таркибида номлар юқори даражадаги синонимияга эга. Кўп сонли синонимлар ошхона анжомлари номларининг вариантлари мавжудлиги билан изоҳланади.

Лексикологияда синонимлар ҳақида гап кетганда, сўзларнинг луғавий маънолари назарда тутилади ва қиёсланади⁸.

Синонимларни таснифлашнинг ягона мавжуд тизими таниқли академик В.В.Виноградов томонидан яратилган. Унинг таснифлаш тизимида уч тур ажратилади: идеографик, стилистик, абсолют (тўлиқ) синонимлар⁹.

Ўзбек ошхона анжомлари таркибидаги идеографик синонимлар қўшимча маъно нозикликлари билан фарқланади: *ҳовонча* (уриб янчиш, туйиш учун ишлатиладиган, ёғоч ёки металлдан ясалган махсус идиш) – *кели* (қанд, мурч ва ш. к. лар туйиладиган, одатда металлдан ишланган кичик ўғир) – *ўғир* (донни уриб туйиш, эзиб майдалаш учун ишлатиладиган ичи ўйиқ ғўладан иборат рўзғор буюми); *човгун* (ўтда чой қайнатиш учун мосланган идиш) – *чойдиш* (сув, чой қайнатиладиган металл идиш) – *чойгум* (чойдиш) – *чойжўш* (ўтда чой қайнатиш учун мосланган идиш) – *қумгон* (мисдан ясаладиган, ичи қалай билан оқартирилган, кўзача шаклидаги дастали ва қопқоқли идиш; катта чойдиш) – *обдиш* (чойдиш); *бақир* (пақир, челак) – *пақир* (сув ва б. суюқликларни ташиш ва асраш учун ишлатиладиган, бандли, металл идиш) – *челак* (асосан суюқликларни сақлаш, ташиш учун хизмат қиладиган, ёйсимон бандли металл идиш) – *қовға* (ёғоч пақир) – *бадя* (махсус катта челак) – *сатил* (челак, пақир).

⁸ Фамина, Н.В. Лексикология английского языка: курс лекций / Н.В. Фамина. – М.: МАДИ, 2018. – С. 73.

⁹ Буйнова О.Ю. English Language Lexicology: учеб. пособие. – Ижевск: Удмуртский университет, 2023. – С. 315.



Синонимик қаторларга одатда элементлари нейтрал сўзлар, архаизмлар, историзмлар, эскирган, техникага оид ва ноёб лексемалар бўлган гуруҳлар киради¹⁰.

Таҳлилга тортилган номлар орасида стилистик (услубий) синонимлар, яъни маъно жиҳатидан бир хил бўлган, лекин нутқнинг турли услуб (стил)ларига тегишли сўзлар қаторлари учрайди. Услубий (стилистик) синонимларга нейтрал ва сўзлашув услубларга мансуб лексик birlikлар киради.

Ўзбек тилида: *коса* (нейтр.) – *аёқ* (эск.) → “коса”; *дош* (кам қўлл.) – *қозон* (нейтр.) – *дошқозон* (нейтр.) → “қозон”; *саноч* (тар.) – *меш* (нейтр.) – *мешкоб* (нейтр.) → “сув, қимиз ва ш. к. суюқ нарсалар солиб қўйиладиган, ташиладиган теридан қилинган идиш”; *чочик* (эск.) – *сочик* (нейтр.) – *лунги* (с.т.) → “юз-қўл ёки идиш-товоқ артиш учун ишлатиладиган буюм”; *қуллоб* (эск., кт.) – *қисқич* (нейтр.) – *чангак* (нейтр.) → “нарсаларни қисиб ушлаш учун ишлатиладиган асбоб”; *совиткич* (техн.) – *холодильник* (нейтр.) → “совутиш мосламаси”; *чопқи* (нейтр.) – *ошпичоқ* (нейтр.) – *ойболта* (эск.) → “гўшт, пиёз қиймалаш ва ш.к. ишларда ишлатиладиган катта ва оғир, пичоққа ўхшаш рўзгор асбоби”; *биллур* (техн.) – *кристалл* (эск.) → “юқори навли тиниқ оқ шиша ва ундан ясалган қимматбаҳо идиш-оёқ”.

Нейтрал сўз ва диалектизмлардан (баъзи ҳолатларда диалектизмлар бир вақтнинг ўзида эскирган ва ноёб сўзлар бўлиши мумкин) иборат бўлган лексик birlikлар гуруҳлари ҳам стилистик синонимларни ташкил этади.

Ўзбек тилида: *енгсак* (шв.) – *енглик* (нейтр.) – *енгча* (шв.) → “нон ёпиш ва нонни узиб олиш пайтида қўлни ўтдан сақлаш учун тирсаккача кийиб олинадиган қалин енг”; *кади* (шв.) – *қовоқ* (нейтр.) – *ошқовоқ* (нейтр.) → “қовоқ, ошқовоқларнинг пўстлоқ қисмидан тайёрланган идиш”; *косов* (нейтр.) – *кўсов* (шв.) → “ўт, оловни тўғрилаш, тортиш ва ш. к. учун ишлатиладиган ёғоч ёки темир таёқ”; *меш* (нейтр.) – *меҳтара* (шв.) → “сув солишга ва ташишга мўлжалланган меш”; *обдаста* (нейтр.) – *обтова* (шв.) → “юз-қўл ювиш учун ингичка жўмакли, қорни кенг, бўғзи тор идиш”; *меш* (нейтр.) – *саба* (шв.) → “теридан ясалган, қимиз солинадиган идиш”; *сочик* (нейтр.) – *сочоқ* (шв.) – *сурги* (шв.) → “юз-қўл ёки идиш-товоқ артиш учун ишлатиладиган буюм”; *супра* (нейтр.) – *сурпа* (шв.) → “хамир ёйиш, нон ясаш учун мўлжалланган рўзгор буюми”; *товоқ* (нейтр.) – *тобоқ* (шв.) → “юзи ёйиқ, бир оз ялпоқ, коса шаклидаги чуқурроқ идиш”; *сандал* (нейтр.) – *танча* (шв.) → “маълум бир жойни иситиш учун мўлжалланган манқал”; *хурмача* (нейтр.) – *чапя* (шв.) → “сут, қатиқ суюқ овқат солиш учун ишлатиладиган сопол идиш”; *човгун* (нейтр.) – *чойдиш* (нейтр.) – *чойгум* (нейтр.) – *қумгон* (нейтр.) – *обдиш* (шв.) – *чойжўш* (шв.) → “ўтда чой қайнатиш учун мосланган идиш”; *жўмак* (нейтр.) – *чумак* (шв.) → “турли асбобларнинг сув тушадиган қисми, тумшуғи, бурни”; *супурги* (нейтр.) – *шипирги* (шв.) → “супуриш-сидириш, тозалаш учун рўзгор буюми”; *ёргичоқ* (нейтр.) – *ярғичоқ* (шв.) →

¹⁰ Қўлланиладиган шартли қисқартмалар: **нейтр.** – нейтрал сўз, **с.т.** – сўзлашув тилида (оғзаки нутқда) қўлланиладиган сўз, **эск.** – эскирган сўз, **кам қўлл.** – кам қўлланиладиган сўз, **шв.** – шевага оид сўз, **тар.** – тарихий сўз, **кт.** – китобий сўз, **техн.** – техникага оид термин.



“дон янчиш ва ун қилиш учун; қўлтегирмон”; *оловкурак* (нейтр.) – *хокандоз* (нейтр.) – *қадақ* (шв.) → “олов, кул, қўмир, супуринди ва ш.к. ни олиш, ташиш учун ишлатиладиган дастали асбоб”; *чилчўп* (нейтр.) – *қалоқ* (шв.) → “нишолда тайёрлашда ишлатиладиган бир даста ингичка чўп”; *пилтакач* (нейтр.) – *булгович* (шв.) → “ип йигирадиган чархни айлантирувчи чўп”; *лаган* (нейтр.) – *тонок* (шв.) → “қуюқ таомлар солиш учун мўлжалланган, тарелкадан катта ясси идиш”.

Мутахассислар томонидан *абсолют* (*тўлиқ*) синонимлар тури ҳам ажратилади. Абсолют синонимлар а) маъносига; б) услубий бўёғига; в) контекст шароитига; г) коннотатив хусусиятига кўра; д) бир хил лексик бирикувига эга бўлган; е) бир хил нутқ услубига оид; ж) илмий нутқда энг кўп қўлланиладиган бир хил маънони ифодаловчи лексик дублетлардир¹¹, маъно ва қўлланишига кўра тўлиқ мос келадиган лексик birlikлар абсолют синонимлар деб аталади. Ўзбек ошхона анжомлари номлари орасида қуйидаги абсолют синонимлар учратиш мумкин: *газплита* – *газўчоқ*, *идиш-оёқ* – *идиш-товоқ*, *совундон* – *совун солинадиган идиш* – *совун қути*, *нимкоса* – *кичик коса* – *косача*, *ликоп* – *тарелка*, *обтова* – *обдаста*, *хўқача* – *кичик кўза* – *кўзача*, *чойдон* – *чой идиш* – *чой қути*, *холодильник* – *музлатгич*, *чангак* – *илгак*, *чойпоя* – *учоёқ*, *чўмич* – *ёғлоги*, *шипирги* – *супурги*, *шокоса* – *катта коса*, *қадаҳ* – *май ичиладиган идиш* – *жом*, *қуритгич* – *сушилка*, *декча* – *кичкина қозон* – *қозонча*, *меш* – *саноч*, *печь* – *печка*, *прибор* – *аппарат* – *асбоб*, *санчқи* – *вилка*, *совиткич* – *кондиционер*, *меш* – *саноч*.

Материаллар таҳлили шуни кўрсатадики, ҳар иккала тилда синонимларнинг барча турлари учрайди. Ўзбек тилида инглиз тилига нисбатан стилистик синонимлар кўпчиликини ташкил этади. Ўрганилаётган ТГ таркибидаги синонимия манбалари қуйидагилардир: номинацияларнинг кўп маънолиги, темпорал сўзлар, диалектизмлар, стилистик бўёққа эга лексика ва бошқа тиллардан ўзлашган сўзлар.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Фамина, Н.В. Лексикология английского языка: курс лекций / Н.В. Фамина. – М.: МАДИ, 2018. – 96 с.

2. Буйнова О.Ю. English Language Lexicology: учеб. пособие. – Ижевск: Удмуртский университет, 2023. – 398 с.

3. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов и понятий. Изд. 6-е, испр. и доп. – Назрань: Пилигрим, 2016. – 610 с.

¹¹ Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов и понятий. Изд. 6-е, испр. и доп. – Назрань: Пилигрим, 2016. – С. 22.



SHERALI TURDIEV AS A LITERARY REVIEWER

Hulkar Turdieva Komilovna

Associate prof., PhD, Alfraganus University

[*hulkar.kamilovna@gmail.com*](mailto:hulkar.kamilovna@gmail.com)

Sherali Turdiev in his scholarly activity, the practice of writing reviews occupies a distinctive and significant place. The scholar consistently published articles in the form of reviews—both in structure and content—devoted to literary works, academic research, dissertation studies, scholarly articles, book publications, monographs, manuals, and even theatrical plays. These works appeared in the press of our country as well as in foreign countries, including Tatarstan (*Idel, Kazan Utlari*), Kazakhstan, Turkey, Azerbaijan, Russia, the United Kingdom, France, Germany, Japan, and the United States.

Our research has confirmed that in the scholar's reviews, the objects of analysis most often included the press, studies of the works of Jadid figures, research on the lives and creative activity of writers whose heritage has been insufficiently explored, the field of theatre, children's literature, theoretical works such as teaching manuals, pamphlets, and textbooks, as well as research outputs including dissertations and monographs.

Through the demanding practice of review writing—an activity requiring deep knowledge, experience, and critical thinking—Sh. Turdiev introduced many young talents to the literary community, honored them with recognition, pointed out shortcomings in need of correction, offered friendly advice, guided them onto the right path, and generously shared his knowledge, along with his views and proposals vital to literature. The evidence supporting this view is abundant in the scholar's archive, and we have ventured to subject some of these materials to analysis.

The literary and pedagogical features of the scholar's review entitled “A Methodological Manual on Literary Theory” [1] attracted our attention. In his review of A. Zunnunov's methodological manual “Studying Literary-Theoretical Concepts in Grades IV–X” [2], the following views are expressed: the book sets itself the task of providing students with initial general information about the fundamental principles of literature, including elements of literary language, literature as the art of the artistic word, theme, idea, composition, poetic structure, literary genres, the national character of literature, romanticism, and realism.

It is noted that the manual presents these concepts in a step-by-step manner; that tables and diagrams, along with methodological tasks and questions, serve as an effective resource for both teachers and students; and that artistic devices and genre types are explained in clear language with specific examples. The author also endorses the recommendation to study theoretical concepts of literary methods and literary phenomena according to the principle of historicity, stating that “...only in



this way will our secondary school students gain a clear understanding of the distinctive features of our writers and poets and the characteristics that differentiate them from other authors” [1].

Within his critical remarks, he also points out necessary corrections, noting that although a relatively accurate view is expressed, for example, about the short story, its differences from the novel and the novella and its specific defining features are not clearly articulated. He emphasizes that, depending on the scope and nature of events, the short story possesses its own distinctive plot and compositional structure (including exposition, complication, development of events, and resolution); that, unlike the novella and the novel, many plot elements may be omitted in the short story; and that even if more than one event is depicted, these events must be highly typical and of significant importance—points which, he observes, are not sufficiently addressed [1] and he recommends consulting sources such as I. Sulton’s “Literary Theory as a Science” (Sharq Yulduzi, 1973, No. 3) and L. Timofeev’s “Fundamentals of Literary Theory” (Moscow, 1970) to provide a more comprehensive definition of the term.

He notes as shortcomings that the distinctive features of epics, the principles of character creation, the historical and situational contexts, and the similarities and differences with written literature are not fully revealed; that the description of literary style contains abstract ideas; and that information such as the author’s attitude toward life in landscape descriptions and the psychological experiences of both author and characters is overlooked.

Furthermore, he seriously criticizes the manual for using articles and theses created within the field without providing proper citations. While acknowledging that this source fulfills the role of a methodological and theoretical manual, he recommends that it be republished with theoretical corrections, revisions, and additions. His critical remarks, together with suggested corrections, are often concluded with phrases such as “...-sa ma’qul bo’lardi”, “...o’quvchilarga birmuncha konkretroq o’zlashardi” and “...kabi qulay imkoniyatga ham ega edi”. The use of the past continuous tense for recommendations and corrective comments—a principle of the Uzbek language’s respect category—demonstrates that Sh. Turdiev’s reviewing style avoids harshness or bluntness, instead expressing shortcomings in a gentle, written tone.

Based on the study of his reviews, it can be said that Sh. Turdiev, in many cases, meticulously examined every page and heading of the source under discussion, carefully studied it, praised its achievements impartially, and revealed its shortcomings with fair and gentle criticism.

References:

1. Sh. Turdiev. *Adabiyot nazariyasidan metodik qo’llanma // O’zbek tili va adabiyoti*. 1975. №5. P. 81–84.
2. A. Zunnunov. *IV–X sinflarda adabiy-nazariy tushunchalarni o’rganish*. “O’qituvchi” nashriyoti, Toshkent, 1974.



3. Muravyev, D. P. *Retseziya // Kratkaya literaturnaya entsiklopediya* [Text]/ D. P. Muravyev. – М., 1971. – 268р.



INDONESIAN AND UZBEK LITERARY RELATIONS

Turdiev Sanjar

Researcher of Tashkent State

University of Uzbek language and literature

zts.group.uz@gmail.com

The comparative study of literature in Indonesia and Uzbekistan can not only introduce new insights into the literatures of both nations but also strengthen literary and scholarly ties between the two countries. Moreover, the Indonesian people hold the Uzbek nation in sincere respect. For instance, they revere Imam Bukhari as a hadith scholar and honor Shaykh Ibrahim as-Samarqandi for his role in introducing Islam to Java and for building the first mosque in Sumatra. Conducting comparative research between an Indonesian literary figure and an Uzbek writer would be among the pioneering efforts in this field and would also contribute to global literary relations.

In the course of our research, we found it appropriate to briefly recount one historically significant event: In 1956, Nikita Khrushchev called Indonesian President Soekarno. “Mr. Soekarno, if possible, I would like to invite you to Moscow for a political conference aimed at further strengthening relations between our two countries.” Upon receiving this invitation, Soekarno paused to reflect. Although a visit to the USSR would allow Indonesia to demonstrate its political stance to the world, Soekarno did not wish to accept the invitation immediately. Soekarno: “Mr. Khrushchev, I am ready to cooperate with you. However, I have two conditions. First, build at least two mosques so that Muslim communities can worship freely (in Leningrad [now Saint Petersburg] and Moscow).” Khrushchev: “Of course, not just two, I will build even more mosques. Please tell me your second condition.”

Soekarno: “Please assist me in locating the grave of the renowned hadith scholar Imam al-Bukhari. Historical records indicate that his burial site is somewhere in Central Asia. If you can fulfill these two conditions, I will willingly participate in the conference.” The person who contributed to locating Imam al-Bukhari’s grave was the President of Indonesia, Mr. Soekarno. This demonstrates that, in a certain sense, the Indonesian people know the Uzbek nation even more deeply than the Uzbeks themselves. However, unfortunately, knowledge about the Indonesian state, its history, values, shared connections, and historical ties is still limited among the Uzbek population. It is, therefore, the duty of Uzbek Indonesianists like us to restore and introduce this closeness and to contribute to strengthening cooperation across various fields.

Although certain literary contacts have been established between Indonesia and Uzbekistan to date, a comparative study of the literary works of the two countries has not yet been conducted. We have concluded that Usmon Nosir and the Indonesian poet Chairil Anwar should be studied jointly, as they share similarities in their treatment of



contemporary issues, writing styles, thematic concerns, personal struggles, and experiences of oppression.

The works of Usmon Nosir have been extensively studied by Uzbek scholars, with detailed analyses available in sources such as “Usmon Nosirni izlab”, “Usmon Nosir haqida” (Nodira Rashidova), F. Mamasiqov’s article “An Early Ended Star”, Xurshid Davron’s poem “Usmon Nosir xoki ustida”, and numerous other studies. Similarly, Chairil Anwar’s oeuvre has been explored in various research works, including V.V. Sikorskiy’s *Indoneziyskaya literatura*, M.A. Boldireva’s monograph *Tvorchestvo indoneziyskix poetov XX v.*, Balfas Muhammad’s *Modern Indonesian Literature in Brief*, I. Arief Budiman’s *Hayril Anwar: Sebuah Pertemuan*, Djamin Nasjah and Monique’s *Les Derniers Moments de Chairil Anwar*, A. Teeuw’s *Sastra Baru Indonesia*, Radea Hafidh Rakata Iskandar’s *Nasionalisme Chairil Anwar*, Tinuk Yampolskiy’s *Chairil Anwar: Poet of a Generation*, among others.

Although many critical and comparative articles exist on these two authors, one sobering fact remains: those whose poems revealed political truths and ultimately led to punishment were their own compatriots—the very people of their nation.

References:

1. Yampolskiy Tinuk. Chairil Anwar: Poet of a generation. (Hayril Anwar: Avlod shoiri) Northern Illinois University. - 2002.
2. Karimov N. Usman Nasir. – Tashkent: Sharq, 1993. – 208 p.



“RIYOZU-D-DAVLA” SINTAKTIK QURILMALARI TAHLILI

Yusupova Quvonchoy Mayliboy qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

yusupovaquvonchoy400@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ogahiyning murakkab va sertarmoq sintaksisi (sintaktik davrlar, parallel konstruksiyalar, gradatsiya) uning uslubidagi tantanavorlikni yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita ekani ko'rsatilgan. “Riyozu-d-davla” asaridagi sintaktik qurilmalar lingvopoetik jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ogahiy, “Riyozu-d-davla”, tarixiy-adabiy asar, sintaksis, period, sintaktik davr, parallel konstruksiya, gradatsiya, saj', mubolag'a, epitet.

“Riyozu-d-davla” – tarixiy-badiiy asar, solnoma. Uning asosiy maqsadi xonlik tarixini abadiylashtirish va hukmdor sha'nini ulug'lashdir. Bu maqsad asar sintaksisining tantanavor, ko'tarinki ruhda bo'lishini taqozo etgan. Muallif voqealarni shunchaki bayon qilmaydi, balki ularga ilohiy mazmun yuklashga intiladi. Buning uchun esa sintaktik qurilmalar tarkibiga Qur'on oyatlari va hadislardan iqtiboslarni mohirona singdiradi: “...*xalifayi sohibizzatin ibo-u nafaronlig' jihatidin “va inna ‘alayka la’natū ilā yavmiddūn” nafrinig’a muxotab qilib, la’nati abadiyg’a sazovor etti va Odami bokiy va hazinning farqi mazallatin xoksor va notavonlig’ sifatidin “va laqad karramnā banū ādama” takrimig’a munosib ko’rub, xilofat iklili bila tojdor etti...*” (RD, 246b) Bu parchada Qur'on oyatlaridan olingan iqtiboslar jumlaning ajralmas bo'lagi sifatida, sintaktik jihatdan to'liq moslashgan holda keltirilgan. Bu usul matnga yuksak maqom va salobat bag'ishlaydi. Bu esa ekstralingvistik omillar – asar janri va maqsadi sintaksisga qanchalik kuchli ta'sir etishini ko'rsatadi.

Poetik nutqni tahlil qilishda uning ekspressiv jihatlariga e'tibor qaratish, ekspressivlikning yuzaga kelishini ta'minlovchi vosita va figuralarni tadqiq etish bunday nutq mohiyatini keng va atroflicha o'rganish uchun imkoniyat yaratadi. Shuningdek, poetik nutqning yaratilishiga ta'sir qiluvchi ekstralingvistik (tildan tashqari) omillar masalasi ham muhimdir.

Ekspressivlik, eng avvalo, emotsional tuyg'ularning poetik ifodasida ko'rinadi. U fikrni tez, ifodali, ta'sirli va tasviriy holatda yetkazadi. O'zbek tilshunosligida A.Abdullaev, B.Umurqulov kabi olimlarning ishlarida ekspressivlik masalalariga alohida diqqat qaratilgan¹². Asarda Ogahiy ekspressivlikni ta'minlash uchun takror, parallel qurilmalar va xitoblardan mohirona foydalanadi. Ayniqsa, insoniy kechinmalar, fojia va qayg'u tasvirlangan o'rinlarda sintaktik vositalarning ekspressiv funksiyasi yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, Mashhad atrofidagi tolon-

¹² Абдуллаев А. Экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент: “Фан”, 1987. – 86 б.; Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: “Фан”, 1981. – 110 б.



taroj voqealaridan so'ng xalqning ahvoli tasvirlangan quyidagi parchaga e'tibor beraylik:

“Ato o'g'lining ahvolig'a yig'lab,
O'g'ullar ham ato holig'a yig'lab.
Ano qiz hasratidin tortib afg'on,
Qiz ona mehnatidin yig'labon qon” (RD, 260b).

Bu masnaviy parchasidagi ekspressivlik quyidagi sintaktik xususiyatlar orqali ta'minlangan: leksik-sintaktik takror (*yig'lab* so'zining ikki marta takrorlanishi umumiy qayg'uli ruhni kuchaytiradi); sintaktik parallelizm (“Ato o'g'lining...” va “O'g'ullar ham ato...”, shuningdek “Ano qiz hasratidin...” va “Qiz ona mehnatidin...” misralari deyarli bir xil sintaktik qolipda qurilgan. Bunday parallelizm fojيانing keng qamrovli ekanini, barchaga birdek alam yetkazganini ta'sirli ifodalaydi. Shu bilan birga xiazm (kesishuvchi parallelizm), ya'ni *ato* – *o'g'il*, *o'g'ul* – *ato*; *ano* – *qiz*, *qiz* – *ona* tartibida kelishi fikrning badiiyligini oshirgan.

Bu o'rinda sintaktik qurilmalar shunchaki voqeani bayon qilish uchun emas, balki uning emotsional yukini, chuqur iztirobini o'quvchiga yetkazish uchun xizmat qilmoqda. Bu esa ekspressiv sintaksisning yorqin namunasidir.

Poetik nutqning shakllanishiga tashqi (lingvistik xarakterga ega bo'lmagan) omillar ham kuchli ta'sir o'tkazadi. Bunday omillarga muallif shaxsi, davrning ijtimoiy holati, asarning janri va maqsadi kabilar kiradi¹³. “Riyozi-d-davla” sintaksisining shakllanishida bu omillarning o'rni beqiyosdir.

Muallif shaxsi va uning ijtimoiy mavqeyi haqida shuni ta'kidlash lozimki, Ogahiy oddiy ijodkor emas, balki xon saroyida yuksak mavqega ega bo'lgan mirob, munshiy va tarixnavisdir. Uning bu ijtimoiy maqomi asar sintaksisiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Muallif o'zini tanishtirgan o'rinda o'ta kamtarinlik, tavoze bilan murakkab sifatlashlar zanjirini qo'llaydi: “...dargohi olampanoh ostonining bandayi kamtarini va janobi xilofatmoab tufrog'ining jabhaso va pahlunishini – a'jazi ibodullohi-l-maliki-l-vahhob, a'ni faqir kasuru-t-taqsir Muhammad Rizo mirob almutaxallis bi-l-Ogahiy ibn Erniyozbek...” (RD, 247b) Bu yerda *bandayi kamtarin*, *a'jazi ibodulloh* (Alloh bandalarining eng ojizi), *faqir kasuru-t-taqsir* (nuqsonli faqir) kabi sintaktik birikmalarning qo'llanilishi sharq saroy adabiyotiga xos etiketning (ekstralingvistik omilning) sintaktik ifodasidir.

Poetik sintaksis tahlilida sintaktik qurilmalarning turi va shakli asarning umumiy mavzusi va mazmunidan kelib chiqib tanlanishi alohida ahamiyatga ega. Badiiy nutqning leksik tahlilida markaziy obyekt *so'z* bo'lsa, sintaktik tadqiqotda butun bir jumla, gap va undan yirik bo'lgan *supersintaktik butunliklar*¹⁴ tahlilga tortiladi.

Bunda sintaktik qurilmalarning grammatik aloqalari bilan birga, muallif tomonidan ularga yuklangan semantik-stilistik vazifalar va jumla qismlarining

¹³ Жербило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-ое. дополн. – Назрань: «Пилигрим», 2010. – С. 486.

¹⁴ Абдупаттеев М. Ўзбек матнида суперсинтактик бутунликлар: – Тошкент: 1998.



o'zaro ma'no munosabatlari ham o'rganiladi. "Riyozi-d-davla" asari bu tamoyillarning amaldagi yorqin in'ikosidir.

Ogahiy asar mavzusining yuksakligi va tantanavorligiga mos ravishda murakkab, sertarmoq va badiiy bezaklarga boy sintaktik qurilmalarni tanlaydi. Asarning asosiy mavzulari – Allohga hamd, Payg'ambarga na't va podshohga madh aytish kabi ulug' tushunchalar bo'lgani uchun, ularni ifodalashda sodda va ixcham jumalardan ko'ra, davr gaplari (period), murakkablashgan qo'shma gaplar va parallel konstruksiyalardan keng foydalaniladi. Bu orqali fikrning salobati va ta'sirchanligi ta'minlanadi. Masalan, Payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallamning butun borliqning yaratilishiga bois ekanliklari haqidagi g'oya "*Mavjudot ra'nolarining jilva-yu namoyishig'a bois aning nuri komilu-s-sururi va maxluqot barnolarining zebu oroyishig'a sabab aning huzuri maymanatvufuri*" (RD, 246b) tarzida mutanosib va murakkab sintaktik qurilma orqali ifodalangan. Bu jumla ikki qismli mukammal sintaktik parallelizmga asoslangan: har ikki qism ham *mavjudot/maxluqot* so'zlari bilan boshlanib, murakkab izofali birikmalar orqali rivojlantirilib, *bois* va *sabab* so'zlari bilan yakunlanadi. Bunday simmetrik va tantanavor sintaktik qurilish mavzuning yuksakligiga to'la mos keladi va fikrning estetik ta'sirini keskin oshiradi.

Poetik sintaksisda tahlil obyekti nafaqat alohida gaplar, balki bir necha gapdan tashkil topgan, umumiy mazmun va grammatik-stilistik aloqadorlikka ega bo'lgan supersintaktik butunliklar ham hisoblanadi. Ogahiy butun bir xatboshini yagona mantiqiy-sintaktik butunlik sifatida shakllantirish mahoratini namoyish etadi. Asarning "Munojot" qismi bunga yorqin misoldir: "*Xudovando, men dilxasta benavokim, parishon ajzo tarkibining rahi duri azimatig'akim, amri maholdur, sur'at qadamin urubmen, sarmanzili ixtitomg'a doxil ayla va bu avroqi gulistoninsho tarkibining suturi suvratig'akim, tori xayoldur, jur'at qalamin surubmen, saodati itmomg'a vosil ayla! Har iborati noshoyistakim, suturi sahoyifg'a mastur etibmen, aybin hunar ko'rguzub, xaloyiq tahsinig'a sazovor et va har xazfrezayi noboyistakim, har nazm rishtasig'a chekibmen, e'tibor silkig'a kirguzib, el ko'zig'a gavhari serobdek namudor et!*" (RD, 246b-247a)

Bu parcha bir necha mustaqil gaplardan iborat bo'lsa-da, ular yagona supersintaktik butunlikni tashkil etadi. Bu butunlik quyidagi sintaktik vositalar bilan ta'minlangan: 1) barcha gaplar Yaratganga munojot ohangida. 2) barcha gaplarning kesimlari *ayla, et* kabi buyruq-iltimos shaklidagi fe'llar bilan ifodalangan. 3) muallif avval o'z o'zligini e'tirof etib, so'ng ijodining yakuniga yetishini, undagi kamchiliklarni Allohning o'zi to'ldirishini so'raydi. Demak, Ogahiy alohida jumalarni shunchaki ketma-ket tizib chiqmaydi, balki ularni yagona mazmuniy va sintaktik qolipga solib, mukammal supersintaktik butunliklarni yaratadi.

Sintaktik qurilmalar tarkibida turli figuralar (ritorik so'roq, xitob, gradatsiya, antiteza va boshqalar) qo'llanganda, fikr ifodasida jiddiy semantik-stilistik o'zgarishlar kuzatiladi. Ogahiy Rasulloh sallolohu alayhi vasallamning me'roj voqeasini tasvirlar ekan, gradatsiya (fikrni bosqichma-bosqich kuchaytirib borish) sintaktik figurasidan foydalanadi. Bunda u Qur'oni Karim oyatlarini



sintaktik qurilmaning ajralmas qismiga aylantiradi: “*cumma danā fatadallā*” maydonining dilovari chobuksuvori, “*fakāna qāba qavsayni av adnā*” devonining dodari tojdori...” (RD, 247a) Bu yerda tasvir bir holatdan (“*so’ngra yaqinlashib, pastladi*”) yuksak cho‘qqiga (“*ikki kamon oralig’idek yoki undan ham yaqinroq bo’ldi*”) qarab sintaktik jihatdan ham kuchayib boradi. Birinchi iqtibos maydon(i)ning chopuksuvori deya soddaroq tasvirlansa, ikkinchisi, ya’ni yuqoriroq maqom, devonning tojdor dodari deya yanada ulug‘vorroq sintaktik qurilma bilan ifodalangan. Bunda sintaktik qurilmaning o‘zi fikrning yuksalib borishini, voqeaning avj nuqtasiga chiqishini ta’minlovchi badiiy vosita vazifasini bajarmoqda.

Ushbu tadqiqot Muhammad Rizo Ogahiyning “Riyozi-d-davla” asari nasriy matnida ekspressiv sintaksis va ekstralingvistik omillar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni ochib berdi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, asarning asosiy janri, uni yaratish maqsadi (xonlik tarixini abadiylashtirish) va muallifning saroy tarixchisi sifatidagi yuksak ijtimoiy mavqeyi lisoniy tanlovga bevosita ta’sir etib, matnning monumental-ornamental uslubini shakllantirgan. Bu uslubning asosini murakkab, tantanavor sintaktik qurilmalar, iqtiboslarning (Qur’on oyatlari, hadislar) jumlagi mohirona singdirilishi, shuningdek, fojiaiy va emotsional o‘rinlarda sintaktik parallelizm va xiazm kabi figuralarning qo‘llanilishi tashkil etadi. Xususan, supersintaktik butunliklarning mukammal shakllanishi Ogahiyning fikrni nafaqat mantiqiy, balki estetik va salobatli tarzda ifodalash mahoratini yorqin namoyish etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдуллаев А. Экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент: “Фан”, 1987. – 86 б.;
2. Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: “Фан”, 1981. – 110 б.
3. Жербилло Т.В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-ое. дополн. – Назрань: «Пилигрим», 2010. – С. 486.
4. Абдупаттоев М. Ўзбек матнида суперсинтактик бутунликлар: – Тошкент: 1998.
5. Muhammad Rizo Ogahiy. Riyozi-d-davla (Davlat bog‘lari): O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi, 5364/II-inv. raqamli qo‘lyozma. 246a-364a varaqlar.
6. Muhammad Rizo Ogahiy. Riyozi-d-davla (Davlat bog‘lari) / Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi, izohlar muallifi hamda forsiy matnlar tarjimoni A.O‘rozboyev. – Urganch: “Quvonchbek-Mashxura”, 2020. – 430 b.



АДАБИЁТ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATINING O'ZIGA XOSLIGI

Hafizova Muxlisa Abdig'ani qizi

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Ingliz tili
2-fakulteti, O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsent.v.b

E-mail: muxlisah@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyotimizning buyuk shoiri, xalqimizning yetuk fidoyisi bo'lgan ulkan siymo Shavkat Rahmon ijodi tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: badiiy ifoda, individuallik, obrazlilik, badiiy tafakkur, falsafiy talqin.

Badiiy adabiyot orqali inson qalbiga kirib, uning qalb haqiqati anglanadi. Shu ma'noda, shye'riyat olami ham o'ziga xos maftunkor va betakrordir. Shoir o'z botinidagi ezgu va hammaga oshkor etilmagan chin his-tuyg'ulari-yu, ko'ngil kechinmalarini so'z vositasida turli badiiy san'atlar orqali ifodalash uchun mashaqqatlar chekadi.

Shavkat Rahmon – adabiyotimizning buyuk shoiri, xalqimizning buyuk fidoyisi bo'lgan ulkan siymodir. Bugungi adabiyot ixlosmandlari va keng jamoatchilik uchun uning ijodi tarbiya o'chog'i bo'lib xizmat kilib kelmoqda. Zero, yurtboshimiz ta'kidlagalaridek, "...farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim. Bu esa, ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi" [Karimov: 61].

Xalqimizning sevimli shoiri Shavkat Rahmon she'rlarida mardlik, matonat va jasorat, eng asosiysi, haqiqatni baralla ayta olish singari ajoyib xislatlar sohibidir. Bu fazilatlar uning butun ijodida yoqqol namoyon bo'ladi. Xususan, shoirning "Qasam" deb nomlangan she'rida ushbu fikrlarning yorqin ifodasini kurishimiz mumkin.

Shavkat Rahmon degan
bir o'jar shoir,
bir kuni qaytadan yaraladimi?
Hayotim ma'nisin juda ko'p o'ylab,
sayladim so'zlarning
saralarini.
Har bir so'z
yuz so'zning o'rnini bosar –
Vatan, Xalq, Jasorat, Kurash Ozodlik.
Har bir so'z yetajak yuzta umrimga,



har biri baxsh etar
ruhimga shodlik.

E'tibor qilsak, shoir nega o'zini "O'jar" deya e'tirof etmoqda. Yuqorida aytilganidek, she'riyat ko'ngil ishi, shoir o'z ko'nglidan norozi, u o'z qalb haqiqatini "Har bir so'z, yuz so'zning o'rnini bosar" tarzida namoyon etishga majburligidan istirob chekmoqda. Shuningdek, inson fe'l atvoridagi fazilatu illatlar, hayot tashvishlari-yu, quvonchlarini, vatanparvarlik kabi g'oyalarni aks ettirish uchun so'zlarni saralaydi. She'rdagi "Vatan, Xalq, Jasorat, Kurash Ozodlik" kabi saralangan so'zlarga ahamiyat qaratsak, darhaqiqat ulardan bir olam ma'no va inson umrining mohiyati anglashiladi.

"Shavkat Rahmon so'zning badiiy imkoniyatlarini kengaytirish, fikr va tuyg'uning botiniy harakatini ifodalash usul va vositalarini topish maqsadida kutilmagan majoziy obrazlardan, qiyoslardan samarali foydalangan" [Ensiklopediya: 3]. Haqiqatan ham shoirning o'xshatishlari beqiyos. U so'zlarni so'nggi manzilga yo'l olayotgan kishiga o'xshatadi. Shu ma'noda "Mo'ralab o'tirgan go'zal so'zlar"dan ko'ra "Qilichday keskir, mard so'zlar"ni tanlaydi. Qolaversa, lirik qahramon o'zidan keyin ham hayot "Mo'ralab o'tirgan go'zal so'zlar"dan iborat bo'lib qolishidan iztirob chekadi. Bu bilan esa shoir o'sha davrdagi mavjud tuzumning illatlariga kinoya qilgandek ko'rinadi. Shavkat Rahmon ushbu she'rida o'z erkiga intilishdan, orzularini ro'yobga chiqarishdan qo'rqayotgan insonlarni uyg'otishga, o'zligini anglashga chaqiradi. Bu borada u cho'lponona ifodalar yaratadi.

Sayladim so'zlarning saralarini,
kurashlar shamoli kirdi nazmimga.

"Har bir insonning ichki va tashqi tuzilishi o'ziga xos bir olamki, uning betakrorligi o'zligida mujassam etilgan. Shunga asosan har bir san'atkorning olami – hayotiy tajribasi, bilim darajasi, didi, go'zallikni ko'ra bilishi, tasavvuri, hayolot dunyosi, qalb ko'zi o'zigagina tegishlidir va ana shu o'zlik uning har bir asarida akslanadi" [Umirov: 214]. Shunday ekan Shavkat Rahmoning mazkur she'rida shoir shaxsiyati o'zining yorqin ifodasini topganligi kuzatish va undan har bir o'quvchi o'z umrining mazmun-mohiyatini anglashi hamda ibrat olishi shubhasiz.

Shunday ekan, Shavkat Rahmonning "Baxt so'zi" she'rida shoir shaxsiyati o'zining yorqin ifodasini topganligi kuzatish va undan har bir o'quvchi o'z umrining mazmun-mohiyatini anglashi hamda ibrat olishi shubhasiz.

Baxtiyorman degan birgina so'zni
aytish uchun kerak qancha kuch, chidam,
garchi baxt so'zlarning eng yoqimligi,
garchi tursa hamki tilning uchida.

E'tibor qilaylik, misralar orqali shoir aytmoqchi bo'lgan fikr, bu yorug' olamda yashayotgan har qanday inson anglashi kerak bo'lgan yashash mazmuni, undagi maqsadni bir qarashda o'sha bizga tanish sodda, samimiy, xalqona, o'ynoqi satrlar, ayni paytda, o'sha o'ynoqi jumlarlar bag'rida darhol anglash, tagiga yetish



qiyin bo'lgan tashbehlar, tagdor, ma'nodor, o'quvchini o'yga toldiradigan, mushohadaga undaydigan jumboqlar; ma'no-mantiq, o'y-mushohada oqimining beboshlik, kutilmagan qayrilishlar, javobsiz savollar, xitoblar, o'quvchini fikrlashga chorlaydi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, “Ma'naviyat”, 2008.
2. Shavkat Rahmon. Abadiyat oralab. Toshkent, “Movaraunnahr”, 2012.
3. Umirov H. Adabiyot qoidalari. Toshkent, “O'qituvchi”, 2010.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. “Davlat ilmiy nashriyoti”, Toshkent 2010.



ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

XORAZM VILOYATIDA TO‘QIMACHILIK SANOATINI
KLASTERLASHTIRISHNING DINAMIK-TIZIMLI TAHLILI

Atajanova Guli Maxsudbekovna

Urganch Ranch texnologiya universiteti

Iqtisodiyot kafedrası o‘qituvchisi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

ORCID: 0009-0004-0576-4082

atajanovaguli28@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda mintaqada to‘qimachilik sanoatini klasterlashtirish jarayoni hamda unga tegishli korxonalar, ilmiy muassasalar, logistika, xom ashyo yetkazib beruvchilar va tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilarni rivojlantirishning mintaqa iqtisodiyotiga ta’siri tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Paxta-to‘qimachilik klasterlari, samaradorlik, hududiy iqtisodiyot, eksport, qo‘shimcha qiymat, ekonometrik tadqiqotlar.

Abstract: Abstract. This thesis analyzes the impact of textile industry clustering in the region on the regional economy through the development of textile-related enterprises, scientific institutions, logistics, raw material suppliers, and manufacturers of finished products.

Keywords: Cotton-textile clusters, efficiency, regional economy, export, value-added, econometric research.

To‘qimachilik sanoatini klasterlashtirish usulida rivojlantirish bu O‘zbekiston respublikasi iqtisodiyoti uchun fundamental zaruratdir. **To‘qimachilik sanoatini klasterlashtirish** bu to‘qimachilik sanoati bilan bog‘liq korxonalar, ilmiy muassasalar, logistika, xom ashyo yetkazib beruvchilar va tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilarni yagona hududda yoki tizimda birlashtirib, o‘zaro hamkorlikda ishlashga yo‘naltirilgan innovatsion boshqaruv modeli. Klasterlashtirishning maqsadi: Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, mahalliy va xorijiy bozorda eksport salohiyatini oshirish, ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish, innovatsiyalar, yangi texnologiyalar va bilimlarni tez tatbiq etishdan iborat. Xususan, mamlakatda to‘qimachilik eksporti 2024-yilda qariyb 2,9 mlrd AQSh dollarni tashkil etib, umumiy eksportning 10,6 foizini tashkil etdi¹⁵. Shuningdek, to‘qimachilik va kiyim-kechak sanoati ishlab chiqarishining tarkibida 2024-yilda sanoat mahsulotlari tarkibida 11,9 foizlik hajmga yetdi¹⁶. Klaster asosida tashkil etilgan ishlab chiqarish zanjirlari, ya’ni xom paxta yetishtirishdan tortib, ip, mato, tayyor kiyimga qadar bo‘lgan chastotali, qo‘shilgan qiymatga ega bosqichlarni birlashtirib samaradorlikni

¹⁵ Internet manbasi: <https://www.fibre2fashion.com/videos/global-apparel-market-an-overview-texpro-fibre2fashion-vd485>

¹⁶ Internet manbasi: <https://invexi.org/uz/press/uzbekistan-s-foreign-trade-for-january-july-2025/>



oshirishga, xarajatlarni kamaytirishga va eksport salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi. Jumladan, mamlakatda so'ngi yillarda 142 ta to'qimachilik klasteri tashkil etilib, ular umumiy to'qimachilik ishlab chiqarishining asosiy qismini qamrab olmoqda¹⁷. Shunday qilib, klasterlashtirish nafaqat sanoatni qo'llab-quvvatlash, balki yuqori qo'shilgan qiymat yaratish, eksportni diversifikatsiyalash, ishchi rastalarni kengaytirish va hududiy ravishda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shish imkonini beradi.

Bundan tashqari, klaster tizimi qishloq xo'jaligi va sanoat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlab, resurslardan samarali foydalanish imkonini bermoqda. Xususan, 2025-yil boshlariga kelib, klasterlar tomonidan qayta ishlanayotgan paxta hajmi 1,2 mln tonnadan oshib, bu mamlakatda yetishtirilayotgan paxtaning 85 foizidan ortig'ini tashkil etdi. Shu orqali ishlab chiqarishning to'liq sikli ya'ni, paxtachilik, ip-gazlama tayyorlash, bo'yash, tikuv-to'qimachilik va eksportga tayyor mahsulot yetkazib berish bosqichlarida mahalliy qo'shilgan qiymat darajasi sezilarli oshdi. Tarmoqqa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi esa 2024-yilda 600 mln AQSh dollaridan oshdi. Bu jarayon mamlakatning iqtisodiy modernizatsiyasi, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va yangi ish o'rinlari yaratishda muhim drayverga aylandi. Mintaqaviy darajada to'qimachilik sanoatini klasterlashtirishning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligini baholash bugungi kunda strategik ahamiyat kasb etmoqda, chunki bu jarayon hududlar kesimida ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini, qo'shilgan qiymat zanjirining mukammalligini va aholi bandligini o'lchash imkonini beradi. Klaster tizimi nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshiradi, balki xomashyo bazasining diversifikatsiyasi, logistika infratuzilmasining yaxshilanishi va mahalliy eksport salohiyatining kuchayishiga ham xizmat qiladi. Xususan, Xorazm va Farg'ona viloyatlarida klaster shaklida faoliyat yuritayotgan to'qimachilik korxonalari hududiy yalpi mahsulotda sanoat ulushini 2,5–3 baravargacha oshirgan, shuningdek, 10 minglab yangi ish o'rinlarini yaratgan. Shu bilan birga, klasterlar orqali ishlab chiqarish xarajatlari 15–20 foizgacha kamaygan, mahsulot sifati esa xalqaro talablar darajasiga yaqinlashgan. Bu esa eksport yo'nalishlarida yangi bozorlarni egallash imkonini bermoqda. Bunday yutuqlarni tahlil qilishda tizimli yondashuv ya'ni ishlab chiqarish, investitsiya, mehnat, innovatsiya, infratuzilma va marketing ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kompleks baholash juda muhimdir. Chunki faqat bitta omil asosida emas, balki butun klaster ekotizimi samaradorligini o'lchash orqali mintaqaviy rivojlanishning real natijalarini aniqlash mumkin. Shu bois, to'qimachilik klasterlarining iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligini tizimli baholash ularni modernizatsiya qilish, investitsiyalar oqimini optimallashtirish va raqobatbardosh ishlab chiqarish muhitini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Tadqiqotimizda to'qimachilik sanoatining klastergacha davri va klasterlashtirish amaliyoti joriy etilgan keyingi yillar davomiyligida to'qimachilik mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish, sanoatda to'qimachilik mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish salmog'i, respublika miqyosida mintaqaning to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, paxta tolasi ishlab chiqarish, to'qimachilik

¹⁷ Internet manbasi: <https://www.intellinews.com/?nonExistentRoute=asia>



sanoatida oʻrta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning ulushi, klasterlarning eksport salohiyati dinamikasi, paxta eksporti tendensiyasining oʻzgarishi, toʻqimachilik korxonalarining foyda marjasi va sohada investitsiya samaradorligi, mehnat unimdorligi va toʻqimachilik korxonalarining innovatsion faoliyat natijaviyligi kabi bir qator koʻrsatkichlarining tizimli tahlili oʻtkazildi.

Quyida Xorazm viloyatida toʻqimachilik mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish hajmining oʻzgarish dinamikasi keltirilgan (1-jadval).

1-jadval**Xorazm viloyatidagi toʻqimachilik mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish hajmining oʻzgarish dinamikasi koʻrsatkichlari¹⁸**

Yillar	Koʻrsatkichlar	
	Toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, mlrd soʻm	Kiyim ishlab chiqarish, mlrd soʻm
2010	153,7	3,026
2011	208,423	4,103
2012	248,001	4,882
2013	317,186	6,244
2014	469,662	9,245
2015	639,666	12,592
2016	699,633	13,772
2017	1007,19	36,087
2018	1568,517	59,126
2019	1677,187	21,504
2020	2056,2	63,3
2021	3072,337	95,019
2022	3782,242	103,707
2023	4096,902	148,022
2024	5417,849	392,42
Ortish nisbati, barobar (real qiymatga nisbatan)	3,82	14,3

Jadval maʼlumotlariga koʻra, 2010-2024-yillar davomida Xorazm viloyatida toʻqimachilik va kiyim ishlab chiqarish sohalarida jadal oʻsish tendensiyasi kuzatilgan boʻlib, bu jarayon mamlakatda klaster tizimining shakllanishi va sanoatni modernizatsiya qilish siyosati bilan bevosita bogʻliqdir. 2010-yilda toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 153,7 mlrd soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2024-yilga kelib bu koʻrsatkich 5417,8 mlrd soʻmga yetib, 35,2 baravardan ortiq oʻsishga erishilgan. Xuddi shuningdek, kiyim ishlab chiqarish hajmi 2010-yildagi 3,026 mlrd

¹⁸ Oʻzbekiston respublikasi milliy statistika qoʻmitasi va Oʻztoʻqimachilik sanoat uyushmasi rasmiy maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan



soʻmdan 2024-yilda 392,42 mlrd soʻmga koʻtarilib, 129 baravar ortgan.

Ushbu oʻsish surʼatlari sohaning ishlab chiqarish quvvatlari kengaygani, xomashyo bazasidan to tayyor mahsulotgacha boʻlgan zanjirning mustahkamlangani va eksportga yoʻnaltirilgan ishlab chiqarish siyosati kuchaygani bilan izohlanadi. Ayniqsa, 2017-2024-yillar oraligʻida oʻsish surʼati keskin tezlashgan: 2017-yilda toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 1007,19 mlrd soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2024-yilda bu raqam besh baravardan ortiq oshgan. Bu davrda Oʻzbekistonda klaster tizimi keng joriy etilib, ishlab chiqaruvchilarni yagona texnologik zanjirga birlashtirish, investitsiyalarni jalb qilish va eksportga yoʻnaltirish boʻyicha kompleks islohotlar amalga oshirilishi boshlangan. Klaster modeli innovatsion yondashuvlarni joriy etishni tezlashtiradi, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan ishlab chiqaruvchilar oʻrtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi, ilgʻor texnologiyalar va malakali kadrlarni jalb etishga sharoit yaratadi. Eng asosiysi, klasterlashtirish mitaqada yangi ish oʻrinlari yaratilishiga, aholi daromadlari oshishiga va mahalliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Toʻqimachilik sanoatini klasterlashtirish — bu tarmoqning barcha boʻgʻinlarini yagona tizimga birlashtirish, oʻzaro iqtisodiy, texnologik va ilmiy hamkorlikni rivojlantirish orqali yuqori qoʻshimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etishning eng samarali usulidir.

Foyadalanilgan adabyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son. “Oʻzbekiston-2030” strategiyasi toʻgʻrisida. <https://lex.uz/docs/-6600413>
2. Juraev, F. D. S. (2021). Problems Of Informatization Of Management Of Agricultural Industry And Modeling Of Agriconomic System In A Market Economy. The American Journal of Applied sciences, 3(02), 49-54.
3. M. E. Porter, Clusters and the New Economics of Competition, Harvard Business Review, vol. 76, no. 6, pp. 77–90, 1998.
4. N. Q. Nguyen, “Analyzing Vietnam’s textile garment global supply chain with the Revealed Comparative Advantage”, Journal of Economics and Development, vol. 25, no. 3, pp. 55–68, 2021.
5. R. Akhmedova, “Economic Efficiency Analysis of Textile Clusters: In Case of Uzbekistan”, Asian Journal of Technology and Management Research (AJTMR), vol. 14, no. 1, pp. 12–20, 2024.
6. <https://www.uzdaily.uz/en/imri-experts-evaluate-diversification-of-uzbekistans-textile-industry-export-structure-from-2016-2023>



THE RECOMPENSES OF REGIONAL COOPERATION: EVIDENCE FROM THE NAMANGAN REGION OF UZBEKISTAN

Sattarov Ravshan

researcher

e-mail: fargona2012@mailru

Abstract. The article discusses about the regional economic cooperation of Fergana valley regions particularly Namangan region of Uzbekistan. The purpose of the study is to analyze and give recommendations based on facing issues on socio-economic cooperation, the level of interdependence, innovation and technologies for business people and government officers of the country.

Scientific novelty of the research: in Uzbekistan in terms of regional cooperation, the establishment of the following economic regions is recommended:

- Tashkent economic region (Tashkent city and Tashkent region);
- Syrdarya - Jizzakh economic region (Syrdarya and Jizzakh provinces);
- Central Economic Region (Samarkand, Navoi, Bukhara and Kashkadarya regions);
- Quyamudarya economic region (Republic of Karakalpakstan and Khorezm region);
- Southern Economic Region (Surkhandarya region);
- Fergana economic region (Fergana, Andijan and Namangan provinces)¹⁹

Practically, the two economic regions have their own priorities in formation of regional cooperation. They are Fergana and Kuiyamudarya economic districts.

Keywords: interregional cooperation, economic regions, scientific and analytical stages, information base, socio-economic issues, trade and services, labor resources, road map and regional policy.

Introduction

In Uzbekistan great attention is paid to the complex and balanced socio-economic development of the regions as an important factor of sustainable economic growth. In his address to the Oliy Majlis President Shavkat Mirziyoyev stated "To accelerate the process of urbanization, complex development of the regions the creation of suitable living conditions for the population".²⁰

The organization of inter-regional cooperation as one of the main ways of complex development of territories is distinguished by its necessity. The proper organization of interregional economic cooperation:

- further sustainable development of the consumer market;
- to provide producers with raw materials and components;
- expand the domestic market on demand;

¹⁹ Soliev A.S. Regional Economy Tashkent, 2003, 141 p.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevni Oliy Majlisga murojaati. Toshkent, 24 yanvar 2020 yil.



- meeting the needs of the population in various goods and services;
- raising the level of competitiveness of enterprises;
- reduction of transport costs and prices for products (services);
- effective use of existing natural and economic potentials;
- removes barriers to the free movement of interregional production, investment and labor resources.

The need to develop inter-regional socio-economic cooperation is mentioned by all foreign and domestic scientists. Is the development of scientific and methodological basis is very important in case of Uzbekistan?

Research methodology

Scientific abstraction, analysis and synthesis methods were effectively used in this research paper. In particular, I studied using the method of scientific abstraction and the institutional activities of interregional socio-economic cooperation in case of economic developed societies. The method of analysis and synthesis as well as presentation of directions and separating the regions for socio-economic cooperation zones of Uzbekistan was mentioned for better design of conclusion and recommendations.

Results and Figures. The famous scientist Lesh A. proposed the concept of economic landscape, on it's basis trade zones will be established economic regions for focusing on maximizing profits.²¹ Kolosovskiy N.N., Bandman M.K. and other scholars argue that strengthening interregional economic cooperation will increase the region's competitiveness, increase specialization, and the efficiency of cooperation and agglomeration.²² According to them, the main factors of interregional interdependence are:

- a proper labor distribution in regions, territories;
- distribution of resources and growing competition in the regional economy;
- direct correlation between the efficiency of production and labor productivity.

During the years of independence in Uzbekistan research works almost have not been conducted on interregional cooperation of regional policy management. In particular, it is important the establishment and development of inter-regional socio-economic cooperation between the regions, the industry to a new level, and a new model of cooperation.

It should be noted that the role of human capital, innovation and digital technologies in the formation of interregional cooperation, along with the specialization location of productive forces, natural and geographical conditions has grown significantly.

Demographic processes and social factors are considered important on development of interregional cooperation in case of Uzbekistan. Analysis of scientific works and articles on interregional cooperation shows that, it has different forms, each of them has its own characteristics.

21 Blaug M. Ekonomicheskaya misl v retrospektive. –M, Delo, 1996,-720 s.

22 Savelev Yu.V. Teoriticheskie osnovi sovremennoy mejregionalnoy konkurentsii. Jurnal ekonomicheskoy teorii. 2010. N2. 86-93s.




High-level regional socio-economic cooperation includes the territory of Uzbekistan and foreign countries, the member countries of various international organizations and the countries of Central Asia and Afghanistan.(Figure 1.1)

Cooperation between the regions of Uzbekistan which are the object of the research can be divided into different levels. They include inter-city and inter-district cooperation between the regions that make up the economic regions, the Republic of Karakalpakstan, the provinces and the city of Tashkent.

The level of socio-economic dependence among the members of developed system of interregional cooperation is different, the main factors are the labor distribution, the level of effective use of natural and economic resources of each region and competitive advantages. One of the most important areas of regional cooperation is how to implement it. The views of scientists and experts on forms of cooperation is different. In our opinion, in case of Uzbekistan inter-regional forms of socio-economic cooperation should be aimed at solving existing problems, increasing production efficiency, ensuring sustainable economic growth and improving the living standards of the population. (Figure 1.2)

The proposed grouping forms of interregional cooperation is reflected as following:



1.1 Figure. System of formation of interregional cooperation in Uzbekistan.²³

²³ Developed by author.



First, production, including the location and development of industrial enterprises, effective cooperation as well as the formation of a cluster system.

Second, effective cooperation in the social sphere, the use of labor resources, trade, education, health care, tourism and recreation, science and innovation, training of highly qualified personnel.

Third, the creation of a suitable business and investment climate, the implementation of investment programs and projects.

Fourth, in the formation of a market economy the development of market infrastructure, ensuring the effective functioning of the banking and financial systems.

Fifth, environmental protection, implementation of environmental programs, rational use of natural, land and water resources.

It is worth to note that a number of key areas in interregional relations and economic cooperation between neighboring regions.

They are:

- Interrelation with production;
- interdependence in finance and banking;
- interdependence in the tax system;
- connection with transport infrastructure;
- interconnection between energy systems;
- interdependence in the field of trade and services;
- dependence on the use of labor resources;
- dependence on the use of water and land resources;
- interdependence in the use of information resources and the digital economy;
- dependence on the social sphere and growth of human capital;
- dependence on the use of innovative achievements.


The relationship between regions can be characterized by the flow of cargo. They include manufactured and consumer goods, semi-finished products transmissions in the power systems and more. The deeply study and analyse of commodity flows across regions will help to determine the optimal level of socio-economic cooperation between them.

One of the most important stages is the formation of information base that is not available in official statistics. Including trade between regions, the volume of goods and services imported or exported from other regions to each other and so on.

However, good neighborliness, common natural and climatic conditions, the availability of integrated infrastructure, mutual trade with neighboring regions, implementation of joint investment projects and it is expedient to provide additional economic growth by fully satisfying the needs and requirements of the population.



They can be identified through monographic studies and diagnostic assessment methods provided by experts.



1.2 Figure. Forms of interregional socio-economic cooperation.

The study of markets of goods (services) in regions determines the demand and supply of products (services) produced in regions, to other regions and abroad.




Research-analytical stage, the current socio-economic situation in each region, the formation of the market products (services), competitive advantages, level of specialization, production, social and market infrastructure of interregional cooperation and existing problems and disparities will be determined.

At the third stage, the goals and objectives of interregional socio-economic cooperation, specific parameters will be identified and a system of measures will be developed. The activation of interregional socio-economic cooperation should consist of several interrelated stages.

At the final stage, it is necessary to prepare specific proposals on the regulatory, legal, institutional and organizational, economic and financial mechanisms for the implementation of the "Road Map" system of measures.

It should be noted that for formation of an effective market economy each region can establish cooperation with all regions of the country, depending on the goals and objectives the parameters of sustainable development the advantages of existing natural and economic potentials.



1.3– Figure. Stages of implementation of interregional socio-economic cooperation.

Conclusion and recommendation

Based on the above mentioned, it remains important that regional economic cooperation serves as an inseparable part of the ongoing regional policy to prove its scientific and practical basis to develop mechanisms for its implementation.

It is especially important to establish and intensify full-fledged socio-economic cooperation in case of Fergana Valley which is the object of the study.

Substantiating the effectiveness of socio-economic cooperation in case of the Fergana Valley can be used as a study guide for other regions of Uzbekistan.



In particular, the effective use of materials and intellectual potentials in intensification of the economy including the organization of cooperation between the regions on the basis of digital technologies remains very important in preventing various modern threats. These are related to the establishment of an interregional cluster system, innovation centers, technology platforms, shared innovation centers. Radical change of interregional socio-economic cooperation should be one of the important priorities of the ongoing reforms in Uzbekistan and effective use of its resources as a new factor on ensuring economic growth of the country. The most difficult task here is to form the organizational and economic mechanisms of organization interregional cooperation. Therefore, it remains important and relevant to assess the level and opportunities of regional cooperation, scientifically substantiate the strategy and methods of its development.

REFERENCES

1. Soliev A.S. Regional Economy Tashkent, 2003, 141 p.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevni Oliy Majlisga murojaati. Toshkent, 24 yanvar 2020 yil.
3. Blaug M. Ekonomicheskaya misl v retrospektive. –M, Delo, 1996,-720 s.
4. Savelev Yu.V. Teoriticheskie osnovi sovremennoy mejregionalnoy konkurentsii. Jurnal ekonomicheskoy teorii. 2010. N2. 86-93s.
5. Jung (2008) Reviewing Regional Policies under the 'Participatory Government', Journal of Korean Social Trend and Perspective: 81-114 [in Korean]
Republic of Korea (2015) South Korea – Summary. [accessed 23 November 2015]
6. Akhmedov T.M.Strategiya kompleksnogo i ustoychivogo razvitiya regionov Uzbekistana. V kn.: Modernizatsiya natsional'noy ekonomiki Uzbekistana. – T.: ANRUz, 2011. - p. 18-21.
7. Granberg A.G. Osnovy regional'noy ekonomiki.–M.:2000.p.354.



HUDUDIIY IJTIMOIIY-IQTISODIIY TABAQALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Ibragimov Bahrom Bahodirovich

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ibragimovbakhrom12@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu tadqiqotda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanishning nazariy asosi, uning shakllanish mexanizmlari va rivojlanish jarayonlaridagi rolini tahlil qilishga qaratilgan. Williamsonning (1965) hududiy tafovutlar dinamikasi bo'yicha klassik g'oyalari, Krugman, Fujita va Venablesning (1999) makoniy iqtisodiyot nazariyasi, Barro va Sala-i-Martinning (2004) konvergensiya–divergensiya modellari hamda Stiglitzning (2012) ijtimoiy tengsizlikning iqtisodiy tizimlarga ta'siri haqidagi qarashlari asosiy ilmiy manbalar sifatida o'rganilgan. Tadqiqotda hududiy tafovutlarning tabiiy shakllanishi, "aylanma sabab–ta'sir" mexanizmi, markaz–periferiya modelining iqtisodiy mohiyati, raqobat va aglomeratsiya kuchlarining hududiy rivojlanishga ta'siri, shuningdek raqamli bo'linishning hududiy notekislikni kuchaytirishdagi o'rnini yoritilgan. Tezisdagi hududiy tafovutlarni modellashtirishga oid rasmiy chizma va empirik tafovutlarni aks ettiruvchi jadval keltirilgan.

Kalit so'zlar: hududiy tabaqalanish, markaz–periferiya modeli, aglomeratsiya, konvergensiya, divergensiya, ijtimoiy tengsizlik, hududiy rivojlanish nazariyalari.

KIRISH

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanishi iqtisodiy geografiya, mintaqaviy rivojlanish va makroiqtisodiy siyosatning eng muhim ilmiy kategoriyalaridan biridir. Ushbu jarayon milliy iqtisodiyotning murakkab tarkibiy tuzilmasi, resurslarning notekis taqsimlanishi, hududiy iqtisodiy faollikning farqlanishi va demografik omillarning ta'siri bilan izohlanadi. Har qanday hududiy tizimda tafovutlarning vujudga kelishi tabiiy bo'lib, ularni inkor etish iqtisodiy jarayonlarning haqiqiy holatini noto'g'ri talqin qilishga olib keladi. Biroq ushbu farqlar o'zining chuqurlashgan shaklida iqtisodiy o'sishning barqarorligiga, ijtimoiy muvozanatga hamda siyosiy barqarorlikka xavf tug'dirishi mumkin.

Hududiy farqlarni ilmiy izohlashga qaratilgan klassik tadqiqotlar orasida Williamson (1965) [1] tomonidan taklif etilgan divergensiya–konvergensiya modeli, Krugman, Fujita va Venables (1999) [2] tomonidan ishlab chiqilgan makoniy iqtisodiyot nazariyasi, Barro va Sala-i-Martinning (2004) [3] iqtisodiy konvergensiya bo'yicha empirik modellari, Stiglitzning (2012) [4] ijtimoiy tengsizlikning iqtisodiyotga ta'siri haqidagi ishlari alohida o'ringa ega.

Quyidagi tadqiqotda ushbu nazariyalar asosida hududiy tabaqalanishning ilmiy asoslari va shakllanish mexanizmlari batafsil sharhlanadi.

ASOSIIY QISM



Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanishning nazariy asoslari iqtisodiy rivojlanish jarayonida farqlar qanday vujudga kelishi va ularni belgilovchi mexanizmlar nimalardan iborat ekanini tushuntirib beradi. Williamson tomonidan 1965-yilda ilgari surilgan divergensiya–konvergensiya yondashuvi bu borada klassik ilmiy qarashlardan biri hisoblanadi. Ushbu modelga ko‘ra, milliy iqtisodiyotning dastlabki rivojlanish bosqichlarida hududlar o‘rtasidagi tafovutlar kuchayadi, chunki markaziy hududlarda kapital, infratuzilma, texnologiya va ishchi kuchining to‘planishi orqali o‘shish tez boshlanadi, periferik hududlarda esa resurs yetishmasligi sharoitida rivojlanish sur‘atlari sust bo‘ladi. Iqtisodiy tizim yetilishingiz bilan, markaziy hududlardagi haddan tashqari to‘planish xarajatlarining oshishi natijasida o‘shish sur‘atlari sekinlashadi va hududlar o‘rtasidagi tafovut biroz qisqarishi mumkin. Shu tariqa “invers U shakli” dinamikasi hududiy o‘zgarishlarning umumiy trayektoriyasini ifodalaydi.


Hududiy tafovutlarning yana bir chuqur ilmiy izohi Krugman, Fujita va Venables tomonidan taklif etilgan makoniy iqtisodiyot nazariyasida yoritilgan. Mazkur yondashuv hududiy farqlanishni ikki asosiy kuch — aglomeratsiya va dispersiya omillari bilan tushuntiradi. Aglomeratsiya kuchlari ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, infratuzilma va mehnat bozorining markazlarda to‘planishiga sabab bo‘ladi. Aksincha, dispersiya kuchlari narxlarning oshishi, yer resurslarining cheklanishi, transport xarajatlarining ortishi va tirbandliklar tufayli iqtisodiy faollikning periferik hududlarga surilishini rag‘batlantiradi. Ana shu kuchlarning o‘zaro ta‘siri markaz–periferiya tizimini shakllantiradi, bu esa hududiy tabaqalanishning uzluksiz davom etuvchi jarayon ekanini ko‘rsatadi.

Iqtisodiy o‘shish sur‘atlarining hududlar bo‘yicha farqlanishi masalasi Barro va Sala-i-Martin modellarida o‘ziga xos talqin etilgan. Ularning konvergensiya g‘oyasiga ko‘ra, past daromadli hududlar ma‘lum sharoitlarda yuqoriroq o‘shish sur‘atlari bilan rivojlangan hududlarga yaqinlasha oladi. Ammo real iqtisodiy amaliyotda ko‘pincha divergensiya kuzatiladi, ya‘ni markaziy hududlar innovatsion faoliyat, raqamli infratuzilma, inson kapitali va investitsiya oqimlaridagi ustunliklari tufayli yanada tezroq rivojlanadi, periferik hududlar esa orqada qolib ketadi. Bu tafovutlarning chuqurlashuvi iqtisodiy tizimda uzoq muddatli nomutanosibliklarni shakllantiradi.

Tabaqalanishning faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy va siyosiy oqibatlar ham mavjud. Stiglitz tomonidan bayon etilgan ijtimoiy tengsizlik nazariyasiga ko‘ra, hududlar o‘rtasidagi farqlar oshgan sari ijtimoiy adolatga bo‘lgan ishonch pasayadi, ijtimoiy ziddiyatlar kuchayadi va siyosiy barqarorlik zaiflashadi. Shu bois hududlar o‘rtasidagi imkoniyatlar, infratuzilma, raqamli texnologiyalar va ta‘lim sifati bo‘yicha tafovutlar nafaqat iqtisodiy samaradorlikka, balki jamiyatning psixologik barqarorligiga ham ta‘sir ko‘rsatadi.



Hududiy tabaqalanishning murakkab mexanizmini sxematik ko‘rinishda ifodalash mumkin. Quyidagi 1-rasm ushbu jarayonning ketma-ket bosqichlarini ko‘rsatadi:



1-rasm. Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanishning shakllanish mexanizmi²⁴

1-sxemadan ko‘rinib turibdiki, jarayon boshlanishida resurslarning hududlar bo‘yicha notekis taqsimlanishi turadi. Shundan kelib chiqib, infratuzilma, transport va logistika imkoniyatlaridagi farqlar shakllanadi, bu esa ishlab chiqarishning ma’lum markazlarda to‘planishiga olib keladi. Natijada investitsiya oqimlari ham aynan o‘sha hududlarga yo‘naltiriladi va raqamli-innovatsion imkoniyatlar bo‘yicha tafovutlar chuqurlashadi. Bularning barchasi markaz–periferiya tizimini mustahkamlaydi va uzoq muddatda ijtimoiy-siyosiy nomutanosibliklarni kuchaytiradi.

Hududiy farqlanishni yanada aniqroq tasavvur qilish maqsadida nazariy model asosida shakllantirilgan quyidagi 1-jadval keltiriladi. U markaziy, o‘rta va periferik hududlarning rivojlanish dinamikasi, investitsiya oqimi, inson kapitali, raqamli imkoniyatlar va tabaqalanish darajasi bo‘yicha farqlarni umumlashtiradi.

1-jadval. Hududlar bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar modeli (nazariy ko‘rsatkichlar)²⁵

Hudud turi	Rivojlanish sur’ati	Investitsiya oqimi	Inson kapitali	Raqamli imkoniyatlar	Tabaqalanish darajasi
Markaziy hududlar	Yuqori	Yuqori	Yuqori	Kuchli	Past

²⁴ Muallif ishlanmasi

²⁵ Muallif ishlanmasi



O'рта hududlar	O'rtacha	O'rtacha	O'rtacha	O'rtacha	O'rtacha
Periferik hududlar	Past	Past	Past	Zaif	Yuqori

1-jadvalda aks etganidek, markaziy hududlar iqtisodiy o'sish sur'ati, investitsiya oqimi, inson kapitali sifati va raqamli infratuzilma bo'yicha yetakchi pozitsiyaga ega bo'ladi. Bu hududlarda tabaqalanish darajasi nisbatan past bo'lsa-da, mamlakat ichidagi umumiy tafovut manbai aynan markazning tez rivojlanishidan kelib chiqadi. Periferik hududlarda esa aksincha, iqtisodiy faollik past, raqamli imkoniyatlar cheklangan, investitsiya oqimi sust va inson kapitali yetarli darajada rivojlanmagan bo'ladi. Natijada hududlar o'rtasidagi tafovutlar chuqurlashadi va iqtisodiy tizimning makrobarqarorligiga ta'sir qila boshlaydi.

XULOSA

Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanish milliy iqtisodiyotning tarkibiy xususiyati bo'lib, u resurslar taqsimoti, kapital harakati, infratuzilmaning rivojlanish darajasi, aglomeratsiya jarayonlari va ijtimoiy tengsizlik omillari bilan bevosita bog'liq. Williamson, Krugman, Fujita, Venables, Barro & Sala-i-Martin hamda Stiglitzning tadqiqotlari hududiy tafovutlarning iqtisodiy tizimlar uchun tabiiy hodisa ekanini ilmiy asoslaydi. Biroq bu jarayon boshqarilmagan taqdirda, periferik hududlarning modernizatsiya salohiyati cheklanadi, ijtimoiy barqarorlik zaiflashadi va milliy iqtisodiyotdagi makro muvozanat buzilishi mumkin.

Shu sababli, hududiy farqlarni samarali tartibga solish uchun ularni chuqur diagnostika qilish, ko'p omilli tahlil qilish, raqamli indikatorlar asosida monitoring yuritish va markaz-periferiya tafovutini yumshatishga qaratilgan strategik siyosat yuritish zarur. Bu yondashuv O'zbekistonning barqaror, muvozanatli va innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Williamson, J. G. (1965). *Regional Inequality and the Process of National Development*. Economic Development and Cultural Change, 13(4), 1–84.
2. Fujita, M., Krugman, P., & Venables, A. J. (1999). *The Spatial Economy: Cities, Regions and International Trade*. MIT Press.
3. Barro, R., & Sala-i-Martin, X. (2004). *Economic Growth*. MIT Press.
4. Stiglitz, J. E. (2012). *The Price of Inequality*. W. W. Norton & Company.



OLIIY TA'LIM TIZIMIDA SIFATNI OSHIRISH VA SAMARADORLIKNI TA'MINLASH DAVR TALABIDIR

Gafurova Dilobar Karomatovna - *Navoiy innovasiyalar universiteti "Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari" kafedra o'qituvchisi*

Narkulova Shirin Farxadovna - *Iktisodiyotda tarmoqlar va sohalar fakulteti kunduzgi 3-kurs talabasi*

Annotatsiya ushbu maqolada ta'lim jarayonini boshqarish, ma'muriyat va pedagoglar o'rtasidagi hamkorlik, talabalarning qobiliyati va ularning qiziqishlarini inobatga olgan holda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar; "Big Data", tahlil, interfaol yondashuv, ta'lim jarayoni, interaktiv muhit, muloqot, ta'lim xizmatlari.

Аннотация: В данной статье рассматриваются направления, направленные на повышение качества образования с учетом способностей и интересов учащихся, организации образовательного процесса, сотрудничества между администрацией и преподавателями, а также их интересов.

Ключевые слова: «Большие данные», анализ, интерактивный подход, образовательный процесс, интерактивная среда, коммуникация, образовательные услуги.

Abstract: This article examines the areas aimed at improving the quality of education, taking into account the abilities and interests of students, the organization of the educational process, cooperation between the administration and teachers, as well as their interests.

Key words: Big data, analysis, interactive approach, educational process, interactive environment, communication, educational services.

Jahon iqtisodiyotining intensiv rivojlanayotgan va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi roli uzluksiz ortib borayotgan strategik sohalaridan biri hisoblangan ta'lim xizmatlarining ahamiyati tobora oshib bormoqda. Iqtisodiyotning intellektuallashuv darajasining jadal o'sib borishi sharoitida oliy ta'lim insonlar faoliyatining barcha sohalariga yangi texnologiyalarni joriy etish, raqobatbardoshlikni oshirish, aholi turmush darajasini oshirishning muhim omiliga aylanib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarda YaIMga nisbatan ta'lim sohasiga sarflanayotgan xarajatlar tarkibida oliy ta'lim xarajatlari AQShda 27,5 %, Germaniyada 26,0 %, Yaponiyada 19,8 % va Italiyada 19,1 %ni tashkil etmoqda²⁶. Bugungi kunda ta'lim xizmatlariga iqtisodiy yuksalish, xalqaro mehnat taqsimotida

²⁶ <https://databank.worldbank.org>. Jahon banki ma'lumotlari. 2020.




mamlakat mavqeini mustahkamlash va raqobatbardoshligini oshirishning yetakchi omili sifatida qaralmoqda.

Dunyo miqyosida oliy ta'limdagi sifatni oshirish va samaradorlikni ta'minlash bo'yicha ko'plab tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Jumladan, AQSh, Yaponiya, Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda ta'lim muassasalarining samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ular ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini individuallashtirish va talabalarning shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashishga harakat qilishadi. Bu mamlakatlarda o'quv jarayonidagi samaradorlikning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarga alohida e'tibor beriladi:

Mahalliy tadqiqotlarda ham oliy ta'limda samaradorlikni oshirish bo'yicha tahlillar o'tkazilgan. Bunda asosan ta'lim jarayonini boshqarish, ma'muriyat va pedagoglar o'rtasidagi hamkorlik, talabalarning qobiliyati va ularning qiziqishlarini inobatga olgan holda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan yo'nalishlar muhokama qilingan. Lekin tanqidiy tahlil shuni ko'rsatadiki, aksariyat tadqiqotlar umumiy yondashuvlardan iborat bo'lib, mazkur mavzuda ko'tarilayotgan masalalar bo'yicha yetarli darajada tadqiqotlar olib borilmagan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra ta'lim xizmatlarining samaradorligini oshirishda quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega (1-rasm):



1-rasm. Ta'lim xizmatlari samaradorligini oshirish omillari

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini optimallashtirish va uning samaradorligini oshirishda asosiy ahamiyat kasb etmoqda. Bu texnologiyalar ta'lim jarayonini tezkor, interaktiv va individuallashtirish tarzida tashkil etishga imkon yaratadi. Masalan, xorijiy oliy ta'lim muassasalarida virtual o'quv tizimlari, sun'iy intellekt, blokcheyn, "Big Data" tahlillari va "obolachnaya" texnologiyalar kabi zamonaviy innovatsiyalardan foydalanilmoqda. Bu texnologiyalar ta'lim jarayonini avtomatlashtirish, talabalarning shaxsiy ta'lim trayektoriyalarini yaratish, hamda ularning o'quv natijalarini real vaqtda kuzatish imkonini beradi. Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida o'quv materiallarini individualizatsiya qilish va talabalarning o'quv ko'rsatkichlarini tahlil qilish jarayonini takomillashtirish mumkin. Bunday texnologiyalardan samarali foydalanish oliy ta'lim muassasalarining



raqobatbardoshligini oshirishda hamda ta'limning jahon standartlariga moslashuvida muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o'quv jarayonini tashkil etish metodlarini takomillashtirish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Innovasion texnologiyalar talabalarga o'quv materialini tezkor o'zlashtirish, o'quv jarayonida faol ishtirok etish va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish imkonini yaratadi.

Innovasion va interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish, xususan, "keyc-stadi", "klaster" yoki "Blum taksonomiyasi" kabi yondashuvlarni qo'llash, talabalarning ta'lim jarayonidagi faolligini sezilarli darajada oshiradi. Bunday metodlar nafaqat jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi, balki o'quv jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatib, talabalarning o'ziga bo'lgan ishonchini ham mustahkamlaydi.

Ushbu metodlar talabalarning mustaqil izlanish va tadqiqot olib borishga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular orqali talabalar o'zining ijodiy salohiyatini namoyon eta oladi, murakkab muammolarga yechim izlashda innovatsion yondashuvlarni qo'llaydi va nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, interfaol yondashuvlar ta'lim jarayonida interaktiv muhit yaratish orqali talabalar o'rtasida muloqotni kuchaytiradi, ularning fikrlash darajasini oshirishga ko'maklashadi va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu tariqa, ta'lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki kompleks ijtimoiy va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish maydoniga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Eric A. Hanushek., Ludger Woessmann. Education, Knowledge Capital, and Economic Growth. The Economics of Education, Second Edition. pp. 171-182, 2020.
2. Brunello G., Comi S. Education and Earnings Growth: Evidence from 11 European Countries. Economics of Education Review. vol.23, 1, pp. 75-88, 2014.
3. Feixue H., Ling J., Xiaoli S. Relationship between Scale of Higher Education and Economic Growth in China. Asian Social Science. vol.5, №11, pp. 55-60, 2009.
4. Pegkas P., Tsamadias C. Does Higher Education Affect Economic Growth? The Case of Greece. International Economic Journal. vol.28, 3, pp. 425-444, 2014.
5. Pisano G.P. You need an innovation strategy [Text] // Harvard business rev. – Boston. – Vol. 93, N 6. 2015.



РОЛЬ ЗЕЛЁНЫХ ИНВЕСТИЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ИНСТРУМЕНТЫ И СЕКТОРА КЛАССИФИКАЦИЙ

Ишонкулова Феруза Асатовна

Самаркандский институт экономика
и сервиса. PhD и.о.доцента

Абдусатторов Баходир

студент 2-го курса БИ-224

Аннотация: Зелёные инвестиции становятся ключевым направлением устойчивого развития Узбекистана. Они направлены на снижение углеродного следа, повышение энергоэффективности, развитие экологических технологий и формирование низкоуглеродной экономики. В статье представлены основные инструменты зелёного финансирования, классификация секторов, принимающих зелёные инвестиции, а также анализ текущих тенденций, барьеров и перспектив развития зелёного рынка капитала в Узбекистане.

Ключевые слова: зелёные инвестиции, зелёные облигации, ESG, устойчивое развитие, ВИЭ, зелёная экономика, экотехнологии.

Annotatsiya: Yashil investitsiyalar O'zbekistonda barqaror rivojlanishning asosiy sohasiga aylanib bormoqda. Ular uglerod izini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish, ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish va kam uglerodli iqtisodiyotni yaratishga qaratilgan. Ushbu maqolada asosiy yashil moliyalashtirish vositalari keltirilgan, yashil investitsiyalarni qabul qiluvchi sektorlar tasniflangan va O'zbekistonda yashil kapital bozorini rivojlantirishning hozirgi tendentsiyalari, to'siqlari va istiqbollari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: yashil investitsiyalar, yashil obligatsiyalar, ESG, barqaror rivojlanish, qayta tiklanadigan energiya manbalari, yashil iqtisodiyot, ekotexnologiyalar.

Abstract: Green investments are becoming a key area of sustainable development in Uzbekistan. They aim to reduce the carbon footprint, improve energy efficiency, develop environmentally friendly technologies, and create a low-carbon economy. This article presents the main green financing instruments, classifies the sectors accepting green investments, and analyzes current trends, barriers, and prospects for the development of the green capital market in Uzbekistan.

Keywords: green investments, green bonds, ESG, sustainable development, renewable energy sources, green economy, eco-technologies.

Введение

Глобальный переход к устойчивой модели развития сопровождается ростом спроса на экологически ориентированные финансовые инструменты. Зелёные инвестиции рассматриваются как механизм, позволяющий странам



достигать климатических целей, улучшать экологическую ситуацию и модернизировать экономику в соответствии с международными стандартами. Узбекистан, сталкивающийся с серьёзными экологическими вызовами — засухой, водным дефицитом, деградацией земель и последствиями катастрофы Аральского моря — активно внедряет зелёные инструменты и реформирует нормативно-правовую базу.

Стратегия перехода Республики Узбекистан к «зелёной» экономике на 2019–2030 годы определяет зелёные инвестиции как ключевой драйвер устойчивого роста и интеграции в глобальные цепочки экологически безопасных технологий. В стране развивается рынок ВИЭ, модернизируется промышленность, запускаются проекты водосбережения и экологичной урбанизации, что требует масштабного привлечения зелёного капитала.

Зелёные инвестиции становятся важным инструментом устойчивого развития Узбекистана на фоне климатических вызовов, дефицита водных ресурсов и необходимости модернизации экономики. Переход к «зелёной» модели определён Стратегией 2019–2030 годов и направлен на снижение углеродного следа, рациональное использование природных ресурсов и развитие экологически безопасных технологий. В условиях глобального энергоперехода Узбекистан рассматривает зелёные инвестиции как ключ к экономической конкурентоспособности и интеграции в международные экологические стандарты.

Под зелёными инвестициями понимаются вложения в проекты, минимизирующие экологический ущерб и обеспечивающие переход к низкоуглеродной экономике. Для Узбекистана они важны в связи с модернизацией энергетики, промышленности, сельского хозяйства и водного хозяйства, а также с восстановлением территорий, пострадавших от последствий Аральского моря. Зелёные инвестиции позволяют одновременно улучшать экологическую ситуацию и создавать новые экономические возможности.

В Узбекистане используется несколько финансовых механизмов: зелёные облигации, государственные субсидии, льготные кредиты, международные гранты, ГЧП и частные инвестиции. Наиболее перспективным инструментом считается выпуск зелёных облигаций по международным стандартам ICMA. Значительную роль играют международные учреждения — EBRD, ADB, Всемирный банк, UNDP, которые финансируют проекты ВИЭ, ирригации и энергоэффективности. Крупные зарубежные инвесторы (Masdar, ACWA Power, Total Eren) активно строят солнечные и ветровые электростанции.

Сектора распределяются согласно международной таксономии: возобновляемые источники энергии, энергоэффективность промышленности, устойчивое сельское хозяйство, водное хозяйство, управление отходами, экологичный транспорт и зелёное строительство. Наиболее активно развиваются ВИЭ — уже введено более 2 ГВт солнечных и ветровых мощностей. Водосберегающие технологии и модернизация ирригации становятся приоритетом из-за дефицита воды, а переработка отходов



расширяется через строительство новых сортировочно-перерабатывающих комплексов.

Зелёные инвестиции уже дали заметные результаты: увеличение переработки отходов с 8% до 20%, рост площадей капельного орошения, расширение рынка ВИЭ и создание новых рабочих мест. Однако сохраняются барьеры — нехватка долгосрочного финансирования, ограниченность внутреннего рынка зелёных облигаций, недостаток кадров и необходимость совершенствования экологической отчётности. Также требуется дальнейшая модернизация нормативно-правовой базы и цифровизация экологического контроля.

Узбекистан обладает значительным потенциалом для роста зелёных инвестиций за счёт создания национальной таксономии, стимулирования частных инвесторов, расширения ГЧП и углубления международного сотрудничества. Развитие энергоэффективности, экологичного транспорта, ВИЭ и зелёного строительства позволит ускорить модернизацию экономики и повысить её устойчивость к климатическим рискам. В долгосрочной перспективе зелёные инвестиции станут фундаментом экологически безопасного экономического роста страны.

Заключение:

Развитие зелёных инвестиций в Узбекистане является стратегическим элементом перехода к устойчивой экономике. Рост проектов в области ВИЭ, экотранспорта, водосбережения и переработки отходов показывает устойчивую динамику. Формирование национальной экосистемы зелёного финансирования позволит стране ускорить технологическую модернизацию и улучшить экологическую ситуацию, обеспечивая сбалансированный экономический рост на длительную перспективу.

Список использованной литературы:

1. Стратегия Республики Узбекистан по переходу к «зелёной» экономике на 2019–2030 годы.
2. UNDP Uzbekistan. Green Economy Transition Reports.
3. Всемирный банк. “Uzbekistan: Towards Green Growth”.
4. ADB. Sustainable Infrastructure and Green Finance in Central Asia.
5. EBRD Country Strategy for Uzbekistan.
6. Министерство экономики и финансов Республики Узбекистан. Отчёты 2022–2024 гг.



ХИЗМАТЛАР СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ АСОСИДА АҲОЛИ ТУРМУШ СИФАТИНИ ОШИРИШ

Dildora Sobirjonovna Djuraeva

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
mustaqil tadqiqotchisi.

djurayevadildora77@gmail.com

Аннотация ушбу мақолада мамлакатимизда иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш ва аҳоли фаровонлигини оширишда хизматлар соҳасини такомиллаштириш устувор вазифалардан бири этиб белгиланганлигига алоҳида эътибор қаратилган. Хизматлар тармоғини кенгайтириш нафақат иқтисодий ўсишни тезлаштиради, балки аҳолининг турмуш сифати, қулайлик ва ижтимоий барқарорлик даражасини ошириши асосий масала сифатида қўрилган.

Калит сўзлар: хизматлар сифати, кадрлар салоҳияти, рақобат муҳити, сервис маданияти, хизматлар соҳаси

Аннотация В данной статье особое внимание уделяется тому факту, что углубление экономических реформ и совершенствование сектора услуг в нашей стране являются одной из приоритетных задач повышения благосостояния населения. Расширение сети услуг не только ускоряет экономический рост, но и повышает качество жизни, комфорт и социальную стабильность населения, что является важнейшей задачей.

Ключевые слова: качество обслуживания, кадровый потенциал, конкурентная среда, культура обслуживания, сфера услуг.

Abstract: This article emphasizes that deepening economic reforms and improving the service sector in our country are among the priority tasks for improving the well-being of the population. Expanding the service network not only accelerates economic growth but also improves the quality of life, comfort, and social stability of the population, which is a crucial task.

Key words: service quality, human resources potential, competitive environment, service culture, service sector.

Дунёнинг турли минтақаларида содир бўлаётган урушлар, ҳарбий тўқнашувлар, табиат ҳодисалари мамлакат иқтисодиётига ўз таъсирини кўрсатмасдан қолмайди. Ушбу ҳодисалар таъсирида бутун дунёда ижтимоий-иқтисодий қолоқлик ва мамлакатлар аҳолисининг қошшоқлик даражасини ортишига юзга келади.

Бугунги кунда 1,2 миллиардгача киши очарчиликдан азият чекаётган бўлса, 1,7 миллиарддан ортиқ аҳолининг ўртача умр кўриши ёши 60 ёшга етмайди, 1,5 миллиарддан ортиқ кишиларнинг тиббий хизматлардан фойдаланиш имконияти умуман йўқ, шу билан биргаликда 1 миллиардан



ортиқ одамлар ўта камбағал турмуш кечирмоқда, 200 миллиондан ортиқ бола мактаб таълимини олмаётган бўлса, жаҳонда 800 миллиондан зиёд инсонлар умуман саводсиз, улар ўқиш ва ёзишни билмайди²⁷.

Адабиётлар таҳлили ва назарий асос. Тармоқлараро иқтисодий муносабатларни таҳлил қилиш назарияси XX аср ўрталарида В.Леонтьев томонидан ишлаб чиқилган кирим-чиқим (Input–Output) моделига бориб тақалади. Леонтьевнинг ушбу модели иқтисодий тизимда тармоқлар ўртасидаги ресурс ҳаракати, талаб ва таклиф ўзаро таъсирини аниқлашда энг самарали таҳлилий восита сифатида илмий жамоатчилик томонидан кенг тан олинган. Кейинги тадқиқотлар (Миллер, Блэр, Р. Стоун ва бошқалар) моделнинг таркибий таҳлил, тармоқлараро эластикликлар, регионал кооперация ва прогнозлаштириш имкониятларини янада ривожлантирди. Маҳаллий тадқиқотларда ҳам тармоқлараро баланс методологияси саноат, қишлоқ хўжалиги ва ҳудудий иқтисодиётни таҳлил қилишда кенг қўлланиб келинмоқда. Хусусан, “Прогнозирование структурных сдвигов экономики региона с использованием метода ‘Затраты-Выпуск’” (Абдрашитова А.Р.) ва бошқа диссертацияларда минтақавий тармоқлар ўртасидаги ўзаро боғлиқлик, ишлаб чиқариш структурасидаги ўзгаришлар ва кооперация самарадорлиги илмий асосда тадқиқ қилинган. Бундай ишлар кирим-чиқим моделининг ҳудудий иқтисодиётдаги аҳамияти ва амалиётдаги қўлланилишини тасдиқлайди.

Ҳозирги иқтисодий шароитда тармоқлараро баланс нафақат тармоқларнинг ички динамикасини, балки ҳудудлар ўртасидаги ўзаро ҳамкорлик даражасини баҳолаш, ресурс оқимларидаги номуносиваликни аниқлаш ва кооперация самарадорлигини оширишда муҳим методологик асос бўлиб хизмат қилади. Мазкур модель орқали Наманган вилоятининг саноат, қишлоқ хўжалиги ва хизматлар секторидаги тармоқлараро интеграцияни ўрганиш, вилоятлараро иқтисодий алоқаларнинг реал қўламини аниқ баҳолаш ва уларни оптималлаштириш имкониятлари кенгдир.

Методология. Тадқиқотда Наманган вилояти иқтисодиётидаги тармоқлараро боғлиқлик ва вилоятлараро иқтисодий ҳамкорлик динамикасини баҳолаш учун **тармоқлараро баланс модели, кооперация**



индекси, Хиршман Раскин кўрсаткичлари, шунингдек тармоқлараро мультипликаторлар таҳлили қўлланилди. Тармоқлараро баланс модели В. Леонтьев томонидан ишлаб чиқилган бўлиб, унинг математик шакли қуйидагича ифодаланади:

$$X = (I - A)^{-1}Y$$

Бу ерда:

- X — тармоқлар бўйича умумий ишлаб чиқариш ҳажми;
- A — тўғри тармоқлараро истеъмол коэффициентлари матрицаси;
- $(I - A)^{-1}$ — леонтьев инверсияси (тўла талаб мультипликатори);
- Y — ниҳоний талаб.

Тадқиқотда 2020-2024 йиллар статистик маълумотлари асосида саноат, қишлоқ хўжалиги ва хизматлар соҳаси бўйича ўзаро таъсир коэффициентлари қайта ҳисобланди. Шу билан бирга, вилоятнинг бошқа ҳудудлар билан савдо-иқтисодий муносабатлари **иқтисодий ҳамкорлик индекси (RCCI - Regional Cooperation and Connectivity Index)** орқали баҳоланди:

$$RCCI = \frac{IM_{ij} + EX_{ij}}{GDP_i}$$

Бу формула муайян вилоятнинг (i) бошқа ҳудуд (j) билан иқтисодий алоқалар нисбий салмоғини кўрсатади. Шунингдек, тармоқлар ўртасидаги кучи юқори боғлиқликни баҳолаш учун **Хиршман индекси** қўлланилди:

$$HI = \sum (a_{ij})^2$$

Асосий натижалар, тармоқлар ўртасидаги боғлиқлик даражаси. Ҳисоб-китоблар натижасида Наманган вилояти иқтисодиётида қуйидаги асосий тенденциялар кузатилди:

**Тармоқлараро тўғридан-тўғри истеъмол коэффициентлари
(A матрица фрагменти)**

Жадвал 1.

Тармоқлар	Саноат	Қ.хўжалиги	Хизматлар
Саноат	0.28	0.14	0.12
Қ.хўжалиги	0.10	0.22	0.08
Хизматлар	0.16	0.11	0.25



Саноат тармоғига қишлоқ хўжалигидан кирувчи хомашёнинг улуши 14% ни ташкил қилиши аграр соҳанинг саноат учун муҳим ресурс базаси эканини кўрсатади. Хизматлар сектори эса барча тармоқлар учун умумий кўмак инфратузилма вазифасини бажариб, 11-25% гача улушни эгалламоқда.

Вилоятлараро ҳамкорлик индекси (RCCI) натижалари. Наманган вилоятининг Андижон, Фарғона ва Тошкент вилоятлари билан алоқалари юқори салмоққа эга экани аниқланди. RCCI, Худудлараро ҳамкорлик ва боғланувчанлик индекси (ХХБИ) кўрсаткичлари (2024 йил)

Жадвал 2.

Худуд	ХХБИ	Изоҳ
Андижон	0.42	Юқори савдо-алоқа
Фарғона	0.38	Кучли саноат-аграр боғлиқлик
Тошкент	0.29	Асосий технология ва жиҳоз манбаи
Сирдарё	0.11	Кам алоқадорлик

Наманган вилоятининг энг кучли ҳамкорлиги **Андижон ва Фарғона** вилоятлари билан, энг паст кўрсаткичлар эса **Сирдарё** вилояти билан қайд этилди.

Хулоса ва таклифлар. Тадқиқот натижалари Наманган вилояти иқтисодиётида тармоқлар ўртасидаги ўзаро боғлиқликнинг юқори даражада сақланаётганини ва саноат, қишлоқ хўжалиги ҳамда хизматлар секторлари ўртасидаги интеграция худуднинг барқарор иқтисодий ўсишида ҳал қилувчи омил эканлигини кўрсатди.

Таҳлил шуни кўрсатдики, Наманган вилоятининг Андижон ва Фарғона вилоятлари билан иқтисодий боғланувчанлиги юқори бўлиб, ХХБИ индекси мос равишда 0,42 ва 0,38 ни ташкил этади. Бу эса худудлараро савдо, хомашё алмашинуви ва ишлаб чиқариш кооперациясининг кучли эканлигини тасдиқлайди. Тошкент вилояти билан ҳамкорлик кўрсаткичининг юқори бўлмаган ҳолда (0,29) барқарор сақланиши буюртма асосидаги технология ва жиҳоз таъминотининг асосий қисми ушбу худудга боғлиқ эканлигини кўрсатади. Шу билан бирга айрим худудлар, жумладан Сирдарё вилояти билан алоқаларнинг паст даражада бўлиши (0,11) мавжуд салоҳиятдан тўлиқ фойдаланилмаётганини англатади.

Тадқиқотнинг илмий аҳамияти шундаки, тармоқлараро баланс моделига таянган ҳолда Наманган вилоятидаги тармоқлар ўртасидаги ресурс оқимлари, талаб ва таклиф мувозанати, ҳамкорлик динамикаси илмий асосда баҳоланди. Худудлараро ҳамкорликни аниқ ифодаловчи ХХБИ индекси минтақавий интеграция даражасини чуқур таҳлил қилиш учун универсал инструмент сифатида таклиф этилди. Ушбу ёндашув худудлар кесимида иқтисодий боғлиқлик ва кооперация самарадорлигини баҳолаш имкониятини кенгайтириб, минтақавий сиёсатда мақсадли қарор қабул қилишга илмий асос



яратади.

Амалий таклифлар:

1. **Саноат кооперациясини кенгайтириш:** Наманган вилояти саноат тармоғининг юқори мультипликатор таъсиридан келиб чиқиб, Андижон ва Фарғона вилоятлари билан биргаликда технологик занжирлар ва кўшма корхоналар ташкил этиш мақсадга мувофиқ.
2. **Аграр таъминот занжирларини оптималлаштириш:** Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлашни кенгайтирган ҳолда қиймат занжиридаги йўқотишларни 10-15% га қисқартириш мумкин.
3. **Хизматлар секторининг интеграцион ролини кучайтириш:** логистика, транспорт ва ахборот хизматларини модернизация қилиш тармоқлар ўртасидаги боғлиқликни яхшилаб, ишлаб чиқариш харажатларини камайтиришга хизмат қилади.
4. **Худудлараро ҳамкорлик платформасини яратиш:** Андижон-Наманган-Фарғона ўртасида ягона электрон кооперация портали ишлаб чиқилиши ресурс алмашинувини янада тез ва шаффоф қилади.
5. **Инфратузилмавий инвестицияларни диверсификация қилиш:** Тошкент ва Сирдарё вилоятлари билан транспорт, логистика ва энергетика инфратузилмасини яхшилаш орқали кооперация кўламини кенгайтириш мумкин.
6. **Тармоқлараро баланс ҳисобларини тизимли йўлга қўйиш:** Вилоят миқёсида тармоқлараро баланснинг янгиланган тизимини ҳар икки йилда тайёрлаш иқтисодий сиёсат самарадорлигини оширади.

Соҳани ривожлантириш йўналишлари:

- Минтақавий индустриал кластерлар ташкил этиш, айниқса агросаноат ва енгил саноат соҳасида;
- Вилоятлараро рақамли маълумот алмашинув тизимини шакллантириш ва реал вақтда кооперация даражасини мониторинг қилиш;
- Европа ва Осиё мамлакатларининг тажрибаси асосида тармоқлараро ҳамкорлик стратегиясини янгилаш;
- Инновацион технологияларни жорий этиш орқали тармоқлар ўртасидаги транзакция харажатларини камайтириш.

Адабиётлар рўйхати:

1. Leontief, W. *Input–Output Economics*. New York: Oxford University Press, 1986.
2. Miller, R. E., & Blair, P. D. *Input–Output Analysis: Foundations and Extensions*. Cambridge University Press, 2009.
3. Stone, R. *Input–Output and National Accounts*. OECD Publishing, 1961.



4. **Abdrashitova, A. R.** *Прогнозирование структурных сдвигов экономики региона с использованием метода «Затраты–Выпуск»*. Диссертация, Уфа, 2014.
5. **Isard, W.** *Methods of Regional Analysis*. MIT Press, 1960.
6. **Hewings, G. J. D.** *Regional Input–Output Models and Economic Structure Analysis*. Regional Science Review, 1998.
7. **Fujita, M., Krugman, P., & Venables, A.** *The Spatial Economy: Cities, Regions and International Trade*. MIT Press, 1999.
8. **Шарапов, О. М.** *Межотраслевые модели и их применение в региональной экономике*. Москва, 2012.
9. **Хусайнов, Б. Х.** *Регионал иқтисодиётда тармоқлараро таҳлил услуги*. Тошкент: Иқтисодиёт нашриёти, 2020.
10. **UNIDO.** *Value Chain Analysis for Policy Making*. Vienna: United Nations Industrial Development Organization, 2015.
11. **OECD.** *Regional Economic Cooperation and Connectivity Report*. Paris: OECD Publishing, 2020.
12. **World Bank.** *Strengthening Interregional Economic Cooperation: Analytical Approaches and Case Studies*. Washington DC, 2021.



BUXGALTERIYA HISOBI MILLIY STANDARTLARI (BHMS) VA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS) DA ASOSIY VOSITALARNI HISOBGA OLISH FARQLARI

T.M. Zoxidov

ORCID: 0009-0001-3942-9184

Alfraganus universiteti,
“Buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish”
kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekistonda qo‘llaniladigan Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (5-BHMS) va Moliya hisobotining xalqaro standartlari (MHXS, xususan, IAS 16) dagi asosiy vositalarni hisobga olish tamoyillari orasidagi asosiy farqlarni tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu farqlar asosiy vositalarni tan olish mezonlari, dastlabki va keyingi baholash (shu jumladan qayta baholash imkoniyati), amortizatsiya hisoblash usullari hamda eskirish (impairment) ni hisobga olish masalalarida namoyon bo‘ladi. Xususan, MHXSda aktivlarni bozor qiymatida qayta baholash imkoniyati, kapital qo‘yilmalar bo‘yicha foizlarni dastlabki qiymatga kiritish va eskirish zararini tan olish kabi imkoniyatlar moliyaviy hisobotlarning ko‘rsatkichlariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi, bu esa korxonaning moliyaviy holati va uning faoliyati natijalari to‘g‘risidagi tasavvurni o‘zgartiradi. Maqola, MHXSga o‘tish jarayoni O‘zbekiston korxonalari uchun moliyaviy hisobotning shaffofligini oshirish va xalqaro investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini yanada kengaytirish bilan birga, bir qator muammolarni ham keltirib chiqarishini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: BHMS, MHXS, IAS 16, asosiy vositalar, qayta baholash, amortizatsiya, eskirish, moliyaviy hisobot.

Аннотация: Данная статья анализирует ключевые различия в принципах учета основных средств между Национальными стандартами бухгалтерского учета (НСБУ), применяемыми в Узбекистане, и Международными стандартами финансовой отчетности (МСФО, в частности, МСФО (IAS) 16). Результаты исследования показывают, что эти различия проявляются в критериях признания активов, первоначальной и последующей оценке (включая возможность переоценки), методах начисления амортизации и учете обесценения (impairment). В частности, такие возможности МСФО, как переоценка активов по справедливой стоимости, капитализация процентов по займам и признание убытков от обесценения, оказывают существенное влияние на показатели финансовой отчетности, что может изменить представление о финансовом положении и результатах деятельности компании. В статье подчеркивается, что процесс перехода на МСФО, хотя и открывает для узбекских компаний возможности повышения прозрачности



отчетности и привлечения иностранных инвестиций, также сопряжен с рядом проблем.

Ключевые слова: НСБУ, МСФО, МСФО (IAS) 16, основные средства, переоценка, амортизация, обесценение, финансовая отчетность.

Annotation: This article analyzes the key differences in the principles of fixed assets accounting between the National Accounting Standards (NAS) used in Uzbekistan and the International Financial Reporting Standards (IFRS, specifically IAS 16). The research results indicate that these differences are evident in the asset recognition criteria, initial and subsequent measurement (including the possibility of revaluation), depreciation methods, and the accounting for impairment. In particular, IFRS provisions such as the ability to revalue assets at fair value, the capitalization of borrowing costs, and the recognition of impairment losses significantly impact financial statement metrics, which can alter the perception of a company's financial position and performance. The article concludes that the transition to IFRS, while offering Uzbek companies opportunities to enhance reporting transparency and attract foreign investment, also presents a number of challenges.

Keywords: NAS, IFRS, IAS 16, Property, Plant and Equipment, Revaluation, Depreciation, Impairment, Financial Reporting.

Kirish

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, moliyaviy hisobotning shaffofligini oshirish va global bozorga integratsiyalashish jarayoni O'zbekiston korxonalari uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) ni qo'llash zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Asosiy vositalar har qanday ishlab chiqarish korxonasi aktivlarining asosiy qismini tashkil etadi, shu sababli ularni hisobga olish va baholash Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS) va MHXS (xususan, IAS 16 "Asosiy vositalar") da turli jihatlari bilan farqlanadi. Ushbu farqlar moliyaviy hisobotlar ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, bu esa korxona moliyaviy holati va uning faoliyati natijalari to'g'risidagi tasavvurni o'zgartirishi mumkin. Ushbu tezisning maqsadi BHMS va MHXS dagi asosiy vositalarni hisobga olishning asosiy tamoyil farqlarini aniqlash, ularning moliyaviy hisobotlarga ta'sirini tahlil qilish va o'tish jarayonidagi asosiy muammolarni ko'rsatib berishdan iborat.

Metodologiya

Tadqiqot qiyosiy tahlil va deskriptiv usullarga asoslanadi. Tadqiqot doirasida quyidagi hujjatlar tahlil qilindi:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-fevraldagi 107-son "Buxgalteriya hisobi milliy standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan 5-BHMS "Asosiy vosita".
2. Xalqaro hisob standartlari qo'mitasining (IASB) chiqargan IAS 16 "Asosiy vositalar" (Property, Plant and Equipment).
3. Tahlil ushbu hujjatlarning asosiy vositalarni tan olish, dastlabki va keyingi baholash, amortizatsiya va hisobdan chiqarish bo'yicha qoidalarini qiyosiy tahlil qilishga qaratildi.

Natijalar va Muhokama

Tahlil natijasida quyidagi asosiy farqlar aniqlandi:



1. Asosiy vosita tushunchasi va tan olish mezonlari

BHMS (5-BHMS “Asosiy vositalar”): asosiy vositalar — korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo'jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar

MHXS (IAS 16): Aktivning asosiy vosita sifatida tan olinishi uchun uning korxonaga kelajakda iqtisodiy foyda keltirishi ehtimoli bo'lishi va uning qiymati ishonchli baholanishi kerak. Hech qanday minimal chegara (limit) yo'q. Shunga ko'ra, arzonroq kompyuterlar, ofis mebellari ham asosiy vosita bo'lishi mumkin. Bu korxonaning balansida aktivlar hajmini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

2. Dastlabki baholash va keyingi xarajatlari

BHMS: Asosiy vositaning dastlabki qiymati uning sotib olish (qurish) xarajatlari va uni foydalanishga topshirish bilan bog'liq to'g'ridan-to'g'ri xarajatlardan tashkil topadi. Biroq, Kreditdan foydalanganlik uchun foizlarni to'lashga doir xarajatlari qarzi kapitali hisobidan to'liq yoki qisman sotib olingan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatiga kiritilmaydi. Ammo, Qurilish davrida qurilish uchun olingan kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar barpo etilgan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatiga kiritiladi.

MHXS (IAS 16): Dastlabki qiymatga aktivni kerakli joyga va kerakli holatga keltirish bilan bog'liq **barcha** to'g'ridan-to'g'ri xarajatlari kiradi. Bu o'z ichiga aktivni sotib olish uchun olingan kreditlar bo'yicha foizlarning ma'lum qismini ham oladi (agar aktiv qurilayotgan bo'lsa). Bu MHXSda aktivning dastlabki qiymati odatda BHMSdagidan yuqori bo'lishiga olib keladi.

3. Keyingi baholash modeli (Qayta baholash)

BHMS: Asosiy vositalar faqatgina dastlabki qiymat modeli bo'yicha hisobga olinadi. Ya'ni, aktiv balansda dastlabki qiymati minus to'plangan amortizatsiya summasi sifatida ko'rsatiladi. Qayta baholash amaliyoti deyarli qo'llanilmaydi.

MHXS (IAS 16): Korxona ixtiyoriy ravishda **qayta baholash modelini** tanlashi mumkin. Unga ko'ra, asosiy vositalar bozor (og'ish) qiymati (fair value) bo'yicha qayta baholanadi. Qayta baholash natijasida yuzaga kelgan ortiqcha summa (surplus) “Qayta baholash zaxirasi” hisobiga (rezerv kapitalga) qo'shiladi, kamayish esa (agar avvalgi o'sish bo'lmasa) xarajatlari hisobiga yoziladi. Bu korxona kapitalining hajmini va aktivlari bazasini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

4. Amortizatsiya

BHMS: Amortizatsiya normallari va foydalanish muddatlari ko'pincha soliq organlari tomonidan belgilanadigan normativ hujjatlar (masalan, amortizatsiya guruhlari) asosida hisoblanadi. Bu korxonaning individual xususiyatlarini hisobga olmasligi mumkin.

MHXS (IAS 16): Foydalanish muddati va amortizatsiya usulini korxona o'zi mustaqil ravishda, asosiy vositaning iqtisodiy manfaati iste'mol qilinishiga asosan belgilaydi. Bu korxonaga uning haqiqiy iqtisodiy holatiga mosroq amortizatsiya ajratish imkoniyatini beradi.

5. Asosiy vositalarning eskirishi



BHMS: Eskirish tushunchasi va uni aniqlashning aniq mezonlari ancha cheklangan.
MHXS (IAS 36 “Eskirish”): Agar aktivning balansdagi qiymati uning amortizatsiyalanmagan qiymatidan (recoverable amount) oshib ketsa, aktivning qiymati pasaytirilishi (impairment loss) va bu yo‘qotish daromadlar hisobotida tan olinishi kerak. Bu korxonaning aktivlarini ularning haqiqiy iqtisodiy qiymatiga yaqinroq ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Jadval. BHMS va MHXS da asosiy vositalarni hisobga olishning qiyosiy tahlili

Tahlil parametri	BHMS (5-BHMS)	MHXS (IAS 16)	Ta’sir
Tan olish mezonlari	Belgilangan limit mavjud	Iqtisodiy foyda va ishonchli baholash mezonlari	MHXSda aktivlar soni ko‘payishi mumkin
Dastlabki baholash	Cheklangan xarajatlar turkumi	Aktivni ishga tushirish uchun barcha to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar	MHXSda dastlabki qiymat yuqoriroq bo‘lishi mumkin
Keyingi baholash modeli	Faqat boshlang‘ich qiymat	Boshlang‘ich qiymat yoki qayta baholash modeli	MHXSda aktiv qiymati va kapital hajmini real qiymatga yaqinlashtirish imkoni
Amortizatsiya	Normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi	Korxona tomonidan mustaqil belgilanadi	MHXSda buxgalteriya siyosatining moslashuvchanligi yuqori
Eskirish (Impairment)	Kam rivojlangan	IAS 36 standarti asosida majburiy tahlil qilinadi	MHXSda aktivlarning ortiqcha baholanish xavfi past

Xulosa va Takliflar

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, BHMS va MHXS da asosiy vositalarni hisobga olish yondashuvlari prinsipial jihatdan farq qiladi. BHMS ko‘proq soliq va normativ hisobotlash ehtiyojlariga, MHXS esa iqtisodiy mohiyat va potensial investorlar uchun qaror qabul qilishda foydali bo‘ladigan ma’lumotlarni taqdim etishga qaratilgan.



Ushbu farqlar korxonalarga quyidagi ta'sirlarni ko'rsatadi:

1. MHXSga o'tish korxona balansidagi aktivlar hajmini va kapitalining tarkibini sezilarli darajada o'zgartirishi mumkin.
2. Moliyaviy ko'rsatkichlar (aktivlar rentabelligi, aktivlar aylanishi koeffitsientlari) MHXS hisobi asosida boshqacha bo'lishi mumkin, bu esa korxonalarning moliyaviy holatini solishtirma tahlil qilishni qiyinlashtirishi mumkin.
3. MHXS korxonaga aktivlarni boshqarish siyosati bo'yicha ko'proq erkinlik va mas'uliyatni topshiradi.

O'zbekiston korxonalarini MHXSga muvaffaqiyatli o'tishlari uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- Asosiy vositalarning to'liq inventarizatsiyasini o'tkazish va ularni MHXS mezonlari asosida qayta baholash.
- Buxgalteriya xodimlarini xalqaro standartlar bo'yicha malakasini oshirish.
- Korxona ichki hujjatlarida (buxgalteriya siyosati) asosiy vositalarni tan olish, baholash va amortizatsiyalashning yangi mezonlarini mustahkamlash.
- Eskirishni (impairment) aniqlash va baholash bo'yicha metodologiyani ishlab chiqish.

MHXSga o'tish nafaqat hisob siyosatini o'zgartirish, balki korxona moliyaviy madaniyatini va boshqaruv yondashuvini tubdan yangilashni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. 2016 yil 13 aprel. <https://lex.uz/docs/2931253>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 2020 yil 24 fevral, PQ-4611.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-fevraldagi 107-son qarori. 5-BHMS "Asosiy vositalar".
4. Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (16-son BXHS) "Asosiy vositalar". <https://lex.uz/docs/6312360>
5. Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (15-sonli MHXS) "Xaqqoniy qiymatni baholash". <https://lex.uz/docs/6312360>
6. International Accounting Standard (IAS) 16 Property, Plant and Equipment. IASB, 2003 (with subsequent amendments).
7. International Accounting Standard (IAS) 36 Impairment of Assets. IASB.
8. Kunduzova, K. I., Qudbiyev, N. T., & Asatullayeva, N. Y. Q. (2022). Iqtisodiyotning modernizatsiyalash sharoitida asosiy vositalar hisobinitakomilashtirish masalalari. Scientific progress, 3(3), 837-846.
9. Ibrohim, S. (2023, January). Asosiy vositalar" (bhxs 16) standartni amaliyotga joriy etish masalalari. In Proceedings of International Educators Conference.



ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

**О'QUV MASHG'ULOT GURUHIDA BADMINTON SPORT TURIGA
O'QUVCHI YOSHLARNI SARALASH VA YO'NALTIRISH.**

Ismoilova Fotima Ismoil qizi

Sharof Rashidov nomidagi SamDU doktoranti

Elektron pochta: i-fotima@samdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quv mashg'ulot guruhida badminton sport turiga o'quvchi yoshlarni saralash va yo'naltirish, guruhdagi o'quvchilarning minimal va maksimal soni, mashg'ulotga qabul qilishning maksimal yoshlari ko'rsatib o'tilgan. Qolaversa, o'quv mashg'ulot guruhining yillik davrlari, yil davomida o'tiladigan yuklamalarning tahminiy soatlari, o'tiladigan yuklamalarning tayyorgarlik turlariga sarf qilinishlari tizimli yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: o'quv mashg'ulot, o'quv dastur, sport mashqi, yillik reja, tayyorgarlik turlari, jismoniy qobiliyat, yuklama.

Аннотация: В данной статье приведены квалификация и ориентация обучающейся молодежи на занятия бадминтоном в учебно-тренировочной группе, минимальное и максимальное количество учащихся в группе, максимальный возраст приема на занятия. Кроме того, систематически освещаются годовые периоды учебно-тренировочной группы, примерные часы нагрузок, проходимых в течение года, затраты нагрузок на подготовительные виды занятий.

Ключевые слова: тренировочная деятельность, учебная программа, спортивные упражнения, годовой план, виды подготовки, физические возможности, нагрузка.

Abstract. This article shows the selection and orientation of the student youth in the sport of badminton in the training group, the minimum and maximum number of students in the group, the maximum age of admission to the training. In addition, systematic coverage of the annual periods of the training group, the estimated hours of loads passed throughout the year, the expenditure on the preparatory types of loadings.

Key words: training, training program, Sports Training, annual plan, types of preparations, physical abilities, loading.

Dolzarblik. Olimpiya o'yinlari dasturidan joy olgan badminton sporti ham rivojlanib tobora takomillashuvga ehtiyoj sezmoqda. Ayniqsa, sport maktablarining badminton bo'limlarida shug'ullanuvchi yoshlarning soni oshib bormoqda. O'quv mashg'ulot guruhida badminton sport turiga o'quvchi yoshlarni saralash va yo'naltirish ishlarini to'g'ri tashkil qilish asosiy maqsadlardan sanaladi. Sport maktablarining bosh vazifasi yuqori malakali sportchilarga zaxira tayyorlashdan iborat, buning uchun murabbiy o'qituvchilardan ushbu sport turiga saralashda va mashg'ulot jarayonlarini tashkil qilishda yillik istiqbolli rejalarni ishlab chiqish va




samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan sanaladi. Sportchilarni saralash va yo'naltirishda ularning jismoniy imkoniyatlarini nomoyon etaoladigan o'tilgan mashg'ulot yuklamalaridan foydalangan holda guruhdan-guruhga o'tkazish normativlarini ishlab chiqish va iqtidorli sportchilarni saralab olish ushbu sport turining nufuzini oshiradi.

Natijalar va muhokama. Badminton sport turiga o'quvchi yoshlarni saralash va yo'naltirishda yosh badmintonchilarni jismoniy tayyorgarligini aniqlash yuzasidan maxsus dastur ishlab chiqilib shu dastur asosida amalga oshiriladi. Dastur badmintonchilarni sport mashg'ulotlarida olingan amaliy va nazariy bilim ko'nikmalarini aniqlashga mo'ljallangan bo'lishi kerak.

Kuzatish va tahlillar shuni ko'rsatadiki, badmintonda sportchilarni uzoq muddatli sport natijalariga erishish uchun o'quvchi yoshlarni saralash va yo'naltirishni tog'ri tashkil qilish eng asosiy vazifalardan sanaladi. O'quv mashg'ulot guruhini tashkil qilishdan oldin albatta boshlang'ich tayyorlov guruhiga o'quvchilarni saralab olish muhimdir boshlang'ich tayyorlov guruhi ikki yilga mo'ljallangan bo'lib bu guruhni tashkil qilishni maqsadi sportchilarni badminton bo'yicha aniq madsadga qaratilgan mashg'ulot jarayonini tashkil qilish hamda sportchilarni kichik va katta o'smirlar sport razryadiga ega bo'lish va o'quv mashg'ulot guruhini shakllantirishga qaratilgandir. Undan oldin esa albatta sog'lomlashtirish guruhini tashkil qilish muhim sanaladi, bu guruh sog'lomlashtirishga qaratilgan bo'lib, aniq maqsadga mo'ljallangan yoki bitta sport turiga ixtisoslashgan mashg'ulotlar tashkil qilinmaydi. O'quv mashg'ulot guruhida esa aynan bitta sport turiga yani badmintonga yoki boshqa sport turlariga ixtisoslashgan aniq maqsadga qaratilgan reja asosida mashg'ulot jarayonlari tashkil qilinadi.

Ko'p yillik ta'lim olgan sportchilarning maqsadi jismoniy sifat va funksional imkoniyatlari rivojlanishining optimal dinamikasini saqlab qolish va yuksak yutuqlar, yoshi uchun jismoniy qobiliyatlarning o'ziga xos tuzilmasini shakllantirishdir. Sport maktablari yillik kalendar (taqvim) rejaga asosan ish olib boradi. Unda dam olish vaqti belgilangan tartibda kunduzgi yoki kunduzgi sport bilan shug'ullanadigan yoki sport lagerlarini tashkil etgan, mashg'ulot yig'inlarini o'tkazgan holatda tashkil qilinadi. Bunday hollarda haftalik yuklama hajmi oshirilishi mumkin. Ushbu o'sish o'quv dasturining asosiy haftalik qiymatlarining 50% dan oshmasligi kerak. Bizga ma'lumki sport mashqini davrlash 3 bosqichda amalga oshiriladi tayyorlov davri 6 oy, musobaqa davri 5 oy, o'tish davri 1 oy bu jarayon manashunday tahminiy ko'rinishga ega, mashg'ulot jarayoni manashunday bir yilga taqsimlanib amalga oshiriladi. Yuqorida aytilganidek dam olish vaqti aynan sportchilarni o'tish davriga tog'ri keladi dam olishlar aktiv va passiv turlarga bo'linadi. Faol dam olish ya'ni aktiv dam olish sportdan yiroqlashmagan holatda boshqa sport turlari bilan dam olish vaqtida shug'ullanib turish, passiv dam olish esa umuman dam olish vaqtida sport bilan shug'ullanmaslik tushuniladi.

Dam olish vaqtlarida o'quv dasturining haftalik yuklamalar qiymatlarini taqsimlanishi (foiz hisobida).



Murabbiylar o'z sportchilarini o'tish davrida mashg'ulot jarayonidan yiroqlashib ketmasligi uchun haftaning 3 kunini faol dam olishga 3 kunini esa passiv dam olishga sarflashga undaydi bu esa to'g'ri tanlov ekanligini bildiradi.

Haftalik o'quv mashg'uloti maksimal va o'qitishning davr va vazifalariga qarab belgilanadi. Tayyorgarlik bosqichidan boshlab ushbu usullar bo'yicha taqdim etiladigan o'quv mashg'ulotining umumiy yillik miqdori 25% dan kam bo'lmagan miqdorda qisqartirilishi mumkin.

O'quv mashg'ulotlariga qarab (o'tish, tayyorgarlik, raqobatbardoshlik) uchinchi yil o'quv guruhlarini boshlash uchun haftalik o'quv mashg'uloti ushbu guruh uchun belgilangan umumiy yillik reja doirasida kamayishi mumkin.

Shunday qilib, dam olish kunlari va dam olish lagerlarida, mashg'ulot lagerlarida mashg'ulot jarayoni amalga oshiriladi va har bir guruhning yillik rejasi to'liq bajariladi.

Badminton eng boy va texnik jihatdan mushkil sport turi hisoblanadi. Badminton bilan shug'ullanish insonni tanasida kuch-quvvat, tezlikni, sabr-toqatni oshiradi, bo'g'inlarda harakatlanishni yaxshilaydi, keng ko'lamli vosita ko'nikmalarini egallashga yordam beradi, iroda fazilat xususiyatlarini oshiradi. Badminton sportining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, sport mashg'ulotining quyidagi xususiyatlari aniqlanadi:

- sport mashg'ulotlari guruhlarini ishga tushirish, shuningdek o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish (turli yo'nalishdagi mashqlarni bajarish hajmlari va intensivligi jihatidan) rivojlanishning yoshlik xususiyatlariga muvofiq amalga oshiriladi;

- sport mashg'ulotlari o'tkaziladigan sharoit va mashg'ulotlarga, shuningdek, sport musobaqalarini o'tkazish shartlariga qarab, badminton sportida mashq qilish sport bilan shug'ullanadigan shaxslarning sog'lig'ini saqlash uchun zarur bo'lgan xavfsizlik choralarini qo'llash asosida amalga oshiriladi.

Guruh mashg'ulotlari; shaxsiy darslar; turli darajadagi musobaqalarda ishtirok etish; nazariy tadqiqotlar (suhbatlar, ma'ruzalar, filmlarni ko'rish va tahlil qilish, kino va video yozuvlar, tanlovlarni ko'rish); sport zali, mashg'ulot yig'inlari mashg'ulotlari; tibbiy reabilitatsiya tadbirlari; madaniy tadbirlar, tanlovlarda va shoularda ishtirok etish. Yoshi katta guruhlardagi sportchilar musoboqani hakamlilik amaliyotiga qo'shilishlari va mashg'ulotning muayyan qismlarini murabbiy



yordamchisi sifatida olib borishlari mumkin. Sport maktabining vazifalari tayyorgarlik bosqichidan farq qiladi. Kelgusi guruhga o'tish murabbiylar kengashining qaroriga asosan xizmatning davomiyligi, umumiy jismoniy, maxsus jismoniy va sport-texnikaviy tayyorgarlik uchun standart ko'rsatkichlarning bajarilishi asosida amalga oshiriladi. Guruhlar badminton o'ynash qobiliyatini ko'rsatgan, kamida bir yil zaruriy tayyorgarlikdan o'tgan va umumiy jismoniy, maxsus jismoniy va texnik-taktik mashg'ulot uchun qabul qilish standartlarini bajargan sog'lom va amalda sog'lom sportchilar tomonidan tanlov asosida tashkil etiladi. Bosqichning davomiyligi 4 yil. Keyingi o'quv yiliga o'tish talabalari jismoniy va jismoniy tarbiya uchun nazorat va tajriba standartlarini bajarish sharti bilan, umumiy jismoniy tayyorgarlik (UJT), maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT), texnik taktik tayyorgarlik (TTT) jarayonlari mashg'ulot davomida o'tilib boriladi.

Sport bilan shug'ullanish bosqichlarining davomiyligi minimal shaxslar yoshi sport mashg'ulotlari va minimal bosqichga o'tish uchun badminton bo'yicha sport mashg'ulot bosqichlarida guruhdagi shaxslar soni quyidagicha bo'ladi.

O'quv mashg'ulot guruhida badminton sport mashg'ulotiga qabul qilishning minimal yoshlari hamda o'quvchilar soni (1)

T/r	O’qitish yili	O’quv guruhlari bilan o’quv-mashq ishlari rejimi (haftadagi akademik soatlar)	O’quv guruhlarining to’ldirilishi (minimal)*				Jismoniy va texnik tayyorgarlik bo’yicha talablar
			sport turlari guruhlarii**				
			I	II	III	IV***	
O’QUV MASHG’ULOT GURUHI BOSQICHI							
1.	Birinchi o’qitish yili	12	8	10	10	2 – 5	Nazorat sinovlari talablarini bajarish
2.	Ikkinchi o’qitish yili	14	8	10	10	2 – 4	Nazorat sinovlari talablarini bajarish
3.	Uchinchi o’qitish yili	18	8	8	8	2 – 4	Nazorat sinovlari talablarini bajarish
4.	Uch yildan ko’p o’qitish yili	20	6	8	6	2 – 4	Nazorat sinovlari talablarini bajarish

Yuqorida ko'rsatilgan o'quv mashg'ulot guruhiga sportchilarni qabul qilish shartlari, o'quvchilarning minimal va maksimal soni, mashg'ulotga qabul qilishning maksimal yoshlari ko'rsatib o'tilgan. Sportchilarni guruhdan-guruhga o'tkazish talablarini bajaraolgan sportchilargina guruhdan-guruhga o'tishiga ruxsat etiladi. Bunda murabbiylar mashg'ulot yuklamalarida bajarib o'tilgan texnik-taktik usullardan foydalangan holda normativlar ishlab chiqib sportchilarni bajargan natijasiga qarab guruhdan-guruhga o'tkazadilar. Birinchi jadvalda (1) keltirilgan guruhlariga yil davomida mashg'ulot yuklamalari quyidagi tartibda o'tkaziladi.



O'quv mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchilarni shug'ullanish davri bo'yicha yil davomida beriladigan yuklamalar soati (2)

T/r	Guruhlar	Shug'ullanish davri	Sport razryadi	Haftada (soat)	Yil davomida beriladigan yuklama (soat)
1	O'quv mashg'ulot guruhi	Birinchi yil	III	12	624
		Ikkinchi yil	II	14	728
		Uchinchi yil	I	18	936
		Uchinchi yildan ko'p	undan yuqori	20	1040

Yuqorida keltirilgan jadvalda badminton mashg'ulotlarini tashkil qilishda o'quv mashg'ulot guruhining yillik davrlari ko'rsatib o'tilgan qolaversa ularning sport toifasi, yil davomida o'tiladigan yuklamalar soatlari berib o'tilgan. Yuqoridagi soatlar sharoitdan kelib chiqib ozgina farq bilan o'zgarishi mumkin. Mashg'ulot davomiyligi minutda va soatda o'lchanadi mashg'ulot yuklamasining soatlari sportchilarga beriladigan yuklamalar tayyorgarlik turlariga sarf qilinadi, tayyorgarlik turlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- nazariy tayyorgarlik
- umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik
- texnik taktik tayyorgarlik
- psixalogik tayyorgarlik
- sinov va 2-yilga o'tkazish
- tiklanish tadbirlari
- hakamlik amaliyoti

Yil davomida beriladigan yuklamalar yuqoridagi tayyorgarlik turlariga sarf qilinadi. O'quv mashg'ulot guruhi badmintonchilari shug'ullanish davriga qarab mashg'ulot yuklamalari murabbiylar tomonidan amalga oshiriladi.

Xulosa. O'quv mashg'ulot guruhida badminton sport turiga o'quvchilarni saralash va yo'naltirishlar quyidagi xulosalarga kelishga asos bo'ldi. Badminton mashg'ulotlarini tashkil qilishda sport maktablaridagi guruhlariga sportchilarni saralash va yo'naltirishni to'g'ri tashkil qilish natijalarni yuksaltirishini ta'minlashga xizmat qiladi. Sog'lomlashtirish, boshlang'ich tayyorlov, o'quv mashg'ulot guruhlarining faoliyatini qaytadan ko'zdan kechirish maqsadga muvofiqdir. Ularning yillik rejalari qaytadan ko'rib chiqilib istiqbolli rejalarni tuzish yoki yuqori malakali mutaxassislarning fikr va mulohazalari bilan hamjihatlikda mashg'ulot rejalarni ishlab chiqish ushbu sport turining samaradorligini oshiradi. Keyingi o'rinlarda badminton sport turiga o'quvchilarni saralash va seleksiya ishlarini reja asosida tashkil qilish, umum ta'lim maktablarida ushbu sport turini ommalashtirish ishlarini yo'lga qo'yish iqtidorli sportchilarni izlab topish bosh maqsadlardan biriga aylantirilishi kerak. Badminton murabbiylarining ommaviy internet tarmog'idan foydalanib bizning muhitga mos yangi mashg'ulot usullaridan foydalanib mashg'ulot jarayonini qiziqarli tashkil qilish va natijaga erishish uchun ijobiy harakat qilishi kerak bo'ladi. Hafta davomida beriladigan yuklamalar qatoriga



boshqa sport turlarining elementlaridan foydalangan holda badminton uchun kerak bo'ladigan jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan o'yinlardan foydalanib mashg'ulot jarayonlarini tashkil qilish sportchilarda qiziqishni uyg'otadi bu bilan esa ularning kerakli jismoniy sifatlarini rivojlantirishga erishiladi.

Adabiyotlar:

1. Badminton U.Z.Salimov, B.U.Badalova, M.M.Nizamov, A.X.Zaxidov. – O'quv qo'llanma. Toshkent 2018.
2. B.H. Agzamov, F.F.Nadjimov. Ta'lim muassasalarida sportning badminton turi bo'yicha to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish yuzasidan o'quv dasturi va metodik tavsiyalar T. 2017.
3. T.S. Usmonxo'jayev va boshq. Bolalar sporti mashg'ulotlari nazariyasi va uslubiyoti. Darslik. – Toshkent, 2006-yil.
4. A.A.Pulatov, O.M.Savatyugin, Sh.Sh.Isroilov. Badminton nazariyasi va uslubiyati. Darslik. T.:2017



INNOVATION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA GURUHLARDA ISHLASH USULLARI ORQALI BOSHLANG'ICH SINIF TABIIY FANLARINI SAMARALI O'QITISH

Yulchiyeva Zulfiya Baxodir qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf Tabiiy fan darslarini samarali tashkil etish, o'qitish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati, o'quvchilarni guruhlariga to'g'ri taqsimlash va darsda metodlarni mazmunga mos tanlash zarurati yoritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar, o'qitish metodlari, guruhli ishlash, o'simliklar xilma-xilligi, kreativ fikrlash.

EFFECTIVE TEACHING OF ELEMENTARY SCHOOL NATURAL SCIENCES THROUGH INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES AND METHODS OF WORKING IN GROUPS

Annotation. This article covers the importance of effective organization of elementary class natural science classes, the use of innovative pedagogical technologies in the teaching process, the correct distribution of students in groups and the need to choose methods appropriate to the content in the lesson.

Keywords: innovative technologies, teaching methods, group work, plant diversity, creative thinking.

ЭФФЕКТИВНОЕ ПРЕПОДАВАНИЕ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ С ПОМОЩЬЮ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ И МЕТОДОВ РАБОТЫ В ГРУППАХ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы эффективной организации уроков естествознания в начальных классах, значение применения инновационных педагогических технологий в процессе обучения, группировка учителей и совершенствование методов обучения.

Ключевые слова: инновационные технологии, методы обучения, групповая работа, разнообразие растений, креативное мышление.

**“Biz uchinchi renessans poydevorini yaratishda ziyolilarimizga katta
ishonch bilan qaraymiz”**

SH.Mirziyoyev

O'qitish jarayoni nihoyatda murakkabdir. O'qitishning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u o'quvchilarni chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlarga o'rgatsin. Ta'lim jarayonida o'quvchida mustaqil bilim olish ehtiyoji shakllanib borishi, o'rganiladigan materiallar hajmining kattaligi, ko'rib chiqiladigan jarayonlarning o'zgaruvchanligi, hozirgi zamon boshlang'ich sinf tabiiy fanni o'rgatishda eng yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish



hozirgi kunning talabidir. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning asosiy mohiyati ta'lim jarayonida o'quvchilarni qiziqitirib o'qitish va bilimlarini to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Buning uchun ustoz tabiiy fan darslarida o'qitish metodlarini mavzuga mos holda to'g'ri tanlash o'ta muhim sanaladi

Tanlangan o'qitish usuli o'tiladigan mavzuning mazmuniga mos bo'lishi, metodlardan foydalanish samaradorligining birinchi va muhim shartidir. Odatda, dars jarayonida yagona bitta metodni qo'llash ko'p hollarda samara bermaydi. Buning uchun o'qituvchi darsga tayyorlanishda o'quvchilarning bilish imkoniyatlari, ular amalga oshiradigan faoliyatning murakkablik darajasi, nazariy bilimlar hajmi, sinf o'quvchilari darajasi, o'quvchilarning mustaqil ishlarni bajara olish qobiliyati, vaqt omili va tabiiy fan kabinetida zarur bilim manbalarining bor yo'qligini hisobga olishi kerak bo'ladi.

Boshlang'ich sinf Tabiiy fanni o'qitishda o'qituvchi, avvalo, o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini oshirishi, mantiqiy fikrlashi, darslikda berilgan mavzularga kreativ fikrlay olishi, dars jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishi ta'lim samaradorligini oshishiga yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalarni unumli va to'g'ri tanlash orqali quyidagi natijalarga erishadi:

- O'quvchilarni dars mavzusiga qiziqitira olish;
- Dars jarayoniga hamma o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash;
- O'quvchilar guruhida mo'tadil do'stona muhit yaratish;
- O'quvchilarni faollashtirish uchun dars jarayonida qo'llaniladigan metodlarni to'g'ri tanlash va savollarni aniq tuzish katta samara beradi.

O'quvchilarni guruhlariga qanday taqsimlash mumkin? Guruhlarda mashqni rejalashtirib sinfni 4 yoki 6 guruhga taqsimlash maqsadga muvofiqdir. Har guruhda 5-6 ishtirokchi bo'lsin. Guruhlarning ko'pligi ish natijalarini topshirish vaqtini cho'zib yuboradi, guruhda o'quvchilar sonining ko'pligi guruh ishida faol ishtirok etish imkoniyatini cheklaydi.

O'quvchilarni guruhlariga taqsimlash rejasini oldindan tuziladi. Masalan, 3-sinf Tabiiy fanlar darsining "Ob-havo, yog'ingarchilik turlari" mavzusini o'rgatish jarayonida sinf o'quvchilarini 4 ta guruhga ajratiladi. Tabiiy fan darsida o'quvchilarni guruhlariga ajratish uchun **"To'rt unsur"** metodidan foydalanish samarali hisoblanadi. O'qituvchi oldindan quyidagi belgilardan iborat kartochkalarni tayyorlab qo'yadi:

Quyosh



Qor

Yomg'ir



Tosh



Dars boshida ushbu kartochkalar tasodifiy tarzda o'quvchilarga tarqatiladi. **Bir xil belgini olgan o'quvchilar bir guruhni tashkil etadi.** Natijada sinf 4 ta kichik guruhga bo'linadi.

Har bir guruh o'z belgisi mazmuniga mos ravishda amaliy vazifa bajaradi:

Quyosh guruhi – “Yorug'lik manbalari”

- Sun'iy va tabiiy yorug'lik manbalarini ajratish

Yomg'ir guruhi – “Suv aylanishi”

- Suvning bug'lanishi, kondensatsiyasi va yog'in tushish jarayonini rasmda ko'rsatish

Qor guruhi – “Havo harakati”

- Qorning qanday hosil bo'lishini sodda tilda tushuntirish

Tosh guruhi – “Tog' jinslari”

- Tog' jinslarining qattiq, yumshoq, yirik va mayda turlarini taqqoslash

Ushbu metod boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, ijodiy va mantiqiy fikrlashga o'rgatish, guruhda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va darsni qiziqarli hamda samarali qilishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu metod innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan birgalikda qo'llanilganda ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, “To'rt unsur” metodi boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida bilim berish bilan birga o'quvchilarning mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv, muloqot qilish va og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida o'quvchilarni faol ishtirok etishga jalb qilish, ularni tabiat va atrof-muhitga qiziqtirish hamda o'rganilayotgan mavzularni hayotiy misollar bilan bog'lashning samarali yo'llari yoritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev, Sh. (2023). “Biz uchinchi renessans poydevorini yaratishda ziyolilarimizga katta ishonch bilan qaraymiz.” – O'zbekiston Respublikasi rasmiy nutqlari.
2. Abdullaeva, M. A. (2020). *Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiiy fanlarga qiziqtirish metodikasi*. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
3. Tabiiy fanlar bo'yicha 3-sinf darsligi. (2023). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi.



O'SPIRIN FUTBOLCHILARDA JAMOAVIY O'ZIGA ISHONCH OMILLARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Abdiholiqov Beknurjon Alisher o'g'li

Qarshi davlat universiteti

Sport faoliyati kafedrası o'qituvchisi

Email: beknurnasaf94@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'spirin futbolchilarda jamoaviy o'ziga ishonch omillarining psixologik xususiyatlari tadqiq etilgan. Jamoaviy o'ziga ishonch bu g'alabaga eltuvchi eng muhim ichki omillardan biri ekanligi psixologik tadqiqotlarda ilmiy-amaliy jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek jamoaviy ishda ishtirok etadigan sportchilardagi ko'nikmalar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Sport jamoalari uchun ijtimoiy va psixologik xizmatlar ko'rsatish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: o'spirin, futbolchi, jamoaviy o'ziga ishonch, psixologik xususiyat, ko'nikmalar, nazariyalar, ijtimoiy va psixologik xizmatlar, ishtiyoqning pasayishi, raqobatbardoshlik, idrok va reaksiya tezligi.

Kirish. Yosh sportchi uchun o'z kuchiga ishonish - bu g'alabaga eltuvchi eng muhim ichki omillardan biridir. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'ziga ishonch insonning o'zini baholashi, muvaffaqiyatga ishonishi, maqsad sari qat'iyat bilan intilishi kabi fazilatlarni shakllantiradi. O'ziga ishonchning yetishmasligi esa sportchi faoliyatida stress, ishtiyoqning pasayishi va raqobatbardoshlikning susayishiga olib keladi. Bugungi kunda sport psixologiyasi yo'nalishida yosh sportchilarning psixologik tayyorgarligini kuchaytirish, ayniqsa o'ziga ishonchni rivojlantirish masalasi dolzarb sanaladi.

Sport jamoalari sportchilar uchun ham foydali, ham qiyin bo'lgan o'ziga xos madaniyatga ega. Yuqori saviyada ishlash uchun bosim, mashg'ulotlar va raqobat talablari, shaxsiy va professional hayotini muvozanatlash zarurati - bularning barchasi sportchining ruhiy salomatligiga ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli, sport tashkilotlari o'z sportchilarining sog'ligini qo'llab-quvvatlash uchun ijtimoiy-psixologik xizmatlar ko'rsatishlari juda muhimdir.

Adabiyotlar tahlili. Yosh futbolchilarda jamoaga ishonch omillari o'ziga ishonch va o'ziga hurmat kabi psixologik jihatlarni o'z ichiga oladi, ular hissiy nazorat va umidsizlikka dosh berish qobiliyati bilan chambarchas bog'liq. Motivatsiya, qaror qabul qilish qobiliyati, qat'iyatlilik va matonat ham muhimdir. Jamoaga ishonch ruhiy tayyorgarlik, jamoaning birdamligi va o'yinchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sir kabi psixologik xususiyatlarga ta'sir qiladi.[1. 88]

A.V. Rodionovning (1984) fikriga ko'ra, futbolchining aqliy faoliyatining tuzilishi quyidagicha ko'rinishi mumkin: o'yin davomida futbolchi ma'lum miqdordagi o'yin vaziyatlariga duch keladi. Oddiy o'yin vaziyatlarida asosiy rol



axborotni idrok etish va o'z vaqtida javob berish o'ynaydi. Murakkab o'yin muammolarini yechish sportchining ko'plab mumkin bo'lgan variantlarni baholashiga asoslangan bo'lib, bu asl yechimni topishga olib keladi. Bu yerda idrok va reaksiya tezligi yordamchi rol o'ynaydi va operatsion faoliyatning samaradorligi asosan murakkab intellektual jarayonlar bilan belgilanadi [2. 89].

Natijalar va ularning tahlili. Jamoaviy ishlash ko'nikmalarining sportdagi roli beqiyosdir. Musobaqalar va o'yinlar ko'pincha jamoa sifatida muvaffaqiyatga erishishni talab qiladi. Yaxshi o'zaro aloqalar, hamkorlik va strategik rejalashtirish sportchilarning yuqori natijalar ko'rsatishiga yordam beradi. Jamoaviy ishda ishtirok etadigan sportchilar bir-birining kuchli tomonlarini aniqlab, bir-birini to'ldirishga harakat qilishadi. Bunda sportchilarning quyidagi ko'nikmalari alohida ahamiyatga ega: [3. 23]

1. Kommunikatsiya;
2. Sportchilarda samarali muloqot ko'nikmalari jamoaviy ishning asosi hisoblanadi. To'g'ri va aniq muloqot o'yin davomida vaziyatni tushunishga va strategiyalarni tezda amalga oshirishga yordam beradi. Yaxshi kommunikatsiya sportchilarning o'zaro tushunishini va jamoaviy motivatsiyasini oshiradi.
3. Ishonch va o'zaro hurmat;
4. Jamoaviy ishda ishonch muhim omil hisoblanadi. Har bir sportchi o'z jamoa a'zolarining malakalariga va imkoniyatlariga ishonishi kerak. Ishonch va hurmat jamoadagi psixologik iqlimni yaxshilaydi va sportchilarning o'zaro yordam ko'rsatishiga sabab bo'ladi.
5. Liderlik va rollarni taqsimlash;
6. Jamoada har bir sportchi o'zining aniq rolini bilishi va unga to'liq rioya qilishi kerak. Liderlar jamoani boshqarish va motivatsiya qilishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, har bir sportchi ham jamoada o'ziga xos ishtirokchi sifatida muhim bo'lishi kerak. Rollarni aniq taqsimlash va ularning bajarilishini ta'minlash jamoaviy ishning samarali bo'lishiga olib keladi.
7. Muammolarni hal qilish;
8. Jamoaviy ishda muammolar yuzaga kelishi tabiiydir. Sportchilar muammolarga duch kelganda, ularga tez va samarali yechimlar topishlari kerak. Muammolarni birgalikda hal qilish jamoaning birdamligini va kuchini oshiradi. Jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish Jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantirish sportchilarga yanada yuqori darajada muvaffaqiyat qozonishga yordam beradi.

Quyida sport jamoalari uchun ijtimoiy va psixologik xizmatlar ko'rsatish bo'yicha misollar keltirilgan:[4. 527]

1. Maslahat xizmatlari: Sport tashkilotlari sportchilarga stress, tashvish va boshqa ruhiy salomatlik muammolarini boshqarishda yordam berish uchun maslahat xizmatlarini ko'rsatishi mumkin. Bu individual maslahat, guruh terapiyasi va qo'llab-quvvatlash guruhlarini o'z ichiga olishi mumkin.
2. Aqliy ko'nikmalarni o'rgatish: Sportchilar diqqatni jamlash va o'ziga ishonchni yaxshilash strategiyalarini o'rgatadigan aqliy qobiliyatlarni o'rgatish



dasturlaridan foydalanishlari mumkin. Ushbu dasturlar, shuningdek, sportchilarga raqobat bosimi bilan kurashish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi [5. 12].

3. Jamoa tuzish faoliyati: Sport tashkilotlari jamoa a'zolari o'rtasida muloqot, ishonch va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradigan jamoa tuzish faoliyatini tashkil qilishi mumkin. Bu ruhiy salomatlik va farovonlikni qo'llab-quvvatlaydigan ijobiy jamoa madaniyatini yaratishga yordam beradi.

Annotatsiya: Maqolada rus tilini o'qitishda talabalarning faolligini oshirish, talabalarning o'z bilimlarini nazorat qilish va uni ob'ektiv baholash qobiliyatini oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim va o'qitish, zamonaviy texnologiyalar, tadqiqot, klaster, munozara, davra suhbat.

Abstract: The article presents methods for using new pedagogical technologies in teaching Russian language to increase students' activity, the ability of students to control their knowledge and objectively evaluate it.

Key words: education and training, modern technologies, research, cluster, discussion, round table.

В современную эпоху система образования становится всё более сложной. Из-за происходящих быстрых изменений у преподавателей возникают трудности в организации своей деятельности.

Также методы, связанные с педагогической деятельностью, требуют изменений, творческих новшеств. Всё это формирует новые подходы в работе педагога, так как одной из основных составляющих деятельности преподавателя является качество образования. Поэтому возникает необходимость применять новые, научно обоснованные методы и технологии.

Невозможно представить совершенствование образовательного процесса без преподавателя. Личность педагога является не только объектом педагогики, но и её организатором. Непрерывное совершенствование образовательного процесса во многом зависит от содержания воспитания и методики преподавания.



Следовательно, одной из задач преподавателя является повышение активности студентов. Для этого можно использовать современные технологии, различные методы, направленные на развитие самостоятельного мышления у обучающихся. На уроках русского языка возможно применять следующие методы:

1. Создание благоприятных условий для активного участия студентов в учебном процессе;
2. Организация обмена мнениями (дискуссия) между студентами;
3. Демонстрация знаний студентов на основе полученной информации;
4. Предоставление каждому студенту возможности творчески раскрывать содержание учебного материала.

Кроме того, в обучении можно использовать метод «Каждый учит каждого». Этот метод позволяет глубже изучить тему. Он способствует активному участию студентов в учебном процессе, увеличивает степень усвоения материала и укрепляет память.

Порядок проведения:

1. Каждому студенту раздаются задания, написанные на основе фактов, связанных с темой урока.
2. В течение одной минуты студенты записывают информацию по теме. Преподаватель наблюдает, насколько правильно студенты понимают задание.
3. Студентам предлагается обсудить собранную информацию между собой. Упражнение продолжается до тех пор, пока каждый студент не выскажет своё мнение.
4. Задание строится таким образом, чтобы студенты узнавали новую информацию друг от друга.

Современные инновационные технологии имеют большое значение в процессе обучения русскому языку. Их развитие способствует появлению новых подходов в изучении языка. Инновационные методы делают уроки русского языка более интересными, содержательными и яркими. Например, для развития творческих способностей студентов на уроках можно применять следующие перспективные методы:

1. Кластеры, (когда учащиеся самостоятельно изучают материал);
2. Составление таблиц, ведение двойного дневника;
3. Чтение с остановками, совместное исследование;
4. Дискуссия, круглый стол;
5. Технология решения творческих задач;
6. Метод «Поиск ошибок», различные виды лекций;
7. Обучение с помощью аудиовизуальных технических средств;
8. Тесты, проектные методы и другие.

Поставленные задания помогают студентам самостоятельно изучать материал, развивают их активность и повышают эффективность учебного процесса.



Кроме того, такие качества преподавателя, как требовательность, справедливость, честность, доброжелательность и внимательность, способствуют лучшему усвоению предмета студентами.

В настоящее время объективная проверка и оценивание знаний обучающихся считаются одним из важных факторов, влияющих на качество образования с психологической и педагогической точек зрения. Педагог обязан знать принципы, методы и механизмы объективной оценки знаний студентов, уметь разрабатывать стандартизированные тесты, эффективно применять различные формы контроля. Такие навыки важны не только на уроках русского языка, но и при преподавании других предметов.

В заключение следует отметить, что преподаватель русского языка должен формировать у студентов современные педагогические способности, развивать творческое мышление, создавать новый образ педагога будущего. Это играет большую роль в повышении качества образования.

Современные педагогические подходы в обучении русскому языку (6 направлений)

1. Использование современных педагогических технологий
2. Обучение на основе интерактивных методов
3. Применение цифровых и мультимедийных технологий
4. Психолого-педагогические подходы
5. Современные системы оценивания знаний
6. Инновационные и креативные подходы в обучение

Использованная литература

1. Тургунбоева К., Ортикова М. Основы педагогических инноваций. Учебное пособие. – Ташкент: «Фан ва технология», 2021.
2. Орипов К.К. «Вы наставник», памятка для начинающих и молодых педагогов и воспитателей. – Ташкент: «Ўзбекистан», 2019.
3. Turakulova Feruza Aminovna. Qualified practice and media education. Global Interdisciplinary Research Journal (GIRJ), Vol. 10, Issue 12, December 2022, pp. 1693–1698.
4. Юлдашева Д., Ахмедова Н. Современные педагогические технологии и интерактивные методы. – Ташкент: «Инновация зийо», 2020.
5. Зиёдова М. Инновационные подходы в обучении русскому языку. – Ташкент: «Нашр», 2022.
6. Шамсутдинова Р. Методика использования цифровых технологий в образовательном процессе. – Ташкент: ТГПУ, 2021.
7. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – Москва: Педагогика, 2018.



МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ЕКОЛОГИК О'ЙНЛАР ОРҚАЛИ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЙОТГА ОИД КО'НИКМАЛАРНИ РИВОЈЛАНТИРИШ

Karimova Nargiza Mamatkadirovna-

Samarqand davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Axtamova Madina Olimjonovna-

Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik o'yinlar orqali yashil iqtisodiyotga oid ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik, psixologik va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida ekologik o'yinlarning bolalarda chiqindilarni ajratish, suv va energiyani tejash, qayta ishlash va tabiatni muhofaza qilishga doir amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishdagi roli o'rganildi. Maqolada yashil iqtisodiyot tamoyillarini bolalarga o'yin orqali singdirishning samarali mexanizmlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ekologik o'yin, yashil iqtisodiyot, ekologik ong, barqaror rivojlanish, chiqindilarni ajratish, energiyani tejash, suvni tejash, qayta ishlash.

Globalashuv jarayonida insoniyat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri – bu barqaror rivojlanish tamoyillarini amaliy hayotga joriy etish va yosh avlodni ekologik ongli tarzda tarbiyalashdir. Dunyo bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, barqaror taraqqiyot faqat iqtisodiy omillarga emas, balki aholining ekologik madaniyati va iste'mol odatlariga ham to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir. Shu sababli, o'sib kelayotgan avlodning ekologik fikrlashi va tabiiy resurslarga nisbatan mas'uliyatli munosabatini shakllantirish maktabgacha yoshdan boshlanishi zarur bo'lgan jarayon sifatida e'tirof etilmoqda.. O'zbekiston Respublikasida oxirgi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida ekologik tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. “Ilk qadam” davlat o'quv dasturida tabiatshunoslik yo'nalishida barqaror rivojlanish g'oyalarini tatbiq etish, bolalarda amaliy ekologik ko'nikmalarni shakllantirish vazifalari belgilab berilgan. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, MTTlarda ekologik o'yinlardan maqsadli foydalanish tizimlashtirilmagan, metodik qo'llanmalar yetarli emas, tajribaga asoslangan ishlar esa kam uchraydi. Shuning uchun ekologik o'yinlar yordamida yashil iqtisodiyot kompetensiyalarini shakllantirishning samarali mexanizmlarini aniqlash bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida qaralmoqda.

Yashil iqtisodiyot tamoyillarini (resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash, energiya tejamkorlik) bolalarga to'g'ridan-to'g'ri nazariya tarzida tushuntirish qiyin. Ammo ekologik o'yinlar orqali biz bu murakkab tushunchalarni bolalarning yosh xususiyatlariga mos holda sodda, tushunarli va esda qolarli shaklda yetkaza olamiz. Masalan, “Chiqindini to'g'ri joyga tashla”, “Qayta ishlash fabrikasi”, “Energiyani tejash qahramoni”, “Tabiatni qutqaruvchi superqahramon”



kabi o'yinlar nafaqat qiziqarli, balki tarbiyaviy jihatdan samarali bo'lib, bolalarda ekologik mas'uliyatning ilk ko'rinishlarini shakllantiradi. Yashil iqtisodiyot — bu tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llash va ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan iqtisodiy modeldir. Ushbu modelning jamiyatdagi ahamiyati shundaki, u kelajak avlod uchun ekologik toza, xavfsiz va barqaror turmush sharoitini yaratadi. Ekologik kompetensiyalarning shakllanishida muhim jihat — bolalarga tabiatdagi sabab-oqibat munosabatlarini sodda misollar asosida tushuntirishdir. Masalan, suv berilmagan o'simlikning so'lishi, ifloslangan havoning nafas olishga qiyinlik tug'dirishi, axlat tashlangan joyning yomon hidlanishi kabi holatlar bola tomonidan tez idrok qilinadi va ekologik xulq-atvorning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bola “nega?”, “qanday?”, “nimaga?” kabi savollarga javob topishga intiladi, bu jarayon esa uning mantiqiy fikrlashi va ekologik savodxonligini rivojlantiradi. O'yin faoliyati maktabgacha yosh davrida bolaning asosiy rivojlanish vositasi bo'lgani uchun ekologik mazmundagi o'yinlar orqali bola tabiatni bevosita his qiladi, tabiat hodisalarining mazmunini chuqurroq anglaydi va ekologik madaniyatning dastlabki elementlarini o'zlashtiradi. Ekologik o'yinlar bola faoliyatiga tabiiy tarzda singib ketgan holda ularning kuzatuvchanligini, tafakkurini, tasavvurini, muloqotga kirishish qobiliyatini va ijodkorligini rivojlantiradi.

MTTlarda ekologik o'yinlar bir necha yo'nalishda amalga oshiriladi. Birinchi yo'nalishga rolli o'yinlar kiradi. Bu o'yinlarda bolalar o'simlik, qush, hayvon, daraxt yoki tabiat qo'riqchisi roliga kirib, tabiat mavjudotlarining ehtiyojlarini tushunishga harakat qiladilar. Bunday o'yinlar bolalarning emotsional sezgirligini rivojlantiradi, ularni tabiatga nisbatan empatiya uyg'otadi va tabiatga zarar yetkazmaslikning mohiyatini oson anglashga yordam beradi. Masalan, “Men gulman”, “Biz qushlar oilasimiz”, “O'rmon qo'riqchilari” kabi o'yinlar bolalarda tabiatga mehr hissini kuchaytiradi. Ikkinchi yo'nalishga harakatli va didaktik o'yinlar kiradi. Harakatli ekologik o'yinlarda bolalar hayvonlar yoki qushlarning harakatlarini taqlid qilish orqali ularning hayot tarzi va tabiiy xususiyatlari bilan tanishadilar. Didaktik ekologik o'yinlarda esa bolalar tabiat hodisalari va tirik mavjudotlar haqida bilimlarini mustahkamlashadi. “Toza va iflos joylarni top”, “Qaysi hayvon qayerda yashaydi?”, “Tirik va jonsiz tabiat”, “O'simliklarni parvarish qilamiz” kabi o'yinlar ekologik tasavvurlarni kengaytiradi, mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi va bolalarni kuzatishga o'rgatadi. Uchinchi yo'nalishda ijodiy ekologik o'yinlar amalga oshiriladi. Bu o'yinlar bolaning tasavvurini, san'atga bo'lgan qiziqishini rivojlantiradi va tabiat go'zalligini qadrlashga o'rgatadi. Masalan, tabiat manzaralarini tasvirlash, barglardan kompozitsiyalar yaratish, hayvonlar yoki qushlarning hayotiga bag'ishlangan kichik sahnachalar qo'yish, qog'oz va tabiiy materiallardan maketlar yasash ekologik mazmundagi ijodiy o'yinlarga kiradi. Ushbu o'yinlar bolada tabiatning xilma-xilligini ko'rish va estetik baholash ko'nikmalarini shakllantiradi.

“Chiqindining qaysi uyiga boradi?” o'yini jarayonida bolalar qog'oz, plastik, shisha va organik chiqindilarni alohida savatlarga joylashtirib, amaliy ajratishni o'rganadi. Bu usul bolalarda “qayta ishlash” tushunchasining dastlabki shaklini hosil



qiladi. Bolalar esa “To‘g‘ri – noto‘g‘ri” belgisi bilan baho berishadi. Bu o‘yin energiyani tejashning amaliy mohiyatini bolalarga sodda tilda tushuntiradi. “Suv tomchisi sayohati” o‘yinida bolalar suvning tabiatdagi aylanishi, uning inson hayotidagi ahamiyati va suvni tejash zarurligini bilib oladi. UNESCOning 2023 yildagi hisobotiga ko‘ra, dunyo bo‘yicha har uch nafar bolaning bittasi suv ta‘minoti muammosiga duch keladi [9]. Shunday sharoitda suvni tejash ko‘nikmasining erta shakllanishi global muammo yechimiga hissa qo‘shadi. MTTda “Qayta ishlash fabrikasi” o‘yini o‘tkazilishi bolalarning ijodiy fikrlashini ham rivojlantiradi. Masalan: plastik butilkadan qalamdon yasash, qog‘oz qoldiqlaridan kollaj, karton qutilardan konstruktorlar. O‘yinlar yordamida bolalarda chiqindilarni ajratish, suv va energiyani tejash, qayta ishlash va tabiatni muhofaza qilish kabi amaliy ko‘nikmalar shakllanadi. Shu bilan birga, ekologik o‘yinlar bolalarda ijodkorlik, kuzatuvchanlik, mas‘uliyat va hamkorlik ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Amaliy mashg‘ulotlar shuni ko‘rsatdiki, muntazam ekologik o‘yinlarni joriy qilish bolalarning ekologik xulq-atvorini sezilarli darajada oshiradi va ularni barqaror rivojlanish tamoyillariga tayyorlaydi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ekologik o‘yinlar orqali yashil iqtisodiyotga oid ko‘nikmalarni shakllantirish bolalarda ekologik ong, mas‘uliyat va amaliy ekologik odatlarni rivojlantirishning eng samarali metodlaridan biridir. O‘yin orqali bolalarda chiqindilarni ajratish, qayta ishlash, suv va energiyani tejash kabi ko‘nikmalar tabiiy, qiziqarli va barqaror shaklda rivojlanadi. Ushbu jarayon kelajakda ekologik madaniyatli va yashil iqtisodiyot tamoyillariga rioya qiluvchi jamiyat shakllanishiga asos yaratadi. MTTlarda ekologik o‘yinlarni ta‘lim jarayonining ajralmas qismi sifatida qo‘llash, ota-onalar va jamoatchilikni jalb qilish hamda ekologik infratuzilmani rivojlantirish bolalarda yashil iqtisodiyotga oid ko‘nikmalarni shakllantirishning eng samarali yo‘li hisoblanadi. Shu tariqa, bolalik davrida shakllangan ekologik odatlar kelajakda barqaror va mas‘uliyatli jamiyat qurilishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNEP. Green Economy Report. 2022.
2. OECD. Sustainable Development Strategies. 2021.
3. UNESCO. Early Childhood Education for Sustainable Development. 2023.
4. Elkonin D. B. Bolalar o‘yini psixologiyasi. Moskva, 2018.



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O'YIN FAOLIYATI ORQALI EKOLOGIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISH

Karimova Nargiza Mamatkadirovna-

Samarqand davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Mushtariy Rustamova Norboyevna-

Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin faoliyati orqali ekologik tarbiyani shakllantirishning psixologik, pedagogik va metodik asoslari chuqur tahlil qilinadi. Global ekologik muammolarning kuchayib borishi sharoitida ekologik ong va ekologik madaniyatni erta yoshdan rivojlantirish dolzarb vazifalardan biriga aylangan. O'yin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati bo'lgani sababli ekologik tushunchalarni aynan o'yin orqali berish bolalarning bilish jarayonlariga, emotsional rivojlanishiga va ijtimoiy xulq-atvoriga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Ekologik tarbiya; o'yin faoliyati; maktabgacha yosh; ekologik ong; ekologik kompetensiya; rolli o'yinlar; didaktik o'yinlar; ekologik madaniyat.

Global ekologik inqiroz, iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, suv va havo resurslarining ifloslanishi kabi omillar insoniyatni ekologik mas'uliyatni erta yoshdan shakllantirish zarurligiga undamoqda. Zamonaviy ta'lim amaliyotida ekologik tarbiya shaxsning barqaror rivojlanish tamoyillariga mos ravishda shakllanishi, tabiatni anglash, qadrlash va muhofaza qilishga yo'naltirilgan kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Maktabgacha yosh esa ekologik ong shakllanishining psixologik tomondan eng qulay davri bo'lib, bolalarning hissiy, idrokiy va ijtimoiy rivojlanishi aynan shu bosqichda jadal kechadi. Shu sababli ekologik tarbiyani aynan o'yin faoliyati orqali tashkil etish bolalarning tabiiy rivojlanish ritmiga mos keladi va ekologik tushunchalarning chuqurroq o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Ekologik tarbiyaning maqsadi bolalarda tabiatni anglash, uning qonuniyatlarini tushunish, ekologik xavf va oqibatlarini sezish, tabiatga ehtiyotkor munosabatda bo'lish kabi fazilatlarini shakllantirishdan iboratdir. Maktabgacha yoshdagi bola abstrakt tushunchalarni qabul qilishda qiynalishi mumkin, ammo o'yin jarayonida u ekologik tushunchalarni bevosita amaliy harakatlar, rolli modellashtirish, tajriba, kuzatish va tabiiy jarayonlarni taqlid qilish orqali o'zlashtiradi. Masalan, "Gullarni parvarish qilamiz", "Hayvonlar oilasi", "O'rmon qo'riqchilari", "Toza hudud – sog'lom hayot" kabi o'yinlar orqali bola tirik mavjudotlarning ehtiyojlarini tushunadi, sabab–oqibat bog'lanishlarini ko'ra boshlaydi va tabiatga nisbatan empatiyasi kuchayadi.

Ekologik ta'lim sifatini oshirish uchun maktabgacha ta'lim tizimida o'yin metodlaridan tizimli foydalanish muhimdir. Bugungi kunda didaktik ekologik o'yinlar, rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, muammoli o'yinlar va harakatli ekologik



o'yinlar maktabgacha ta'lim amaliyotida keng qo'llanilmoqda. Har bir o'yin turi ekologik kompetensiyalarning turli komponentlarini — kognitiv, emotsional, ijtimoiy va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. O'yinlar yordamida shakllangan ekologik ko'nikmalar bolalarda tabiatga nisbatan ongli xulq-atvorning barqaror shakllanishiga olib keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tarbiyani o'yin faoliyati orqali shakllantirish masalasi ko'plab xalqaro va mahalliy tadqiqotlarda o'z ifodasini topgan. Leontyev, Elkonin, Vygotskiy, Piaget kabi klassik psixologlarning yondashuvlariga ko'ra, bola rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi — uning faoliyatidir, ayniqsa o'yin faoliyati. O'yin bolaning bilish jarayonlarini faollashtiradi, uning emotsional darajasiga ta'sir etadi, ijtimoiy muloqot tajribasini kengaytiradi va atrof-muhitni tushunishning boshlang'ich mexanizmini yaratadi. Ekologik tarbiya kontekstida bu jarayon yanada ahamiyat kasb etadi, chunki ekologik bilimlar nafaqat kognitiv, balki emotsional, ijtimoiy va amaliy komponentlarni ham qamrab oladi.

O'yin jarayonida bola o'simlik va hayvonlarning hayotiy ehtiyojlarini chuqurroq anglaydi, ekologik jarayonlar orasidagi bog'liqlikni ko'ra boshlaydi, tabiatga nisbatan ijobiy emotsional munosabat shakllanadi. Masalan, “Gullarni parvarish qilamiz” o'yini natijasida bolalarning 78 foizida o'simliklarga nisbatan ehtiyotkor munosabat kuchaygani kuzatildi. “O'rmon qo'riqchilari” o'yinida bolalarning 67 foizida ekologik muammolarni sezish va ularga javob topish qobiliyati ortgani aniqlandi.

Didaktik ekologik o'yinlar bolalarning kognitiv rivojlanishiga kuchli ta'sir etdi. “Tirik va jonsiz tabiat”, “Hayvonlar yashash muhiti”, “Toza va iflos joy” kabi o'yinlar orqali bolalarning mantiqiy fikrlashi, taqqoslash, umumlashtirish va sabab–oqibat munosabatlarini anglash qobiliyati oshdi. Bolalar o'yin jarayonida ekologik jarayonlarni kuzatish, tahlil qilish, xulosalash kabi kognitiv operatsiyalarni bajarishga intilishdi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tarbiyani shakllantirish bugungi kunda global ekologik muammolar chuqurlashib borayotgan bir davrda ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda. Tabiatga nisbatan ongli, mas'uliyatli va ehtiyotkor munosabatni shakllantirish insonning barqaror rivojlanish tamoyillariga mos yashash madaniyatini rivojlantirish uchun zarurdir. Tadqiqot davomida o'yin faoliyatining ekologik tarbiyadagi o'rni va uning samaradorlik mexanizmlari keng qamrovli tahlil qilindi. Olingan natijalar o'yin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ongni shakllantirishning eng tabiiy, ta'sirchan va psixologik jihatdan maqbul metod ekanini ko'rsatadi.

Tadqiqot shuni tasdiqladiki, o'yin faoliyati bolalarning ekologik bilimlarni o'zlashtirish jarayoniga o'ta sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Rolli o'yinlarda bola o'simlik, hayvon yoki tabiat qo'riqchisi rolini bajarish orqali tirik mavjudotlarning ehtiyojlarini chuqurroq his etadi, ekologik empatiya shakllanadi va tabiatning murakkab hayotiy jarayonlariga nisbatan sezgirlik ortadi. Didaktik ekologik o'yinlarda esa bola tabiatdagi hodisa va jarayonlarni ilmiy jihatdan anglaydi, ular orasidagi sabab–oqibat munosabatlarini tushuna boshlaydi, taqqoslash, umumlashtirish va tahlil qilish kabi intellektual faoliyat turlari rivojlanadi. Harakatli



ekologik o'yinlar bolaning tabiat ritmi va dinamikasini tanaviy idrok etishiga yordam beradi, bu esa ekologik jarayonlarni chuqurroq anglashning sensorimotor asosini yaratadi.

O'yin faoliyatidan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ong, ekologik madaniyat va ekologik xulq-atvorni shakllantirishning eng tabiiy va samarali metodidir. Tadqiqot shuni tasdiqladiki, o'yin orqali o'rgatilgan bilimlar bolada barqaror ekologik odatlar — o'simliklarga g'amxo'rlik, suvni tejash, tabiatni asrash kabi amaliy ko'nikmalarni mustahkam shakllantiradi. Ekologik o'yinlar orqali shakllangan ekologik kompetensiyalar kelgusida ekologik mas'uliyatli shaxsni tarbiyalash uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

O'yin faoliyatiga tayanadigan ekologik tarbiya maktabgacha ta'lim tizimida barqaror rivojlanish ta'limining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim. Tadqiqot natijalari o'yin metodologiyasining ekologik tarbiya samaradorligini sezilarli darajada oshirishini isbotladi. Kelajak avlodni ekologik sog'lom dunyoqarash bilan tarbiyalash bugungi jamiyatning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib, o'yin faoliyatiga asoslangan ekologik ta'lim bu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradigan eng qulay va samarali yondashuvlardan biridir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yo'ldosheva, D. (2021). *Maktabgacha ta'limda ekologik tarbiya texnologiyalari*. Toshkent: O'qituvchi.
2. Jalolova, D. (2019). *Ekologik ta'lim va tarbiya metodlari*. Toshkent: Muharrir.
3. Rasulova, M. (2020). *Interfaol metodlar va ekologik kompetensiyalar*. Toshkent: Ilm Ziyo.
4. Hedefalk, M., Almqvist, J., & Östman, L. (2015). *Education for Sustainable Development in Early Childhood Education: A Review of Research*. Journal of Early Childhood Education Research, 23(4), 25–42.
5. Evans, G. W. (2019). *Child Development and the Natural Environment*. Annual Review of Psychology, 70, 435–460.
6. Abdullayeva, Q. & Jo'rayeva, N. (2020). *Maktabgacha ta'lim pedagogikasi*. Toshkent: Fan.



BOLALARDA TABIATGA MEHR VA EKOLOGIK ONGNI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARING SAMARADORLIGI

Karimova Nargiza Mamatkadirovna-

Samarqand davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Rejabova Aziza Nizom qizi-

Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ong, tabiatga mehr, ekologik madaniyat va atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishda interfaol metodlarning o'rni tahlil qilinadi. Kuzatish, tajriba, rolli o'yinlar, aqliy hujum, ekologik loyihalar va sayohat metodlarining samaradorligi ilmiy asoslanadi. Metodlarning bolalar idroki, nutqi, fikrlashi va emotsional rivojlanishiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim pedagoglari uchun amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: ekologik ong, interfaol metod, maktabgacha ta'lim, tabiatga mehr, ekologik tarbiya, kuzatish, amaliy faoliyat, ekologik madaniyat, o'yin texnologiyalari.

Zamonaviy jamiyat rivojlanishining bosh mezonlaridan biri ekologik madaniyatning shakllanganligidir. Global ekologik muammolarning kuchayishi, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi insoniyatni ekologik ongli bo'lishga majbur qilmoqda. Ekologik ongning eng muhim shakllanish bosqichi maktabgacha yosh davriga to'g'ri keladi. Aynan shu davrda bola atrof-muhitni idrok etishni boshlaydi, tabiat hodisalariga mehr, hayvonot va o'simliklarga nisbatan ijobiy his-tuyg'ular shakllanadi. Shu bois, maktabgacha ta'lim tizimida ekologik tarbiya alohida ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim berishda an'anaviy usullar ba'zan yetarli bo'lmaydi, chunki bola faol ishtirokni talab qiladi. Ta'lim olishning eng qulay ko'rinishi – bu interfaol metodlar orqali o'yin, kuzatish, tajriba va bevosita tabiat bilan muloqot jarayonida amalga oshiriladigan o'rganishdir. Interfaol metodlar bolalarning fikrlash, idrok qilish, tahlil qilish jarayonlarini faollashtiradi, ularni mustaqil kuzatuvchi, savol beruvchi va xulosa chiqaruvchi shaxs sifatida shakllantiradi. Bolaning ekologik ongini shakllantirish – bu uning tabiatni his qilishi, tushunishi, qadrlashi va muhofaza qilishga intilishidan iborat murakkab jarayondir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur ko'proq obrazli, hissiy idrok esa kuchli bo'ladi. Shu sababli ularga ekologik tushunchalarni bevosita tajriba, ko'rgazmali vositalar, o'yin, kuzatish va suhbatlar orqali yetkazish eng samarali hisoblanadi.

Bola ekologik bilimlarni tayyor shaklda emas, balki o'z kuzatuvi, amaliy faoliyati, savollari va xulosalari orqali o'zlashtiradi. Shu bois interfaol metodlar ekologik tarbiyaning psixologik va pedagogik asoslariga to'la mos keladi. Interfaol metodlar yordamida bola tabiatni yanada jonli, tabiiy va qiziqarli tarzda idrok qiladi.



Masalan, kuzatish metodidan foydalanilganda bola o‘simlikning o‘sinh jarayonini kundalik ravishda ko‘radi, ob-havodagi o‘zgarishlarni sezadi, hayvonlarning harakatini kuzatadi. Bu jarayonlar bolada sabab-oqibat munosabatlarini tushunishga, tabiatning tirik tizim ekanini anglashga yordam beradi. Rolli o‘yinlar ekologik tarbiyada bolalarning emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bola “o‘rmon qo‘riqchisi”, “qush”, “o‘simlik” yoki “tabiatni muhofaza qiluvchi” roliga ishtirok etganda, tabiat mavjudotlarining ehtiyojlarini his qiladi, ularning hayotiga nisbatan empatiya shakllanadi. Bu o‘yinlar bolaga tabiatga zarar yetkazmaslikning sabablarini tushuntiribgina qolmay, balki uni amaliy ravishda his qilishga yordam beradi. O‘yinda bola o‘zini hayvon yoki o‘simlik o‘rniga qo‘yganida ekologik ongning eng chuqur qatlamlari shakllanadi. Muammoli vaziyatlar va aqliy hujum metodlari bolalarning mustaqil fikrlashiga, savol berishiga va mulohaza yuritishiga yordam beradi. Tarbiyachi tomonidan yaratilgan sodda ekologik vaziyatlar — masalan, “Daraxtlar kesilsa, nima bo‘ladi?”, “Axlatni yerga tashlashning oqibati qanday?”, “Suvni tejash nima uchun kerak?” kabi savollar — bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Bola muammoni hal qilish jarayonida tabiatni asrashga doir xulosalarni o‘zi topadi, bu esa ekologik bilimlarning ichki motivatsiya asosida shakllanishiga olib keladi. Sayohat va ekskursiyalar interfaol metodlarning eng samarali shakllaridan biri bo‘lib, bolalarni tabiat bilan bevosita tanishtirish imkonini beradi. Maktabgacha yoshdagi bola uchun tabiatni jonli holda ko‘rish, qushlarning ovozi eshitish, barglarni ushlab ko‘rish, daraxtlar turini ajratish kabi amaliy faoliyatlar ekologik ongni shakllantiruvchi asosiy omillardir. Tabiat qo‘ynida amalga oshiriladigan har bir mashg‘ulot bolada tabiatga nisbatan ijobiy emotsiyalar va qiziqish uyg‘otadi. Bunday faoliyatlar natijasida bola tabiatni nafaqat biladi, balki uni sevadi, qadrlaydi va asrashga intiladi. Ko‘rgazmali vositalar, multfilmlar, videoroliklar va rasmlar ekologik tarbiyada bolalarning tasavvurini boyitadi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali tabiat hodisalarining animatsiyasini ko‘rsatish, hayvon va o‘simliklar haqidagi bilimlarni kengaytirish va mavzuni vizual idrok qilish imkoniyati yaratiladi. Ko‘rgazmali ta’lim bolalarning e’tiborini jalb qiladi, mavzuni tezroq tushunishga yordam beradi va ekologik tushunchalarning mustahkam o‘rnashishini ta’minlaydi.

Interfaol metodlarning samaradorligi, avvalo, ta’lim jarayonida o‘quvchi yoki tarbiyalanuvchining faol ishtirokiga erishish bilan belgilanadi. Bunday metodlarda bola yoki o‘quvchi passiv tinglovchi bo‘lmay, balki o‘rganish jarayonining to‘laqonli sub’ektiga aylanadi. Interfaol yondashuvlar mavjud bilimlarni tayyor shaklda berishdan ko‘ra, ularni mustaqil ravishda topish, izlash, kuzatish, tajribadan o‘tkazish va xulosa chiqarishga yo‘naltiradi. Shu bois interfaol metodlar nafaqat bilimni chuqurroq o‘zlashtirishga, balki shaxsiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, ijodkorlik va kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarning samaradorligi ularning ta’lim jarayonida o‘quvchi faoliyatiga tayanishida namoyon bo‘ladi. Metodlar o‘quvchini o‘rganayotgan mavzuni amaliy faoliyat orqali anglashga undaydi. Masalan, kuzatish, tajriba o‘tkazish, rolli o‘yin, muhokama va aqliy hujum kabi usullar orqali o‘quvchi mavzuning mohiyatini chuqurroq tushunadi, bilimlar esa mustahkam o‘rnashadi. Bu jarayonda o‘quvchi



bevosita ishtirokchi bo'lgani uchun uning qiziqishi, ichki motivatsiyasi va ta'limga bo'lgan ijobiy munosabati ortadi. Interfaol metodlarni qo'llash nafaqat bilim olish, balki uni hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmasini shakllantiradi. Interfaol metodlar muloqot va hamkorlikka asoslanadi. O'quvchilar kichik guruhlarda ishlaganda, ular bir-birining fikrini hurmat qilish, muhokama qilish, kelishuvga erishish, birgalikda qaror qabul qilish kabi ijtimoiy ko'nikmalarni o'zlashtiradilar. Bunday metodlar o'quv jarayonini jonlantiradi, har bir ishtirokchini faol qatnashishga undaydi, shuningdek, ta'limga bo'lgan mas'uliyatni oshiradi. Guruh bo'lib ishlash jarayonida bola o'z fikrini erkin ifodalashni, uni asoslashni va zarur holatda o'zgartirishni o'rganadi.

Interfaol metodlarning samaradorligi ta'lim jarayonida o'quvchilar o'rtasida yuqori darajadagi emotsional faollikni ta'minlashi bilan ham belgilanadi. O'quv jarayoni qiziqarli va jonli bo'lganda, bolalarda ishtirok etish istagi kuchayadi, ta'lim jarayoni majburiyat emas, balki zavqli faoliyat sifatida qabul qilina boshlaydi. Bolaning amaliy faoliyatda bevosita ishtiroki, tabiatni kuzatishi, tajriba o'tkazishi, o'yinlar orqali tabiatdagi jarayonlarni his qilishi ekologik tushunchalarning ongli ravishda shakllanishiga olib keladi. Interfaol yondashuvlar orqali bola nafaqat ekologik bilimlarni egallaydi, balki tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabat, mehr, ehtiyotkorlik va qadriyat tuyg'ularini rivojlantiradi. Tajriba, kuzatish, muhokama, rolli o'yin va ekskursiyalar kabi metodlar bolalarda mustaqil fikrlash, sabab-oqibatni tushunish, kuzatuvchanlik va ijodiy yondashuvni kuchaytiradi. Natijada ekologik madaniyatning poydevori erta yoshdanoq shakllanadi va bola atrof-muhitga ongli qarashga ega bo'lgan shaxs sifatida tarbiyalanadi. Interfaol metodlarning keng qo'llanilishi ekologik tarbiyani qiziqarli, samarali va mazmunli jarayonga aylantirib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiyaning sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayeva Q., Jo'rayeva N. *Maktabgacha ta'lim pedagogikasi*. – Toshkent: Fan, 2020.
2. Zunnunov A., To'raqulov F. *Pedagogika asoslari*. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
3. Yo'ldosheva D. *Maktabgacha ta'limda ekologik tarbiya texnologiyalari*. – Toshkent, 2021.
4. Mirziyoyeva S. *Maktabgacha ta'limda innovatsion yondashuvlar*. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2020.



**OLTIN TARKIBLI RUDALARGA SIRT-FAOL MODDALARNI
TA'SIR ETTIRIB, ULARNING MUSTAHKAMLIK DARAJASINI
KAMAYTIRISH ORQALI YANCHISH JARAYONI SAMARADORLIGINI
OSHIRISH**

Toshev Oybek Elmurodovich

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti “Metallurgiya”

kafedrası dotsenti v.b.,

Saydullaev Abbos Baxtiyor o'g'li

“Metallurgiya” kafedrası 30M-25OPI guruxi 1-kurs magistranti

bek_76@bk.ru

Annotatsiya. Ushbu tezisda oltin tarkibli rudalarning mustahkamlik xususiyatlarini pasaytirishda sirt-faol moddalar (SFM)ning ta'siri, xususan Rebinder effektining mineral strukturasi ko'rsatadigan ta'siri hamda yanchish jarayoni samaradorligini oshirishdagi roli yoritilgan. Rebinder effekti ruda zarrachalari yuzasida SFM ta'siri natijasida yuza energiyasining pasayishi va kristallararo bog'lanishning susayishi orqali mustahkamlikning kamayishi bilan izohlanadi.

Kalit so'zlar: Rebinder effekti, mustahkamlik, zichlik, SFM, minerallar, texnologik jarayon, maydalash, yanchish, uskunalarning xizmat muddati, ruda.

Kirish

Oltin tarkibli rudalarni qayta ishlashda ularni dastlab maydalash va yanchish jarayonlari juda muhim bosqich hisoblanadi. Rudalarning yuqori mustahkamlik darajasi energiya sarfining ortishiga, uskunalarning tez ishdan chiqishiga va texnologik jarayonning umumiy qiymatining oshib ketishiga olib keladi. Shu bois ruda mustahkamligini sun'iy ravishda pasaytirish orqali maydalash jarayoni samaradorligini oshirish zamonaviy rivojlanish yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. SFM qo'llanilishi eng istiqbolli usullardan biri sifatida qaralmoqda.

Rebinder effekti va uning mohiyati

Rebinder effekti — bu sirt-faol moddalar qattiq materiallar yuzasida adsorbsiyalanganida ularning mustahkamligining pasayishi bilan tavsiflanadigan fizik-kimyoviy hodisa. Uning asosiy mexanizmlari quyidagilardan iborat:

1. Yuza tengligini pasaytirish.
2. Kristallararo bog'lanish energiyasini kamaytirish.
3. Mikro yoriqlar bo'ylab SFMning kirib borishi natijasida yorilishlarni kuchaytirish.
4. Mineral strukturasi adsorbsional zaiflashuvini oshiradi.

SFM ta'sirida ruda yuza energiyasi 5–30% gacha pasayishi mumkin, bu esa minerallarning sinish hadini sezilarli darajada kamaytiradi. Rebinder effekti qimmatbaho metall rudalarini, ayniqsa oltinli kvarsli rudalarni maydalashda katta rol o'ynaydi.



Tog' jinslarini yanchish jarayonini takomillashtirish bo'yicha fan va amaliyotning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri ularning xossalari va holatini boshqarishdir. Tadqiqotlarda [1-2] aniqlandiki, bunday boshqarishning samarali vositasi jismlar sirt energiyasining sorbsion kamayishiga (Rebinder effekti)ga asoslangan sirt faol moddalar (SFM)dan foydalanish mumkin. SFM sanoat, qishloq xo'jaligi, tibbiyot va boshqa ko'plab sohalarda keng qo'llaniladi.

SFM va Rebinder effektining yanchish jarayoniga ta'siri

SFM qo'shilgan ruda bilan olib borilgan yanchish tajribalari maydalanish darajasining oshishi, mayda fraksiya ulushining ko'payishi va energiya tejalishiga erishilganini ko'rsatgan. Bu jarayon quyidagi afzalliklarni ta'minlaydi:

- yanchish vaqti qisqaradi;
- mustahkamlik indeksi 10–25% gacha pasayadi;
- uskunalardagi futerovkalarni eskirishni sekinlashadi;
- minerallarning yorilish tezligi oshadi;
- mayda fraksiyalar ulushi ko'payadi;
- energiya sarfi 8–15% gacha kamayadi.
- umumiy texnologik xarajatlar kamayadi.

Bu jarayon Rebinder effekti bilan to'liq uyg'un bo'lib, unda mineral yuzasida adsorbsiyalangan SFM kristallararo bog'lanish kuchlarini zaiflashtiradi va ruda tez yoriladi.

Yanchish jarayoni samaradorligini oshirish

SFM va Rebinder effektidan foydalanish quyidagi afzalliklarni beradi:

- energiya tejalishi;
- maydalashda yuqori birxillik;
- uskunalarining xizmat muddati uzayishi;
- past xarajatli va samarali maydalash texnologiyasi.

Ushbu tezisda [5] SFM rudaning mustahkamlik xususiyatlarini eksperimental tadqiq etish natijalari to'g'risida ma'lumot keltirilgan. SFM sifatida 0,1-0,3% konsentratsiyali soapstok (paxta yog'ini rafinirlash zavodi chiqindisi) qo'llanilgan. Mustahkamlik qiymatlarini aniqlash uchun doimiy yuklanish ostida sharikli shtamp usulidan foydalanilgan. Olingan ma'lumotlar SFM kiritilishi, ruda bo'laklariga bo'shashtiruvchi ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Bundan tashqari, ruda bo'laklarining mustahkamlikdagi o'zgarishlariga SFM ta'siri natijasida yuzaga keladigan strukturaviy o'zgarishlar bilan bog'liq ekanligi aniqlangan.

Xulosa

Oltin tarkibli rudalarga SFM qo'llash va Rebinder effektidan foydalanish yanchish jarayoni samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu usul minerallarni qayta ishlashning energiya tejankor va samarali texnologiyalarini yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Texnik natija — maydalash samaradorligini, shuningdek, keyingi boyitish va gidrometallurgik qayta ishlash jarayonlarining samaradorligini oshirishdan iborat bo'lib, bu mineral xomashyoning solishtirma yuza maydonini oshirish va qimmatbaxo mineral zarrachalarini ochish hisobiga amalga oshiriladi.



Kelgusida turli SFM turlari va ularning optimal konsentratsiyalarini aniqlash bo'yicha tadqiqotlarni chuqurlashtirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абрамзон А.А. Поверхностно-активные вещества: Свойства и применение. – Л.: Химия, 1981. – 304 с.
2. Абрамзон А.А., Зайченко Л.П., Файнгольд С.И. Поверхностно- активные вещества. Синтез, анализ, свойства, применение. – Л.: Химия, 1988. – 200 с.
3. Арипов Э.А., Орел М.А., Аминов С.Н. Гидрофобные взаимодействия в бинарных растворах поверхностно-активные веществ. – Ташкент: Фан, 1980. – 140 с.
4. Латышев О.Г., Иванова Н.И., Иванова С.С., Перцов Н.В. Влияние поверхностно-активных веществ на развитие трещиноватости нагруженных горных пород // Изв. вузов. Горный журнал. 1988. – №12. – С. 4-8.
5. Toshev O.E. Foydali qazilmalarni mustahkamlik xususiyatlarini sirt-faol moddalar qo'llab oldindan kamaytirish bilan ularni portlatib maydalash samaradorligini oshirish // Monografiya. Navoiy 2023y. 123 b.



MURAKKAB TARKIBLI OLTIN RUDALARINI ULTRAMAYIN YANCHISH USULI ORQALI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASI

Ikromov Aslonbek Madaminjon o'g'li ,
Rozikov Azamat Avaz o'g'li
Navoiy davlat konchilik
texnologiyalari universiteti talaba,
Email: aslonbekikromov7@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada murakkab tarkibli oltin rudalarini qayta ishlash jarayonida ultramayin yanchish texnologiyasining o'rni yoritiladi. Oltinning sulfid, arsenid va karbonli minerallar tarkibiga chuqur singib ketgan holatlari an'anaviy maydalash jarayonlarida ochilmasligi, ultramayin yanchish yordamida esa oltinning reaksiyaga kirishish faolligi sezilarli ravishda oshishi ilmiy nuqtai nazardan asoslanadi. UFG jarayonining sianidlashga ta'siri, oltin tiklanishidagi o'zgarishlar, texnik-iqtisodiy afzalliklar va amaliy qo'llanish bo'yicha ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: oltin rudasi, ultramayin yanchish, IsaMill, sulfid minerallar, kapsulalangan oltin, sianidlash, gidrometallurgiya.

Oltin qadimdan insoniyat hayotining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Zamonaviy konlarda oltin asosan murakkab tarkibli rudalarda uchraydi. Bunday rudalarda oltin pirrit (FeS_2), arsenopirrit (FeAsS), markazit, karbonli minerallar yoki kremniyli jinslarning ichki strukturasi mikroapsulalangan holatda bo'ladi. Oltinning shunday tarzda minerallar matritsasiga singib ketishi uni oddiy maydalash texnologiyalari yordamida ochish imkoniyatini cheklaydi. Natijada sianidlash jarayonida oltin tiklanishi past bo'ladi va qo'shimcha aktivatsiya bosqichlariga ehtiyoj tug'iladi.

Ultramayin yanchish (UFG) texnologiyasi aynan shu muammoni hal qilishga qaratilgan bo'lib, ruda zarrachalarini 10–20 mikron diapazoniga qadar maydalash imkonini yaratadi. Zarrachalarning o'lchami keskin kamayganda oltin mineral matritsadan qisman yoki to'liq chiqib, erkinlashadi. Bu esa sianid eritmalari bilan o'zaro ta'sirlashish jarayonining tezlashishi va oltinning kimyoviy faolligining oshishiga imkon beradi. Amaliyotda IsaMill, HIGmill kabi yuqori energiya samaradorligiga ega aralashtiruvchi tegirmon turlari qo'llaniladi. Bunday tegirmonlar yuqori aylanish tezligi va zarrachalarning intensiv abraziv ta'siri hisobiga ruda donalarini juda mayin holatgacha parchalaydi.

Murakkab rudalardagi oltinning asosiy qismi sulfidlarning ichida lokallashgani uchun UFG jarayoni pirrit va arsenopirrit kabi minerallarning strukturaviy buzilishiga olib keladi. Ulardan ajralgan oltin yuzaga chiqadi va eritma bilan bevosita reaksiyaga kirishadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ultramayin yanchish qo'llanilganda oltin tiklanish darajasi o'rtacha 20–40% ga oshishi mumkin. Bu ayniqsa "preg-robbing" xususiyatiga ega karbonli rudalarda juda muhim, chunki yanchish natijasida organik uglevodorodlarning sorbsion faolligi kamayadi.



Texnologik jarayon samaradorligi yanchishning optimal chuqurligiga bog'liq. Odatda 12–18 mikron diapazoni eng maqbul hisoblanadi. Bu chegaradan past o'lchamlarda yanchish energiya sarfini keskin oshiradi, zarrachalar esa aglomeratsiyaga moyil bo'ladi. Haddan tashqari yirik yanchish esa oltinning to'liq ochilmasligiga olib keladi. Shu sababli jarayon rejimlarini ruda mineralogiyasi asosida aniq kalibrlash muhim sanaladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ultramayin yanchish texnologiyasi murakkab tarkibli oltin rudalarini qayta ishlashda zamonaviy va istiqbolli yo'nalish bo'lib, yaqin yillarda O'zbekiston kon-metallurgiya sanoatida uning qo'llanilish ko'lami yanada ortishi kutilmoqda.

Adabiyotlar:

1. A.R. Aripov, O.U. Fuzaylov, F.I. Sayfullayev, M.N. Qurbonov Murakkab oltin tarkibli ruda va konsentratlarning maydalanish va sianlanish qobiliyatini yaxshilash uchun mikroto'liqlik energiyadan foydalanish Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности 1 (2)
2. А.Р. Арипов, Д.Б. Холикулов, Р.К. Гусейнов, Ф.Э. Ахтамов, Г.Ф. Мамараимов Обогащение вермикулитовых руд Караузьякского месторождения республики Каракалпакистан Universum: технические науки, 78-81



MARKAZIY QIZILQUM PAST NAVLI FOSFORIT RUDALARINI QAYTA ISHLASH USULLARINI TADQIQ QILISH

Sanaqulova Sevara Oydin qizi

Navoiy davlat konchilik texnologiyalari universiteti magistranti

Asrorov Anvar Axror o'g'li

Navoiy davlat konchilik texnologiyalari universiteti dotsenti

Email: sanaqulovasevara0@gmail.com

Annotatsiya. Jahonda sanoatning rivojlanishi va aholining ko'payishi ortidan oziq-ovqat ishlab chiqarish qazib olingan fosfat xom ashyolaridan mineral o'g'itlar ishlab chiqarishga bog'liq bo'lib qoldi. Dunyo bo'yicha har yili taxminan 250 million tonna fosforit xom ashyosi qazib olinishi taxmin qilinmoqda va kelajakda bu turdagi xom ashyolarni qazib olish markazlari Shimoliy Afrika, Yaqin Sharq va Osiyo mamlakatlariga to'g'ri keladi. Fosforit xom ashyolari tarkibida kamyob yer elementlari (KYE) va uranning mavjudligi ularni qo'shimcha mahsulot sifatida ajratib olish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: past navli fosforit rudasi, kamyob yer elementlari, sulfat kislota, uran.

Dunyoda fosforit xom ashyolaridan uran va kamyob yer elementlarini ajratib olish bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mineral o'g'itlar olish uchun fosforit rudasini qayta ishlash jarayonida ushbu elementlarni ajratib olish muhim, chunki uran ham, KYE ham qimmatbaho metallar bo'lib, o'g'it tarkibida yerga berilganda yerning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uran va KYE larini xom ashyodan qo'shimcha ravishda ajratib olish, resurslarni tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish imkonini yaratadi.

Dastlabki past navli fosforit rudasini mineralogik tahlil qilish natijasida P_2O_5 va U mos ravishda 8,69% va 0,0032% ekanligi aniqlandi. 1-jadvalda past navli fosforitlarning mineralogik tarkibi keltirilgan, bu yerda murakkab frankolit mineralining ulushi eng yuqori — 56% gacha — va nafaqat P_2O_5 (70% dan ortiq), balki kamyob yer elementlari bo'lgan uran birikmalarini ham o'z ichiga oladi.

Bu muammoning yechimiga Markaziy Qizilqum ishlatilmaydigan past navli fosforitlarni qayta ishlash orqali erishish mumkin, keyinchalik ularni past konsentratsiyali sulfat kislota bilan ishlov berish orqali ishlab chiqarishda foydalanish mumkin. Bu uranni ma'lum miqdorda eritmaga ajratib olishga va uni ishlab chiqarishda ishlatishga olib keladi.

1-jadval

Markaziy Qizilqum fosforit rudalarining mineralogik tarkibi.

Mineral nomi	Kimyoviy formulasi	Miqdori %	Mineral nomi	Kimyoviy formulasi	Miqdori %
Fronkalit	$Ca_5(PO_4,CO_3)_3(F,O)$	56,0	Gips	$Ca_2SO_4 \cdot 2H_2O$	3,5



Kalsit	CaCO_3	22,5	Getit	$\text{Fe}_2\text{O}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}$	1,0
Ftorapatit, Gidroksil apatit	$\text{Ca}_4(\text{CaF})(\text{PO}_4)_3$ $\text{Ca}_4(\text{CaOH})(\text{PO}_4)_3$	4,0	Seolit	Tetreedr fragmentda SiO_4 va AlO_4	1,0 kam
Kvars	SiO_2	7,5-8,0	Organik moddalar	Oksalat	0,5 ga yaqin
Gidroslyuda va dala shpati	$\text{K}_2\text{O} \cdot \text{Al}_2\text{O}_3 \cdot 6\text{SiO}_2$ (Na, Ca, Ba)	4,0-4,5	Noyob metallar	KYE	0,03

Shunday qilib, Markaziy Qizilqum past navli fosfat rudalari tarkibidan uran va boshqa KYEni ajratib olish usuli tadqiq qilindi. Bu usulning o'ziga xosligi shundaki, past navli fosforit rudalarini qayta ishlashning dastlabki bosqichida kamyob metallarni ajratib olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Islom N. Murodov, Ilhom A. Tagayev. The central Kysylkum phosphorites' origin character and conditions of determination of rare earth elements and uranium in them. XVI International FORUM-CONTEST of students and young researchers "Topical issues of rational use of natural resources". Under the auspices of UNESCO. 17-19 June 2020. Scientific Conferens Abstracts. volume 1. SAINT-PETERSBURG 2020. c. 250-251.
2. Донияров Н.А., Тагаев И.А., Асроров А.А., Муродов И.Н. Изменчивость формы и размера франколитовых зерен и кальцита в фосфоритовых шламах кызылкумского фосфоритного комбината после кислотной обработки // Ўзбекистон кончилик хабарномаси. –Навои, 2021. -№2. –С. 64-67.



QURUVCHILIK SOHASI ISHCHILARI MAXSUS KIIYIMLARINING EKSPLUATATSION XOSSALARI

D.X.Isayeva

Dotsent

K.S.Vasiyeva

magistr

Toshkent to'qimachilik va
yengil sanoat instituti
dilya_isayeva@mail.ru

Annotatsiya Mazkur maqolada quruvchilik sohasi ishchilari maxsus kiyimlarining ekspluatatsion xossalari, ularning himoya, gigiyenik, ergonomik va funksional talablari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Zamonaviy texnik tola va materiallardan foydalanish, mexanik va iqlimiy omillar ta'siriga bardoshlilik, ishlab chiqilayotgan yangi model konstruksiyasi hamda amaliy jihatlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: maxsus kiyim, ekspluatatsion xossalar, texnik matolar, ergonomika, himoya vositasi, quruvchilik sohasi.

Qurilish sohasi — inson faoliyatining eng xavfli yo'nalishlaridan biri bo'lib, unda ishchilar turli tashqi omillarga: mexanik ta'sirlar, chang, kimyoviy moddalar, haroratning keskin o'zgarishiga duch keladilar. Ushbu omillar mehnat muhofazasini kuchaytirish va ishchilar himoyasini ta'minlash uchun maxsus kiyimlarni zamonaviy talablarga javob beradigan darajada takomillashtirish zaruratini tug'diradi. Maxsus kiyim nafaqat himoya vositasi, balki ishchining qulayligi, xavfsizligi va samarali faoliyat yuritishining muhim omilidir. Shuning uchun ekspluatatsion xossalar — chidamlilik, gigiyeniklik, issiqlik izolatsiyasi, suv va shamol o'tkazmaslik, mexanik mustahkamlik — maxsus kiyim ishlab chiqish jarayonida asosiy mezon sifatida qaraladi.

Qurilish sohasi ishchilari doimiy ravishda og'ir jismoniy yuklama, mexanik ta'sirlar, kimyoviy moddalarning ta'siri, changlanish, balandlikda ishlash, shuningdek, keskin iqlim sharoitlari bilan bog'liq xavf omillariga duch keladilar. Shu sababli quruvchilar uchun ishlab chiqiladigan maxsus kiyimlarning ekspluatatsion xossalari yuqori bo'lishi, ular mehnat xavfsizligi va samaradorligini oshirishi zarur.

Maxsus kiyimlar ishchining sog'lig'ini saqlash, jarohatlanishni oldini olish va ish unumdorligini ta'minlashda asosiy omil bo'lib, ularning konstruksiyasi, materiali va ergonomik yechimi ilmiy yondashuv asosida tanlanishi kerak [1].

Qurilish sohasi ishchilari uchun mo'ljallangan maxsus kiyimlarning ilmiy asoslari, birinchi navbatda, ishlab chiqarish maydonida uchraydigan xavfli omillarni hisobga olgan holda belgilanadi. Bunday omillar qatoriga mexanik shikastlanishlar — ishqalanish, kesilish va teshilish; atmosfera ta'siri — shamol, yomg'ir va qor;



yuqori hamda past haroratlarda, shuningdek chang, sement va boshqa kimyoviy aralashmalar kiradi. Shu bois maxsus kiyim materiallari yuqori mustahkamlikka, yirtiqchilikka bardoshlilikka, suvni qaytaruvchi xususiyatlarga, shamol o'tkazmaslikka va issiqlik izolatsiyasiga ega bo'lishi lozim. Bunda kiyimning himoya qatlamlari belgilangan fizik-mexanik standartlarga mos kelishi bilan birga, ishchiga ortiqcha yuk tushirmasligi ham muhim hisoblanadi.

Maxsus kiyimda gigiyenik xususiyatlarning ta'minlanishi ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, matoning havo o'tkazuvchanligi, issiqlik almashinuvi, namlikni tashqi muhitga chiqarish qobiliyati va allergik reaksiyalar keltirmaydigan tola tarkibi gigiyenik talablarning asosini tashkil etadi [2]. Agar bu talablar bajarilmasa, ishchi ortiqcha terlash, tana haroratining ko'tarilishi yoki sovqotish kabi noxush holatlarga duch kelishi, bu esa uning sog'lig'i va ish unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ergonomik talablar esa maxsus kiyimning funksional qulayligini belgilaydi. Kiyim harakat erkinligini cheklamasligi, yengil bo'lishi va egilish, bukilish, ko'tarilish kabi mehnat jarayonida eng ko'p uchraydigan harakatlarga mos konstruksiyada tikilishi zarur. Kiyimdagi cho'ntaklarning soni, ularning joylashuvi hamda mustahkamlovchi elementlarning mavjudligi ish jarayonining samaradorligini oshiradi.

Quruvchilar uchun mo'ljallangan maxsus kiyim materiallari mustahkamlik, gigiyenik xavfsizlik, issiqlik-havo almashinuvi, namlikka chidamlilik va elastiklik kabi mezonlar asosida baholanadi [3,4]. Aralash tarkibli matolar — 65% polyester va 35% paxta kombinatsiyasi optimal variant sanaladi, chunki polyester matoga mustahkamlik bersa, paxta gigiyenik xususiyatlarni yaxshilaydi. Sintetik texnik matolar — Oksford va Ripstop turlari esa yuqori chidamliligi, suv va shamol o'tkazmasligi bilan ajralib turadi. Membranali materiallar ichki namlikni tashqariga chiqarib, tashqi namlikni kiritmasdan ikki tomonlama himoya funksiyasini bajaradi. Tizza, tirsak va yelka sohalariga qo'llaniladigan mustahkamlovchi qatlamlar esa kiyimning xizmat muddatini uzaytirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, quruvchilar kiyimining ekspluatatsion xususiyatlari himoya, qulaylik, funksionallik va chidamlilikni o'z ichiga oladi, bu esa xavfsiz va samarali mehnat sharoitlarini ta'minlaydi. Quruvchilik sohasi ishchilari maxsus kiyimlarini ishlab chiqishda ekspluatatsion xossalari — himoya, gigiyenik, ergonomik va texnologik talablarga qat'iy rioya qilish zarur. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy texnik matolar, mustahkamlovchi elementlar va ergonomik konstruksiyalar qo'llanilishi ishchining xavfsizligi va mehnat samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, maxsus kiyimning rang yechimi va ko'rinish elementlari ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular avariya holatlarining oldini olishda katta rol o'ynaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.07.2000 yildagi № 267-sonli "Mehnatni muhofaza qilishga doir me'yoriy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va ishlab chiqish to'g'risida" qarori
2. Г.Д. Ульканбаева, Ф.У. Нигматова, М.А. Мансурова. Формирование требований к спецодежде для строителей. Проблемы текстиля № 1 2019: 56-63 с.
3. ГОСТ 11209- 2014 "Ткани для специальной одежды. Общие технические требования. Методы испытаний"
4. ГОСТ 12.4.280—2014. Система стандартов безопасности труда. Одежда специальная для защиты от общих производственных загрязнений и механических воздействий. Общие технические требования



ADRAS GAZLAMASINING TARIXIY ILDIZLARI, ISHLAB CHIQUARISH TEXNOLOGIYASI VA ZAMONAVIY MODA OLAMIDAGI O'RNI

Allayeva Yulduz Baxtiyarovna

*Toshkent to'qimachilik va
yengil sanoat instituti assistenti*

20y387ga@gmail.com

t.f.d professor M.K. Rasulova

*Toshkent to'qimachilik va
yengil sanoat institute professori*

Mastura_m@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada o'zbek xalqining milliy gazlamalaridan biri bo'lgan adras matosining kelib chiqishi, ishlab chiqarish texnologiyasi hamda zamonaviy moda olamidagi o'rni. Shuningdek, adras gazlamasining milliy madaniyatni saqlash va uni global moda makoniga olib chiqishdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: adras, milliy gazlama, abrband, ipakchilik, tanda, arqoq, kolleksiya

Milliy gazlamalar har bir xalqning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari va estetik qarashlarini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. O'zbek xalqining boy madaniy merosida adras gazlamasi alohida o'rin tutadi. Bugungi globallashuv sharoitida milliy matolarni nafaqat saqlab qolish, balki ularni zamonaviy moda bilan uyg'unlashtirish dolzarb vazifalardan biridir [1]. Shu bois, adras gazlamasini ilmiy va amaliy jihatdan chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy matolarni nafaqat saqlab qolish, balki ularni zamonaviy moda bilan uyg'unlashtirish dolzarb vazifalardan biridir. Shu bois, adras gazlamasini ilmiy va amaliy jihatdan chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega [1].

Adras gazlamasi O'zbekistonning Farg'ona vodiysi, Marg'ilon, Qo'qon, Buxoro va Samarqand shaharlarida keng rivojlangan. Tarixiy manbalarda ushbu hududlar yirik ipakchilik va to'qimachilik markazlari sifatida tilga olinadi. Adras gazlamasining asosiy xususiyati — uning aralash tolali tarkibidadir. Gazlamaning tanda iplarida ipak, arqoq iplarida esa paxta tolasi ishlatiladi. Shu sababli u yengil, mustahkam va qulay bo'lib, issiq iqlim sharoitiga mos keladi. XIX asrda adras gazlamasi nafaqat mahalliy bozorlarda, balki Buyuk Ipak yo'li orqali boshqa mamlakatlarga ham eksport qilingan va xalqaro miqyosda ham qadrlangan [2].

Adras gazlamasi ishlab chiqarish jarayoni murakkab va mehnat talab qiluvchi bo'lib, u bir necha bosqichdan iborat. Eng muhim bosqichlardan biri — abrband texnikasi hisoblanadi. Bu usulda iplar maxsus sxema asosida bog'lanib, ketma-ket bo'yaladi.



Tabiiy bo'yoqlardan foydalanish adrasning ekologik tozaligini ta'minlaydi. Ranglar o'rtasidagi silliq o'tishlar va o'ziga xos naqshlar aynan abrband usulining mahsulidir[4]. Har bir naqsh muayyan ramziy ma'noga ega bo'lib, tabiat hodisalari va hayotiy tushunchalarni ifodalaydi va adras gazlamasida geometric va o'simliksimon shakllar ustunlik qiladi. Qo'lda to'qilgan adras matolari ayniqsa yuqori badiiy qiymatga ega bo'lib, ular xalq amaliy san'atining nodir namunasi sifatida e'tirof etiladi. So'ngi yillarda adras gazlamasi zamonaviy moda sanoatida tobora muhim o'rin egallamoqda. O'zbekistonlik va xorijiy dizaynerlar milliy matolar asosida o'zlarining kiyim kolleksiyalarini yaratmoqdalar. Milliy moda haftaliklari va xalqaro ko'rgazmalarda adras asosidagi liboslar O'zbekistonning madaniy brendi sifatida namoyish etilmoqda. Bu esa adrasning global moda maydoniga chiqishiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, ekologik toza va qo'lda tayyorlangan mahsulotlarga bo'lgan talabning oshishi adras gazlamasining ahamiyatini yanada kuchaytirdi [3].

Zamonaviy moda olamida adras gazlamasining faol qo'llanilishi milliy merosning yashovchanligini va uning global madaniyat bilan uyg'unlashish imkoniyatlarini namoyon etadi. Shu bois, adrasni ilmiy o'rganish, qo'llab-quvvatlash va targ'ib etish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Sodiqova N. O'zbekiston milliy kiyimlari va gazlamalari. Toshkent: Fan, 2005.
2. Qodirov A. Ipakchilik va to'qimachilik an'analari. Samarqand: Zarafshon, 2010.
3. Rasulova D. "Milliy gazlamalarning zamonaviy dizayndagi o'rni" *San'atshunoslik masalalari*, 2019, №3. (3-rasm)



KIMYO SANOATI CHIQINDILARIDAN METALLARNI AJRATIB OLISH IMKONIYATLARI

**Muzaffarov Umubek Umarovich,
Xoliqulov Doniyor Baxtiyorovich**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Doktorant

Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali

Umurbekmuzaffarov738@gmail.com

Anotatsiya. Ushbu maqolada kimyo ishlab chiqarish sanoatining oqova suvlarini qayta ishlash va ulardan qimmatli komponentlarni ajratib olish masalalari o'rganilgan. Ishlab chiqilgan texnologiya metall ishlab chiqarishning xomashyo bazasini kengaytirish, qimmatli komponentlarni ajratib olish tannarxini kamaytirish hamda texnogen chiqindilarning to'planishini oldini olish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: metall, texnogen chiqindilar, ishlab chiqarish chiqindilari, eritmalarni neytrallashtirish, cho'ktirish.

Dunyo miqyosida texnogen chiqindilardan metallarni ajratib olishda qo'shimcha xomashyo sifatida foydalanishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Chunki ularning hajmi ortib borayotganligi sababli, ushbu chiqindilardagi qimmatbaho metallarning umumiy miqdori ko'pincha birlamchi rudalardagi metall miqdoridan oshib ketadi. Texnogen chiqindilarning yer yuzasida to'planishi va atrof-muhitga global salbiy o'zgarishlarga olib kelishi hamda hozirgi kunda tabiiy resurslardan foydalanish strategiyasini ilmiy sig'imli texnologiyalar asosida muvozanatli rivojlanish tomon o'zgartirish zarurligini anglashni talab etmoqda.

Shu munosabat bilan chiqindisiz ishlab chiqarish, ekologik xavfsiz texnologiyalarga o'tish, ekologik xavf va atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu ayniqsa kimyo sanoati korxonalari uchun dolzarbdir, chunki u boshqa ko'plab tarmoqlardan farqli ravishda atmosferaga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu sohaning o'ziga xos jihati - texnogen ifloslanishning yer yuzasida tuproqlar, o'simliklar, suvlar va atmosfera muhitida to'planishidir.

Tadqiqotning maqsadi - kimyo ishlab chiqarish sanoatining suyuq chiqindilaridan metallarni ajratib olishning samarali texnologiyasini ishlab chiqishdir.

Tadqiqot obyekti sifatida "Navoiyazot" AJ ning metall saqllovchi texnologik eritmalar ko'rinishidagi texnogen hosilalari tanlangan:

A - №014 sexning mis saqllovchi kislotali eritmaları;

B - №201 sexning tiomochevina saqllovchi oqova eritmaları (1-jadval).

1-jadval

Sifat va miqdoriy tahlil natijalari, mg/l



Namun a	Al	Ca	Cr	Cu	Fe	K	Mg	Na	Ni	Ti	Zn
A	54,6	16 5	2,73	583 0	410	80, 6	43, 9	73, 1	1,02	2,05	75, 4
B	6,61	25 7	0,09 9	7,21	0,9 7	60, 2	20, 4	17, 8	0,97 7	0,064 6	68, 1

№014 sexning mis saqllovchi kislotali eritmalarini ($\text{pH} = 1,62$) №201 sexning tiomochevina saqllovchi oqova eritmaları ($\text{pH} = 10,3$) bilan neytrallash tadqiqotlari natijalari shuni ko'rsatdiki, №201 sex chiqindilari miqdori oshgani sayin cho'kma hosil bo'lishi ham ortadi.

Tadqiqot davomida eritmadagi metall ionlarining konsentratsiyasi vaqtga bog'liqligi o'rganildi: 1 soat davomida metall konsentratsiyasi $<0,01 \text{ mg/l}$ darajasigacha kamaydi, bu esa suvdagi metallarning ruxsat etilgan maksimal konsentratsiyasidan bir tartibga pastdir. 1 soatdan ortiq vaqt oralig'ida filtrlangan eritmalar shaffof va rangsiz holatga keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muzaffarov U.U., Aripov A.R., Sayfullayev F.I., Qurbonov M.N. Kimyoviy korxonalar chiqindilaridan flotareagent olish imkoniyatlarini o'rganish / Sanoatda raqamli texnologiyalar ISSN: 3030-3214 Volume 2, № 3 2024.

2. Холикулов Д.Б., Нормуротов Р.И. Исследования по очистке сточных вод медного и цинкового про изводства озоном // Горный вестник Узбекистана. 2020. № 1 (80). С. 90–95.

3. Холикулов Д.Б., Болтаев О.Н., Самадов А.У., Абдурахмонов С. Изучение возможности извлечения никеля из отходов медного производства АО «Алмалыкский ГМК» // ADVANCED SCIENCE. Сбор ник статей V Международной научно-практической конференции. Пенза, 20 ноября 2018 г. С. 234.



TEBINBULOK KONI VERMIKULITNING TARKIBI.

**Xolmuradova Lazina Kiranovna,
Rozikov Azamat Avaz o'g'li**

Navoiy davlat konchilik va
texnologiyalar universiteti, talaba
avaz.aripov.82@bk.ru

Anotatsiya. Maqolada asosiy komponenti temir-magnetit rudalari bo'lgan Tebinbuloq konida, konning o'zi esa Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahri yaqinida joylashgan konida bog'langan mineral vermikulitni o'rganish natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: minerallar, tog' jinsi, vermikulit, kimyoviy tarkib, mineralogik tarkibi, elementar tarkibi, erishi, xlorid kislotasi, sulfat kislota, pH, zichlik.

Vermikulit minerali, asosiy jinsni hosil qiluvchi mineral sifatida dunyoning turli joylarida uchraydi, ammo hozirgi vaqtda asosiy konlar Janubiy Afrika, Xitoy, Braziliya, Zimbabve, Qo'shma Shtatlar, Qozog'iston va O'zbekistonda joylashgan bo'lib, ular turli kimyoviy-mineralogik tarkibi va fizik-texnik xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Olimlarning ixtisoslashtirilgan tadqiqotlari natijalari asosida dastlabki xomashyoning kimyoviy va fizik xossalarini hisobga oluvchi vermikulitni qayta ishlashning mutlaqo yangi texnologiyalari ishlab chiqildi.[1]

Mineral vermikulit, asosiy jins hosil qiluvchi mineral sifatida dunyoning turli qismlarida uchraydi, ammo hozirgi vaqtda 104,3 ming tonna xomashyo mavjud; vermikulit - 9,1 ming tonna, shundan kon-texnika toifasi bo'yicha: rudalar - 63,3 ming tonna, vermikulit - 6,1 ming tonna, o'rtacha tarkibda - 9,64 foiz, geologiya-iqtisodiy toifasi bo'yicha: rudalar - 41,0 ming tonna, vermikulit - 3,0 ming tonna, o'rtacha tarkibda - 7,38

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan Tebinbuloq konidan olingan vermikulit rudasi tadqiqot obyekti hisoblanadi. Tebinbuloq konidan namunalar. Navoiy davlat kon-texnologiya universitetining laboratoriyasiga olib kelingan, SHD 6 markali yonoq maydalagich va IVS-4 vibratsion zanjirida maydalangan. Namunalar 45 mkm kattalik sinfigacha maydalangan. Maydalangan materialni tasniflash Retsch AS-450 control elash mashinasida amalga oshirildi

1-jadvalda Tebinbuloq konidan olinadigan oksidlarning solishtirma massasi nazariy solishtirma massaga muvofiq bo'lgan energodispersiyali rentgen-fluorescent spektrometr tomonidan bajarilgan vermikulit kimyoviy tahlili natijalari itirilgan. Tebinbuloq konidan vermikulit namunasining kimyoviy tarkibi

1. Jadval.

Oksidlar	tarkibi, mas. %	Oksidlar	tarkibi, mas. %
SiO ₂	40,3	TiO ₂	0,5%



MgO	21,5	Cr ₂ O ₃	0,2%
Al ₂ O ₃	9,9	MnO	0,2
Fe ₃ O ₄	11,3	CaO	0,9
FeOxFe ₂ O ₃	1,2	CO ₂	0,4
K ₂ O	3,6	S	0,07
Na ₂ O	0,8	H ₂ O	8,8

Kimyoviy tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, Tebinbuloq konidagi vermikulit magniy oksidining yuqori miqdori (21,5%) bilan tavsiflanadi, bu uning magniy tuzlarini olish uchun xomashyo sifatida istiqbolliligini tasdiqlaydi. Kremnezem (40,3%) va temirning (11,3%) nisbatan yuqori miqdori biotit va annit aralashmalari mavjudligini ko'rsatishi mumkin, bu rentgenofazik tahlil natijalariga mos keladi.

Адабиётлар:

1. А.Р. Арипов, Ф.Э. Ахтамов, А.А. Саидахмедов, Б.Р. Вохидов
Разработка технологии обогащения вермикулитовых руд караузьякского месторождения. Горный журнал Казакстана. №2.2022. 33-39стр.

2. Арипов А.Р., Саидахмедов А.А., Ахтамов Ф.Э. «Вермикулит рудаларини бойитиб турли маҳсулотлар олиш имкониятлари /Обогащение вермикулитовых руд Караузьякского месторождения республики Каракалпакистан

3. А.Р. Арипов, Д.Б. Холикулов, Р.К. Гусейнов, Ф.Э. Ахтамов, Г.Ф. Мамараймов

Univerzum: технические науки, 78-81/«Ўзбекистон кончилик хабарномаси».4(87).Навоий–2021й–73б.



KIMYO SANOATI ISHLAB CHIQUARISHNING SUYUQ CHIQUINDILARIDAN METALLARNI AJRATIB OLIISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQUISH

**Muzaffarov Umubek Umarovich,
Xoliqulov Doniyor Baxtiyorovich**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Doktorant

Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali

Umurbekmuzaffarov738@gmail.com

Anotatsiya. Ushbu maqolada kimyo ishlab chiqarish sanoatining oqova suvlarini qayta ishlash va ulardan qimmatli komponentlarni ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqish o'rganilgan. Ishlab chiqilgan texnologiya metall ishlab chiqarishning xomashyo bazasini kengaytirish, qimmatli komponentlarni ajratib olish tannarxini kamaytirish hamda texnogen chiqindilarning to'planishini oldini olish imkonini beradi.



Kalit so'zlar: metall, texnogen chiqindilar, ishlab chiqarish chiqindilari, eritmalar, neytrallash, cho'ktirish.

Tadqiqotning maqsadi - kimyo ishlab chiqarish sanoatining suyuq chiqindilaridan metallarni ajratib olishning samarali texnologiyasini ishlab chiqishdir.

Tadqiqot obyekti sifatida "Navoiyazot" AJ ning metall saqllovchi texnologik eritmalar ko'rinishidagi texnogen hosilalari tanlangan:

A - №014 sexning mis saqllovchi kislotali eritmaları;

B - №201 sexning tiomochevina saqllovchi oqova eritmaları (1-jadval, 1-2-rasmlar).





1-rasm. Namunalarning sifat tahlili spektrlari: A eritma (chapda) va B eritma (o'ngda)

1-jadval

Sifat va miqdoriy tahlil natijalari, mg/l

Namun a	Al	Ca	Cr	Cu	Fe	K	Mg	Na	Ni	Ti	Zn
A	54,6	16 5	2,73	583 0	410	80, 6	43, 9	73, 1	1,02	2,05	75, 4
B	6,61	25 7	0,09 9	7,21	0,9 7	60, 2	20, 4	17, 8	0,97 7	0,064 6	68, 1

№014 sexning mis saqllovchi kislotali eritmalarini (pH = 1,62) №201 sexning tiomochevina saqllovchi oqova eritmaları (pH = 10,3) bilan neytrallash tadqiqotlari natijalari shuni ko'rsatdiki, №201 sex chiqindilari miqdori oshgani sayin cho'kma hosil bo'lishi ham ortadi (2-jadval).

2-jadval

Laboratoriya tadqiqotlari natijalari

Tajriba raqami	Eritmalar nisbati	Chiqindi hajmi, ml		pH
		A	B	
1	1÷0	200	0	1,62
2	0÷1	0	200	10,30
6	1÷0,75	200	150	3,23
A1	1÷1	200	200	3,84
A2	1÷1,5	200	300	3,97
3.2	1÷2	200	400	5,04
4	1÷1,25	200	500	5,74
3.1	1÷3	200	600	6,09
3.2	1÷3,5	200	700	6,49
8	1÷4	200	800	6,97
9	1÷4,5	200	900	6,80
10	1÷5	202	1000	6,94

Cho'kma hosil bo'lishi eritmalar hajmiga nisbatan 2,5% gacha tashkil qiladi. Cho'kmaning tarkibi, %: Cu; 10-12, Ni; 1-1,2, Fe; 1-5,3, Zn; 0,5-1,5. Olingan cho'kma kimyoviy tahlildan o'tkaziladi va uning tarkibiga qarab metallarni ajratib olish uchun an'anaviy sxema bo'yicha, "Olmaliq KMK" AJ mis eritish zavodiga yuboriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

4. Muzaffarov U.U., Aripov A.R., Sayfullayev F.I., Qurbonov M.N. Kimyoviy korxonalar chiqindilaridan flotareagent olish imkoniyatlarini o'rganish / Sanoatda raqamli texnologiyalar ISSN: 3030-3214 Volume 2, № 3 2024.

5. Холикулов Д.Б., Нормуротов Р.И. Исследования по очистке сточных вод медного и цинкового про изводства озоном // Горный вестник Узбекистана. 2020. № 1 (80). С. 90–95.

6. Холикулов Д.Б., Болтаев О.Н., Самадов А.У., Абдурахмонов С.



Изучение возможности извлечения никеля из отходов медного производства АО «Алмалыкский ГМК» // ADVANCED SCIENCE. Сборник статей V Международной научно-практической конференции. Пенза, 20 ноября 2018 г. С. 234.



SUV TASHLASH INSHOOTLARIDA KAVITATSION EROZIYA BILAN KURASHISH TADBIRLARI

Paluanov Daniyar Tanirbergenovich

Toshkent davlat texnika universiteti professori, t.f.d.

doni_pol@mail.ru

Sodiqjonov Muxammadqodir Mamasobir o'g'li

Toshkent davlat texnika universiteti magistranti

Uralbaeva Surayyo Ruslan qizi

Toshkent davlat texnika universiteti talabasi

ANNOTATSIYA. Mazkur ishda suv tashlash inshootlarida kavitatsion eroziyaning paydo bo'lish sabablari va ularning oqibatlarini masalalari ko'rib chiqilgan. Kavitatsion eroziyaning oldini olish bo'yicha amaliyotda qo'llanilgan tadbirlarning tahlili amalga oshirilgan va natijalari bo'yicha tadbirlar gidravlik, konstruktiv, texnologik, monitoring, ta'mirlash-tiklash ishlari guruhlangan.

KALIT SO'ZLAR: suv tashlash inshootlari, kavitatsion eroziya, bosim, pulsatsiya, yemirilish, oqim, suyuqlik, pufakchalar, tadbirlar, yorilish.

Kavitatsiya suyuqlikdagi bosim oqimning uzluksizligi buziladigan chegaragacha pasayganda yuzaga keladi. Kavitatsiyaning boshlanishi juda mayda bug'-gaz pufakchalarining paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi, ushbu pufakchalar kuchayishi bilan oqimda kavitatsion pulsatsiyalanuvchi kavernalar hosil qiladi. Oqayotgan jism orqasidagi uyurma izida pulsatsiyalanuvchi bosimlar oshganda yoki oqim kavitatsion pufakchalarni yuqori bosim sohasida olib ketganda, pufakchalar yopilib parchalanadi. Pufakchalar yorilganda zarbali mikrooqimlar (tezligi 100 m/s gacha), mahalliy impulsli bosimlar (1000-1500 MPa gacha), zarbalar takrorlanishining yuqori chastotasi (10^4 - 10^5 Gs) sodir bo'ladi. Agar yorilish qattiq devor yonida sodir bo'lsa, devor materiali sezilarli mexanik zarba ta'siriga uchraydi, bu esa ma'lum sharoitlarda kavitatsion eroziyaning paydo bo'lishiga olib keladi.

Suv tashlash inshootlaridan foydalanish amaliyotida inshootlarning turli elementlarining kavitatsion eroziyasi holatlari kuzatiladi. Kavitatsion eroziya beton va metall yuzalar yemirilishi va darz ketishining eng xavfli shakllaridan biri bo'lib, oqim katta tezliklar va bosimlar farqi bilan harakatlanganda yuzaga keladi.

Suv tashlash inshootlarida kavitatsiya jarayoni quyidagi hollarda eng ko'p uchraydi: geometriyaning keskin o'zgarishida (tezoqar tayanchlar, betonning yoriqlari va notekisliklari, montaj choklarining chiqib turishi); 20-25 m/s bo'lgan katta tezliklarda (suv tashlagich novlari, tezoqarlarning oxirgi uchastkalari, sifonlar, shaxtalar va bosimli suv o'tkazgichlar); bosim depressiyalarida (bo'rtiqlar ortida, oqimning uzilish sohalarida, oqimning aylanishlarida, traktning egri chiziqli uchastkalarida); bosimli suv chiqarishlarda (to'liq to'ldirilmaganda, kavitatsion tebranishlarda, gidravlik zarbalarda).



Suv tashlash inshootlarida kavitatsion eroziya sabablari quyidagi hollarda paydo bo'ladi: gidravlik (20-30 m/s dan katta bo'lgan tezliklar, turbulent oqimlar, uyurmali zonalar, noto'g'ri berilgan tezoqar profili); muhandislik-texnik (beton nuqsonlari, 1-2 mm dan katta bo'lgan notekisliklar, himoya qatlamining ko'chishi, qoplamaning yeyilishi, choklarga yaxshi ishlov berilmaganligi, konstruksiyalarning noto'g'ri ulanishi); ekspluatatsion (zatvorlarni qisman ochish rejimlari, oqimning uzilish rejimlari, yuqori bosimli suv o'tkazgichlarda kichik sarflarda ishlash).

Kavitatsion eroziya oqibatlari suv tashlash inshootlarida quyidagilarga olib kelish mumkin: betonni buzilishi; chuqurchalar, o'yiqlar, kavernalar hosil bo'lishi; armaturaning buzilishi; gidrotexnika inshootining ishlash rejimini tezlashishi; suv tashlash traktining ehtimoliy avariya.

Kavitatsion eroziyaning oldini olish bo'yicha 1-rasmida ko'rsatilgan tadbirlar ketma-ketligi asosida ishlarni amalga oshirish kutilayotgan muhandislik texnik yechim sifatida qabul qilish mumkin.



1-rasm. Kavitatsion eroziyaning oldini olish sxemasi

Gidravlik tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: tutashmalarda va nov uchlarida o'rnatilgan tirqishli aeratorlar; havoni yon tomondan kiritish; pog'onali novlar; barqaror havo qatlamini yaratish va mahalliy bosim farqlarini kamaytirish maqsadida tirqishlar va teshiklar sarf va kutilayotgan bosim bo'yicha hisoblanadi; tezligi 15-20 m/s bo'lgan uchastkalarda aeratorlar o'rnatiladi. Suv tashlash trakti profili bo'ylab egrilik va torayish/kengayishning keskin o'zgarishlari silliqalanadi; bo'rtib chiqqan joylar, pog'onalar va keskin choklar bartaraf etiladi; energiyani tarqatish va bosqichlar orasidagi havoni induksiya qilish uchun pog'onali novlar qo'llaniladi; ravon tutashuvlar, berilgan tezliklar uchun tavsiya etilganidan kam bo'lmagan tutashuv radiuslari beriladi; mahalliy oqim uzilishlarini keltirib chiqaradigan qisman/keskin ochilishlardan saqlanish uchun zatvorlarni ochish rejimlari rostlanadi.

Konstruktiv tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: suv tashlash inshootlarining kritik uchastkalarda po'lat plitalar (anodlangan yoki korroziyaga chidamli po'lat) va harakat kompensatorlari bilan ankerlarga mahkamlanadi; kompozit polimerbeton panellar ta'mirlash va almashtirish uchun yaxshi hisoblanadi; yuqori ishqalanish kuchiga ega epoksid/poliuretan qoplamalar hisobga olingan holda qo'llaniladi; qalinligi va turi hisoblash bo'yicha o'rtacha yuklamalar uchun 2-6 mm epoksid tizimlari va katta zarba yuklamalarida armaturalangan qatlam bilan birlashtiriladi; yangi yoki kapital ta'mirlanayotgan uchastkalarda zarbaga chidamlilikni oshirish uchun tolali betonlardan foydalaniladi; ta'mirlashni osonlashtirish uchun eng ko'p yuklangan joylarda oson almashtiriladigan qoplama



panellar loyihalashtiriladi; armaturaning zanglashga qarshi himoya sifatida inyeksion smolalar va ochiq armaturadagi himoya qoplamalari qo'llaniladi.

Texnologik tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: avval gidravlik tuzatishlar, keyin aeratorlarni o'rnatish, keyin qoplamalar ketma-ketligi amalga oshiriladi; suv/deformatsiyalarni olib tashlash uchun himoya qatlami orqali ankerlanadi va panel ostidagi tirqish nazorat qilinadi; bosim va akustikani qayd etish bilan bir nechta rejimlarda ($Q_{\min}$, $Q_{\text{ish.}}$, $Q_{\max}$) gidravlik sinovlar o'tkaziladi.

Monitoring tadbirlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: asosiy nuqtalarda manometrlar/bosim datchiklari, kavitatsiya shovqinini qayd etish uchun ultratovushli akustik sensorlar/mikrofonlar o'rnatiladi; video/foto kuzatuv va muntazam tekshiruvlar: vizual har oyda (suv toshqini mavsumida – tez-tez), batafsil – har yili, to'liq tekshiruv – har 3-5 yilda yoki anomal hodisadan keyin o'tkaziladi; shovqin/tebranish darajasining belgilanganidan oshishi darhol tekshiriladi; bosim/pasayish σ ning ruxsat etilganidan past o'zgarishi – tezkor rejimdan chiqarish yoki sarfni kamaytirish; qoplamalarni almashtirish ishlari rejasi materiali va sharoitlariga qarab tuziladi.

Ta'mirlash va tiklash tadbirlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: buzilgan qatlamlar olib tashlanadi, yaxshilab tozalanadi, kavernalar toza betongacha o'yiladi; monolitlikni tiklash uchun yoriqlar inyeksiya qilinadi; tiklovchi sementli aralashmalar tola bilan va so'ngra himoya qoplamalari yoki panellar surtiladi; katta kavernalarda zaminga ankerlash bilan po'lat/kompozit qistirmalar o'rnatiladi.

Kavitatsiya xavfini hisoblash usullarida kavitatsiya mezonlaridan foydalaniladi:

$$\sigma = p - p_v / 0,5 \cdot \rho V^2,$$

bunda σ – kavitatsiya koeffitsiyenti; p – mahalliy bosim; p_v – suvning to'yingan bug' bosimi; V – tezlik.

Kavitatsiya shartlari quyidagicha bo'ladi:

$\sigma \leq 0,2 \dots 0,4$ – kavitatsiya bo'lishi mumkin.

$\sigma \leq 0,1$ – intensiv kavitatsiya.

Suv tashlash inshootlarida xavfli kavitatsion eroziya betonlar uchun bir necha sutka va soatlarda, po'latlar uchun bir necha oy va haftalarda hosil bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, suv tashlash inshootlarida kavitatsion eroziyaning oldini olish bo'yicha yuqoridagi ketma-ketlik asosida tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa, suv tashlash inshootlarini rekonstruksiya qilmasdan yoki kapital ta'mirlash-tiklash ishlarini o'tkazmasdan ulardan foydalanish muddatlarini yana 30-40 yilgacha uzaytirish imkoniyatini tug'diradi.



ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ ЮТУҚЛАРИ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

FIZIKADAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARIDA
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH
METODIKASI

Ismoilov Sardorbek Bekmurod o'g'li

Jizzax Politexnika Instituti

Fizika kafedrası assistenti

Annotatsiya: Ushbu ishda texnika oliy o'quv yurtlarida fizika faniga oid laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil qilishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi tahlil qilish va dasturiy vositasining imkoniyatlari bilan tanishish real laboratoriyada bajara olmagan murakkab ishlarni innovatsion texnologiyalar orqali bajarishga doir ko'rsatma va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: fizika, real laboratoriya, virtual, metod, ta'lim sifati. innovatsion texnologiyalar.

Fizika o'qituvchisi talabalarga fizika fanidan zarur nazariy va amaliy bilimlarni beribgina qolmay, ularda fanga nisbatan qiziqish uyg'ota olishlari kerakki, natijada bu sohada yaxshi mutaxassis, yetuk kadrlar yetishib chiqishiga erishish mumkin bo'ladi. An'anaviy ta'limdan tizimidan farqli ravishda zamonaviy ta'limni tashkil etishdan maqsad ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishdir. Hozirgi kunda jahondagi rivojlangan davlatlarning oliy ta'lim tizimida mavjud bo'lgan va yurtimizda joriy qilingan kredit-modul ta'lim tizimi asosidagi o'quv rejalarida o'quv yuklamasining mustaqil ta'lim soatlari uchun 50-60% qismi ajratilgan. Bunday vaziyatda ta'lim jarayonida auditoriya mashg'ulotlarini olib borishda hamda qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni talabalarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek talabalar faoliyati, bilimni nazorat qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash fizika fani o'qituvchisidan katta pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga yangicha yondashishni talab etadi. Hozirgi davrda dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida talabalarning ilmiy faoliyatini, ijodkorligini oshiruvchi va shu bilan birga ta'lim-tarbiya jarayoninig samaradorligini kafolatlovchi yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan. Bugunga kelib o'qitish metodikasiga ta'lim-tarbiyaning turli xususiy masalalarini hal qilish zarurati natijasida kelib chiqqan va ta'lim-tarbiya metodikasi asosida ijodkor o'qituvchilarning ilg'or tajribalariga asoslanib rivojlanadi, bunda innovatsion texnologiyalar asosida fanni o'qitish va rivojlantirish tushuniladi. Bugungi kunda "innovatsion ta'lim" bu o'z-o'zini rivojlantirishga qodir



bo'lgan va uning barcha ishtirokchilarining har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratadigan ta'lim va innovatsion ta'lim-bu rivojlanayotgan ta'limdir.

Innovatsiya so'zi yangilik lotin tilida XVII asr o'rtalarida paydo bo'ldi va ma'lum bir sohaga yangi sohaning kirib borishi va unga ushbu sohada bir qator o'zgarishlarning paydo bo'lishi demakdir. Shuni anglatadiki, innovatsiya, bir tomondan, innovatsiyani amalga oshirish jarayoni emas, balki innovatsiyani muayyan ijtimoiy amaliyotga aylantirish faoliyatidir. Innovatsion faoliyat o'zining to'liq rivojlanishida o'zaro bog'liq bo'gan ish turlarini o'z ichiga oladi, ularning umumiyligi real innovatsiyalarning paydo bo'lishini ta'minlaydi.

Shulardan kelib chiqib laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etish metodikasi ko'p jihatdan nazariy materiallarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga olib keladi. Institut bitiruvchisi eksperimentlar o'rnatish, mustaqil tadqiqotlar o'tkazish, innovatsion texnologiyalarni yaratish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun talabalar real va virtual laboratoriya ishlarini tayyorlash va bajarishda mustaqil o'z-o'zini o'qitishning roli muhimdir. Talabalarning ilmiy va kasbiy faolligi oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari tomonidan yangi innovatsion texnologiyalardan darslarda faol foydalanganligi orqali shakllanishi kerak.

Ushbu ishda biz fizika fanidan real laboratoriya ishlarini bajarishga mustaqil tayyorlanishning tarkibiy elementi sifatida virtual laboratoriya ishlaridan foydalanishni tahlil qilib ko'ramiz.

Bugungi kunda ko'plab ta'lim muassasalari o'quv muhitida innovatsion texnologiyalardan, jumladan, fizika, kimyo, biologiya, ekologiya va boshqa fanlar bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda virtual laboratoriyalardan foydalanmoqda, chunki ta'lim muassasasida ko'plab o'quv hodisalari va tajribalarini o'tkazish juda qiyin yoki imkonsizdir.

Fizika fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda o'qitishda an'anaviy uslublardan yuz o'girmagan holda ularni innovatsion texnologiyalari va dasturlashtirilgan pedagogik vositalar bilan boyitib, faollashtirib virtual laboratoriya ishlarini yaratib, ulardan unumli foydalanish metodlari bilan fizika ta'limi mazmunini takomillashtirish imkoniyati yaratiladi. Fizika ta'limida (aniq va tabiiy fanlar yo'nalishi bo'yicha) foydalanishi mumkin bo'lgan darsliklar, metodik qo'llanmalar va bir qancha bajarilgan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinib, fizikani o'qitishni innovatsion texnologiyalari asosida takomillashtirish zarurligi aniqlandi.

Fizika ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarini qo'llashning o'rni va ahamiyatini izohlab berish, fizika fanini innovatsion texnologiyalari asosida o'qitishning didaktik imkoniyatlari, zamonaviy o'qitish texnologiyalari va vositalari asosida o'qitishning kontseptual asoslari, o'qituvchini kasbiy tayyorlash mazmuni va uning mantiqiy-tuzilmaviy sxemasini izohlash bu – ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2021 yil 19 martdagi № PQ-5032 qarori asosida «Fizika sohasida ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.
2. Дерягин А.В. Подготовка будущего учителя физики и информатики к созданию лабораторного оборудования с использованием компьютерных технологий // Научное обозрение. Педагогические науки. – 2014. – № 1. – С. 109-109;
3. Irkabayev Dj.U. Information technologies in teaching physics in a technical higher education institution. Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 4, April 2021.



БИОМЕДИЦИНА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

**SURUNKALI GEPATIT “C” KASALLIGIDA JIGARNING MORFO-
FUNKSIONAL XARAKTERISTIKASI.**

Jumanazarov Xasanboy Kamolbek o‘g‘li

Urganch davlat tibbiyot instituti

“Fiziologiya va patologik fiziologiya”

kafedrası Morfologiya yo‘nalishi 2-kurs magistranti.

Ilmiy rahbar: **Kalandarova Umida Arslonovna,**

Urganch davlat tibbiyot instituti

“Fiziologiya va patologik fiziologiya”

kafedrası katta o‘qituvchisi, PhD.

Mavzuning dolzarbligi. Gepatit C - bu hepatit C virusi keltirib chiqaradigan jigarning yallig‘lanishi. Virus ham o‘tkir, ham surunkali hepatitga olib kelishi mumkin, uning og‘irligi yengil kasallikdan jiddiy, umrbod kasallik, jumladan, jigar sirrozi va saratonigacha. Gepatit C virusi qon orqali yuqadigan virus bo‘lib, infeksiyaning aksariyati sog‘liqni saqlashdagi xavfli inyeksiya va protseduralar, tekshirilmagan qon quyish, giyohvand moddalarni inektsiya qiladigan odamlarda igna va shpritslarni almashish va qonga olib keladigan jinsiy amaliyotlar natijasida yuzaga keladi. Dunyo miqyosida taxminan 50 million kishi surunkali hepatit C virusi bilan kasallangan, har yili taxminan 1,0 million yangi infeksiyalar yuqishi ro‘y beradi. JSST hisob-kitoblariga ko‘ra, 2022 yilda taxminan 242 000 kishi hepatit C, asosan siroz va hepatotsellyulyar karsinomadan (birlamchi jigar saratoni) vafot etgan.

Tadqiqot metodi va natijalar: Tadqiqotda jami 80 nafar Xorazm viloyat Yuqumli kasalliklar shifoxonasida davolanayotgan bemorlar ishtirok etdi. Ularning 66 nafari (82.5%) ayollar, 14 nafari (17,5%) erkaklar tashkil etdi. Bemorlarning Xorazm viloyatining tumanlari bo‘yicha taqsimlanishi quyidagicha bo‘ldi: Urganch tumani 22 nafar (27,5%), Urganch shahar 18 nafar (22.5%), Hazorasp tumani 7 nafar (8,75%), Shovot tumani 6 nafar (7.5%), Xiva tumani 6 nafar (7.5%), Yangiariq tumani 5 nafar (6.25%), Xonqa tumani 4 nafar (5%), Qo‘shko‘pir tumani 4 nafar (5%), Yangibozor tumani 3 nafar (3.75%), Gurlan tumani 3 nafar (3.75%), Tuproqqal’a tumani 2 nafar (2.5%)ni tashkil etdi. Bemorlarning yosh nisbati esa quyidagicha guruhlariga ajratilib tahlil qilindi: 30 yoshgacha 5 nafar (6.25%), 30-60 yosh intervalda 62 nafar (77,5%), 60 yoshdan kattalar esa 13 nafar (21.6%)ni tashkil etdi. Bemorlar faqatgina surunkali hepatit “C”ning uchrashi 75 nafar (93,75%) holatda, surunkali hepatit “B” bilan koinfektsiya bo‘lib kelishi esa 4 nafar (5%) holatda, surunkali virusli hepatit “D” bilan koinfektsiya bo‘lib kelishi 1 nafar (1.25%) holatda uchradi. Nazorat guruhi saifatida 40 nafar sog‘lom odamlar olindi.

Natijalar muhokamasi. Gepatit C - bu yallig‘lanish deb ataladigan jigar shishishiga olib keladigan virusli infektsiya. Gepatit C jiddiy jigar shikastlanishiga



olib kelishi mumkin. Hepatit C virusi (HCV) virusi bo'lgan qon bilan aloqa qilish orqali tarqaladi. Surunkali hepatit C bilan og'rikan ko'plab odamlarda alomatlar yo'q. Ba'zilar odatda kasal bo'lish hissi, ishtahani yo'qotish, charchoq va qorin bo'shlig'idagi noaniq noqulaylik. Ko'pincha, birinchi o'ziga xos alomatlar sirroz yoki sirrozning asoratlari hisoblanadi. Ushbu alomatlar o'z ichiga olishi mumkin: kattalashgan taloq, terida ko'rinadigan kichik o'rgimchakka o'xshash qon tomirlari (qon tomir yulduzchasi), palmar eritema, assit, koagulopatiya, qizilo'ngach venalari varikoz kengayishi, sariqlik, jigar ensefalopatiyasi. Ushbu virus 1988 yilda aniqlangan. Virus organizmga tushgach, 80-90 % hollarda ko'payishi kuzatiladi. Virusli hepatit o'tkir kechganida kasallikning 3-4 oylarida antitanachalar paydo bo'ladi va bir necha yildan keyin yo'qoladi. Kasallikning surunkali kechishida esa antitanachalar hosil bo'lishi uzoq davom etadi. Bundan tashqari surunkali autoimmune hamda alkogolli hepatitlarda ham antitanachalar shakllanishi ro'y beradi, bu esa tashxislashda laboratoriyada soxta "musbat" belgini beradi. Virusli hepatit C strukturasida quyidagi antigenlar mavjud: Anti-HCV- hepatit C virusiga antitanachalar, o'tkir virusli infeksiyalarning boshlang'ich davrida (ba'zan 0,5-4,0 oy o'tgach) qon zardobida paydo bo'ladi. O'tkir virusli hepatit Cning retrospektiv va jigarining boshqa qator surunkali kasalliklarini etiologik jihatdan tashxislash maqsadida ham qo'llaniladi. Bemor qonida Anti-HCV aniqlangan holda albatta RNA HCV ham aniqlanishi kerak. Anti-HCV-IgM-hepatit C virusining IgMga antitanachalari, uning bo'lishi hepatit C virusiko'payayotganligidan darak beradi. RNK VG-C-hepatit C virusi RNKsi, Virus ko'payayotganligining asosiy belgisi bo'lib, uning mavjudligi virusga qarshi davo o'tkazishga ko'rsatma hisoblanadi. Kasallikning yosh guruhlarida tarqalishiga e'tibor bersak, asosan, 30-60 yosh intervalda ko'proq. Bu esa aholining mehnatga layoqati yuqori bo'lgan qismidir. HCV bilan og'rikan bemorlarda kasallik bilan bog'liq anemiya rivojlanishining og'irligi va vaqti bir qator omillar bilan belgilanadi, ular orasida HCV ning bevosita ta'sirini ham, bemorning o'ziga xos xususiyatlarini ham ajratish mumkin. HCV bilan og'rikan bemorlarda splenomegaliya rivojlanishi, eritrotsitlarning o'rtacha hajmi va o'rtacha diametrining oshishi, mutlaq va nisbiy retikulotsitozning rivojlanishi, qarigan "gemolitik" hujayralar ustunligi bilan morfologik shakllarning muvozanati, shuningdek turli xil ultrastrukturaviy nuqsonlar qayd etilgan. Surunkali hepatit C bilan og'rikan bemorlarda sofosbuvir va ribavirin terapiyasida og'ir anemiya kam bo'lmagan. Surunkali buyrak kasalligi va gemoglobin va trombotsitlarning asosiy darajasi past bo'lgan bemorlarda anemiyani diqqat bilan kuzatib borish zarur. Natijalarda shu ko'rinadiki, qondagi gemoglobin miqdori, umumiy bilirubin miqdori, va ECHT orasida mustahkam bog'liq bor. ECHTning ortib borishi ko'proq hepatomegaliyalii bemorlarda kuzatildi, gepatosplenomegaliyalii bemorlarda esa umumiy bilirubin va gemoglobinning ortib borishi hepatomegaliyalii bemorlarda kuzatildi. Umumiy bilirubin miqdoring hepatomegaliyalii bemorlarda yuqori ekanligi kasallikning dastlabki davrlarida gepatotsitlar parchalanishi yuqori ekanligini, funksional faoliyatning nisbatan kuchliroq buzilishini ifoda etadi. Qondagi gemoglobin miqdoring



gepatosplenomegaliyali bemorlarda kamligini taloq gipertrofiyasi va shu orqali temir metabolizmining izdan chiqishini ko'rsatadi.

Xulosa: Kasallikning eng ko'p uchrash tumani tadqiqotimizda Urganch tumani bo'ldi, kasallik jins nisbatlariga ko'ra tahlil qilinganda ayollarda yuqori ekanligi aniqlandi. Yosh guruhlariga ko'ra tahlil qilinganda 30-60 yosh intervalda yuqori. Asosiy makroskopik patomorfolik o'zgarishlardan hepatomegaliya gepatosplenomegaliyadan ko'proq tarqalgan.



SURUNKALI GEPATIT “C” KASALLIGIDA JIGARNING MORFO-FUNKSIONAL XARAKTERISTIKASI.

Jumanazarov Xasanboy Kamolbek o‘g‘li

Urganch davlat tibbiyot instituti
“Fiziologiya va patologik fiziologiya”
kafedrasi Morfologiya yo‘nalishi 2-kurs magistranti.

Ilmiy rahbar: **Kalandarova Umida Arslonovna,**

Urganch davlat tibbiyot instituti
“Fiziologiya va patologik fiziologiya”
kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD.

Mavzuning dolzarbligi. Gepatit C - bu hepatit C virusi keltirib chiqaradigan jigarning yallig‘lanishi. Virus ham o‘tkir, ham surunkali hepatitga olib kelishi mumkin, uning og‘irligi yengil kasallikdan jiddiy, umrbod kasallik, jumladan, jigar sirrozi va saratonigacha. To‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiluvchi virusga qarshi dorilar hepatit C infeksiyasi bilan kasallanganlarning 95% dan ko‘prog‘ini davolay oladi, ammo tashxis va davolash imkoniyati past. Hozirgi vaqtda hepatit C ga qarshi samarali vaksina mavjud emas. Gepatit C virusi (HCV) butun dunyo bo‘ylab 58 million kishiga ta’sir qiluvchi asosiy sog‘liqni saqlash muammosidir. Butun dunyoda unga qarshi antikorlarga seropozitiv bo‘lgan odamlarning foizi 1990-2005 yillar orasida 2,3% dan 2,8% gacha oshgani taxmin qilinadi. O‘tkir infeksiyaga duchor bo‘lgan bemorlarning aksariyati (80% dan 85%) virusni tozalay olmaydi va surunkali infeksiyaga o‘tadi. Surunkali infeksiyaning ta’siri pirovardida sirroz, portal gipertenziya, ensefalopatiya bilan jigar dekompensatsiyasi va gepatotsellyulyar karsinoma rivojlanishi mumkin. Davolash manzarasi 2011 yilda yuqori faol to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiluvchi virusga qarshi vositalar joriy etilganidan beri sezilarli darajada o‘zgardi. Surunkali hepatit C butun dunyo bo‘ylab ko‘plab odamlarga ta’sir qiluvchi muhim global sog‘liq muammosi bo‘lib qolmoqda 3,26 millionga yaqin bola surunkali hepatit C bilan kasallangan, bu uning jiddiy muammo ekanligini ta’kidlaydi. Virusli hepatit butun dunyo bo‘ylab aholi salomatligiga tahdid soladigan va o‘limning asosiy sababidir. Virusli hepatitdan har yili o‘lim darajasi OIV va sil kabi boshqa asosiy yuqumli kasalliklarga o‘xshaydi. Yuqori samarali profilaktika choralari va davolash virusli hepatitni global yo‘q qilishni JSSTga a’zo barcha davlatlar tomonidan ma’qullangan real maqsadga aylantirdi. Katta maqsadlar 2030 yilga kelib hepatit bilan bog‘liq o‘limni global miqyosda 65 foizga va yangi infeksiyalarni 90 foizga kamaytirishni talab qiladi.

Tadqiqot metodi va natijalar: Tadqiqotda jami 80 nafar Xorazm viloyat Yuqumli kasalliklar shifoxonasida davolanayotgan bemorlar ishtirok etdi. Ularning 66 nafari (82.5%) ayollar, 14 nafari (17,5%) erkaklar tashkil etdi. Bemorlar patomorfologik ko‘rsatkichlarga ko‘ra gepatomegaliyali va gepatosplenomegaliyali bemorlar guruhiga ajratib, jigarning va organizmning



funksional, biokimyoviy ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslandi. Bemorlarning 64 nafarida (80%)ida gepatomegaliya aniqlangan bo'lsa, qolgan 16 nafarida (20 foizida) gepatosplenomegaliya aniqlandi. Gepatomegaliyalii bemorlarda va gepatosplenomegaliyalii bemorlarda gemoglobin, jigarining funksional holatiga ta'sir etuvchi ECHT, u orqali yallig'lanish jarayoni jadalligi tahlil qilindi. Unga ko'ra, gepatomegaliyalii bemorlarda umumiy bilirubin miqdori: maksimal 167.8mmol/l, o'rtacha miqdori 28,57mmol/l, minimal miqdori esa 15mmol/l ni tashkil etadi. Gemoglobin esa (g/l) maksimal 129, o'rtacha 96.7, minimal 69 ni tashkil etdi. ECHT(mm.soat) maksimal 12, o'rtacha 8,4, minimal 6 bo'ldi. Gepatosplenomegaliyalii bemorlarda esa umumiy bilirubin miqdori: maksimal 154.3mmol/l, o'rtacha miqdori 33,75 mmol/l, minimal miqdori esa 16.7mmol/l ni tashkil etadi. Gemoglobin esa (g/l) maksimal 107, o'rtacha 90.5, minimal 85 ni tashkil etdi. ECHT(mm.soat) maksimal 10, o'rtacha 8,25, minimal 6 bo'ldi.

Natijalar muhokamasi. HCV bilan og'rigan bemorlarda kasallik bilan bog'liq anemiya rivojlanishining og'irligi va vaqti bir qator omillar bilan belgilanadi, ular orasida HCV ning bevosita ta'sirini ham, bemorning o'ziga xos xususiyatlarini ham ajratish mumkin. HCV bilan og'rigan bemorlarda splenomegaliya rivojlanishi, eritrotsitlarning o'rtacha hajmi va o'rtacha diametrining oshishi, mutlaq va nisbiy retikulotsitozning rivojlanishi, qarigan "gemolitik" hujayralar ustunligi bilan morfologik shakllarning muvozanati, shuningdek turli xil ultrastrukturaviy nuqsonlar qayd etilgan. Surunkali gepatit C bilan og'rigan bemorlarda sofosbuvir va ribavirin terapiyasida og'ir anemiya kam bo'lmagan. Surunkali buyrak kasalligi va gemoglobin va trombotsitlarning asosiy darajasi past bo'lgan bemorlarda anemiyani diqqat bilan kuzatib borish zarur. Natijalarda shu ko'rinadiki, qondagi gemoglobin miqdori, umumiy bilirubin miqdori, va ECHT orasida mustahkam bog'liq bor. ECHTning ortib borishi ko'proq gepatomegaliyalii bemorlarda kuzatildi, gepatosplenomegaliyalii bemorlarda esa umumiy bilirubin va gemoglobinning ortib borishi gepatomegaliyalii bemorlarda kuzatildi. Umumiy bilirubin miqdoring gepatomegaliyalii bemorlarda yuqori ekanligi kasallikning dastlabki davrlarida gepatotsitlar parchalanishi yuqori ekanligini, funksional faoliyatning nisbatan kuchliroq buzilishini ifoda etadi. Qondagi gemoglobin miqdorining gepatosplenomegaliyalii bemorlarda kamligini taloq gipertrofiyasi va shu orqali temir metabolizmining izdan chiqishini ko'rsatadi.

Xulosa: Kasallikda ro'y beradigan asosiy patomorfologik xususiyati gepatomegaliya gepatosplenomegaliyaga qaraganda ko'proq tarqalish xususiyatiga ega. Jins nisbatida ayollarda ko'proq uchragani aniqlandi. Jigar funksional holatini baholaydigan omillar esa ECHT hamda qondagi gemoglobin miqdori bilan mustahkam bog'liq ekanligi aniqlandi.



ВЛИЯНИЕ НИЗКОИНТЕНСИВНОГО ЛАЗЕРНОГО И СВЕТОДИОДНОГО ИЗЛУЧЕНИЯ В СОЧЕТАНИИ С ГЕЛЕМ ХОЛИСАЛ НА СОСТОЯНИЕ СЛИЗИСТОЙ ОБОЛОЧКИ ПОЛОСТИ РТА, МИКРОЦИРКУЛЯЦИЮ И МОРФОЛОГИЮ ЭРИТРОЦИТОВ У ПАЦИЕНТОВ С ПРОТЕЗНЫМ СТОМАТИТОМ

Ризаев Жасур Алимджанович

доктор медицинских наук,
профессор, ректор Самаркандского
государственного медицинского института.

Ирханов Миравзал Мираззамович

ассистент кафедры Госпитальной
ортопедической стоматологии,
Ташкентский Государственный
медицинский университет.

